

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000-Gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5410200-Agronomiya
	(dehqonchilik mahsulotlari turlari)

Guliston – 2018

O'quv- uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 8.08. 2016 yil tasdiqlangan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani namunaviy dasturi (№ BD – 5111000- 3.03) talablari asosida tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua 5410200 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari) bakalavryat ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Tuzuvchi: Xoliqov U.K GulDU “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o'qituvchisi _____(imzo)

Taqrizchilar: Adukarimov H. GulDU “Pedagogika va psixologiya ” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi _____ (imzo)

Raximov B.X GulDU “Pedagogika va psixologiya ” kafedrasida Ped.fan.dok., prof. _____ (imzo)

Ushbu o'quv-uslubiy majmua GulDU Ilmiy-uslubiy Kengashining 2017 yil “28” avgustdagi № 1 - sonli majlis Qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАРИ	5
АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРИ	132
МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ МАШҒУЛОТЛАРИ	154
ГЛОССАРИЙ	158
ИЛОВАЛАР	164
Fan dasturi.....	164
Ishchi fan dasturi.....	178
Test savollari.....	199
Qo'shimcha didaktik materiallar.....	206

KIRISH

Amaldagi 5410200 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari) bakalavriat ta'lim yo'nalishi davlat ta'lim standarti (2016) hamda «tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanning o'quv dasturiga (2016) muvofiq talabalar O'zbekiston Respublikasining taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bugungi kunda qishloq xo'jaligi bo'yicha islohotlarni chuqurlashtirish uchun fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy salohiyatini o'stirish hamda ularning qishloq xo'jalik soha o'zgarishlarini to'g'ri talqin qilishlari va bu jarayonlarni boshqara olishlari talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasining taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bugungi kunda qishloq xo'jaligi bo'yicha islohotlarni chuqurlashtirish uchun fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy salohiyatini o'stirish hamda ularning qishloq xo'jalik soha o'zgarishlarini to'g'ri talqin qilishlari va bu jarayonlarni boshqara olishlari talab etiladi.

«Tarbiyaviy ish metodikasi» fani talabalarni hozirda mavjud bo'lgan tarbiyaviy ishlarni shakllari bilan tanishtiradi va ana shu shakllardan mahorat bilan foydalanish malakasini shakllantiradi.

Hozirgi kunda tarbiyaviy ishlardan o'quv jarayonida foydalanish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish eng muhim masalalardan bo'lib hisoblanadi. Hamda, XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob bera olishlari uchun oliy ta'lim muassasalarida sifatli kadrlarni, xususan qishloq xo'jaligi sohalari bo'yicha pedagoglarni etkazib berish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanning asosiy maqsadi – bo'lajak mutaxassislarni “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalar hamda 5111000 – Kasb ta'limi (5410200-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha), 5430100-Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, 5430200-Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish, 5410500-Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablar darajasida tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishini nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish hamda sog'lom avlodni tarbiyalash masalalariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – uni o'rganuvchilarga:

- “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida o'quvchilarni g'oyaviy tarbiyalashning maqsadi, vazifalari va usullarini o'rganish;
- bo'lajak mutaxassislarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning shart-sharoitlarini aniqlash;
- pedagoglarning o'quvchilar bilan o'zaro muomalasini o'rganish;
- tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, uning sifati va samaradorligini oshirishda yangicha ishlashning metodi, vositalari va shakllaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatish;
- o'quvchilarni o'rganish, kuzatish va ta'sir ko'rsatish yo'llarini aniqlash;
- guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasini yoritish;

Манзилимиз: 120100. Гулистон шаҳри, IV мавзе, Университет,
«Педагогика ва психология» кафедраси

O'QUV MATERIALLARI



1-MA'RUZA.

“TARBIYAVIY ISH METODIKASI” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Asosiy savollari:

1. Tarbiyaning umumiy ta'rifi.
2. Tarbiya jarayoni va uning mohiyati.
3. “Kadrlartayyorlash milliy dasturi” asosida o'quvchilarni g'oyaviy tarbiyalash maqsadi, vazifalari va usullari.
4. SHarq olimlarining sharqona tarbiya haqidagi bildirgan fikrlari.
5. G'arb olimlarining tarbiya usullari haqidagi fikrlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: qonun, qonuniyat, izchillik, pedagogik qonunlarning jamiyat qonunlari bilan bog'liqligi, prinsip, tarbiyaning asosiy qonuniyatlari. Tarbiya metodi, tarbiya vositasi, tarbiyaviy ta'sir shakli, tasnif, ijtimoiy ongning shakllantirish, faoliyatni tarkib toptirish, ijobiy xususiyatlarga yo'naltirish, o'z-o'zini tarbiyalash.

1- savol bayoni:

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo'naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiy va aniq vazifalar sifatida guruhlanadi.

Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko'plab ob'ektiv sabablar etakchi rol o'ynaydi. Organizmning fiziologik etilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi,

falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiy yo'nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkura va siyosati bo'lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko'pgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSh, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonunini hayotga joriy etish, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash hamda umumiy tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, maktablarni milliy lashtirish, o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar o'z samarasini bermiqda.

Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axlohiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi yotadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari mustahkamlanadi.

Qonuniyat - barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan quyidagilarni olishimiz mumkin:

Tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlariga bo'linishi natijalarga olib keladi.

Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Tarbiya qonuniyatlari birinchi navbatda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi. O'zbekiston milliy istiqbolga erishgandan keyin tarbiyaning jamiyat oldidagi mohiyati o'zgardi.

Tarbiyaning yana bir qonuniyati uning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllarining uzviy bog'liqligidir. Yoshlarga beriladigan tarbiya avvalo aniq maqsadga yo'naltirilgan, shu maqsadni ro'yobga chiqarishda tarbiyaning mazmuni, usullari va shakllari bir-birini to'ldirishi, takomillashtirishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Qonuniyat deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy qonuniyatlar bilan tarbiya qonuniyatlarining bog'liqligini hayotiy misollar keltirish yo'li bilan yozma dalillab bering.
3. Tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojga mos bo'lishi qonuni deganda nimani tushunasiz?
4. Tarbiya mazmuni, maqsadi, usullari va shakllarining bog'liqligi qonuniyatini og'zaki sharhlab bering.
5. Turli sinf o'quvchilaridan bir qancha yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini tarbiya qonuniyatlariga qanday darajada amal qilinganligini tahlil qiling.
6. Tarbiya qonuniyatlari bilan prinsiplari orasidagi bog'lanishni izohlang.
7. Tarbiya qonuniyatlariga amal qilmasdan yashagan kishilarni bilasizmi? Ularning turmush tarzi, jamoatchilik orasidagi o'rni haqida misollar keltiring.

2- savol bayoni:

Tarbiya jarayonining mohiyati. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (sub'ektiv va ob'ektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Sub'ektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, ob'ektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda ob'ektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab etakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy hismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi.

Ayni vaqtda, respublikada o'quvchilarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, texnika va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko'rgazma, ko'rik va suhbatlar o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitdir, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishi talab qiladi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga nisbatan ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tishkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining ob'ektigina bo'lib qolmasdan, sub'ektiv sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – tarbiyada qarama-qarshiliklarning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog'lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

- 1) aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
- 2) ko'p qirrali jarayon;
- 3) uzoq muddatli jarayon;
- 4) yaxlit tizimlilik jarayon;
- 5) ikki tomonlama aloqa jarayoni;
- 6) qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

Nazorat savollari:

1. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
2. Shaxsan Siz tarbiyaning vazifalarini qanday tushunasiz?
3. Tarbiyaning turlarini tasvirlab bering.
4. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3- savol bayoni

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tadbiiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak».

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarini ifodalaydi):

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrof-dagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarining tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqq olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining

so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Nazorat savollari:

1. Pedagoglik kasbining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. O'qituvchi qanday sifatlarga ega bo'lishi zarur?
3. Sizing nazaringizda bugungi kun o'qituvchisiga qanday pedagogik talablar qo'yilmoqda?

4- savol bayoni:

Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rnini haqida. Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- 2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- 5) fanga qiziqitira olishi;
- 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- 7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- 8) har bir so'zning boalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlarni, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. ... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir».

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: «Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima etsin.

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila».

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rnini beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy

qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta'kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur», - deydi.

O'rta asrlar davrida Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag'dod), «Ma'mun akademiyasi» (XI ar boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, turli sohalar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy etuk inson sifatida ham nom qozondilar.

Nazorat savollari:

1. Farobiyning komil inson haqidagi fikrlaridan keltiring
2. Beruniyning ta'lim-tarbiyaga oid o'arashlari o'aysi asarlarida ban o'ilingan?
3. Ibn Sinoning oilada bola tarbiyasiga oid fikrlari?

5-savol bayoni:

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizi kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug')ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalariga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta'siridan himoyalani, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun etarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma'lum mehnat faoliyati yo'nalishida etarlicha bilimga ega bo'lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o'rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda paydo bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan.

Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.

Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar

o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida qudorlik tuzumida bolalarni ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular «pedagog» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi «bola etaklovchi» demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar.

Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik «er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortida ergashtiruvchi va diniy e'tiqod.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomilashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

Nazorat savollari:

1. G'arb mutaffakirlarning komil inson haqidagi fikrlaridan keltiring
2. Yan Amos Komenskiy ning ta'lim-tarbiyaga oid o'arashlari o'aysi asarlarida ban o'ilingan?
3. K.D.Ushinskiy oilada bola tarbiyasiga oid fikrlari?

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

2-MA'RUZA.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY-IJODIY MEROSIDAN TARBIYAVIY MAQSADLARDA FOYDALANISH

Asosiy savollari

1. Farobiyning komil inson haqidagi fikrlari.
2. Beruniyning moddiy va ma'naviy olam yaxlitligi to'g'risidagi qarashlari.
3. Ibn Sinoning inson shaxsi va uning botiniy hamda zohiriy qiyofasini taqqosiy baholaganligi.
4. Amir Temurning shaxs va jamiyat munosabatlari haqidagi tuzuklari.
5. Alisher Navoiyning o'zlikni anglash haqidagi g'oyalari ilmiy-ma'rifiy merosi va uning tarbiyaviy ahamiyati.

6. Hadis ilmi va uning tarbiyaviy qadrqimmatini haqida.
7. Jadidchilik harakati namoyondalari tarbiya haqidagi an'anaviy va noan'anaviy fikr va qarashlari

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: maqsad, tarbiya maqsadi, tarixiy xarakter, mafkura, tarbiya vazifalari, tarbiyaning tarkibiy qismlari, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, mehnat, huquqiy tarbiya.

1-savol bayoni

Abu NasrForobiy (873-950).

Forobiy 873 yilda Sirdaryoning forob degan joyida tug'iladi. U boshlang'ich ma'lumotni uz yurtida oladi.

5 yoshdan u yozish va o'qishni bilar edi. U yoshligidanoq o'rta asr fanlarini chuqur o'rganadi. U ilmiy malakasini takomillashtirish maqsadida 10 yoshidan Shosh, Samarqand va Buxoroga kelib ta'lim oladi.

Lekin bu joylar uning ilmga bo'lgan chankokligini qoniqtirmaydi. U Eronning Ray, Hamadon shaxarlarida bo'ladi.

U umrining 40 yildan ortig'ini Bag'dodda o'tkazadi. U bir vaqtning o'zida arab, fors, yunon tillarini o'rganadi.

Forobiy aniq fanlar: ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga qiziqadi. Lekin u ko'proq falsafa ilmi bilan shug'ullanadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra u Buxoroda bo'lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko'ra falsafiy asar «At-taxlimiy» asarini yozadi. Shu asari tufayli «Muallim as-soniy» (ikkinchi muallim) laqabi bilan mashhur bo'ladi. Olim 70 dan ortiq tilda so'zlasha olgan. U 160 dan ortiq asarlar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqini etib kelgan xolos.

Forobiy asarlarining mazmuniga qarab 7 ta katta guruhga bo'lib chiqishimiz mumkin. Ana shu turkumlash jarayonidagi eng muhim bo'limi tarbiya masalasiga bag'ishlangan ettinchi qismdir. U ta'lim - tarbiyaga oid, «Baxt-saodatga erishish yo'llari haqida risola», «Fozil odamlar shahri», «Fazilatli xulklar», «Shaharni o'rganish haqida» kabi asarlar yaratgan.

Olimning yuqorida biz tilga olgan asarlari butun jahon ziyolilari tomonidan haqli ravishda yuksak baholangandir.

Forobiyning asarlari arab tilidan dunyoning ko'p tillariga-rus, ingliz, ispan, frantsuz, o'zbek tillariga tarjima qilingan.

Forobiy nihoyatda buyuk olim va mutafakkir edi. Chunonchi, uning asarlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'z ilmiy qarashlari bilan yangi davrga darcha ocha bilgan va zamondoshlaridan bir necha asr olg'a ketgan.

Forobiyning quyidagi pedagogik qarashlari yoshlarga muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir.

1. Ta'lim - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi.
2. Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan, ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi, deydi.
3. Har kimki ilm, hikmatai desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.
4. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.
5. Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi... Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo'ladi va shu fazilatlarini 2 turga bo'ladi.

1. Fikriy fazilat

2. Xulqiy

Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik fahm-farosatlilik zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat - intiluvchi quvvatga kirib iffat, injoat, sahiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir.

Xulosa qilib aytganda, Forobiyning yuqoridagi ta'lim-tarbiyaga oid kontseptsiyasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Nazorat savollari:

1. Farobiyning komil inson haqidagi fikrlaridan keltiring

2-savol bayoni

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy 973 4 sentyabrda Xorazmda dunyoga keladi. Beruniy yoshligidan ilmga ayniqsa aniq fanlarga qiziqadi. U matematika, jo'g'rofiya, yulduzlar ilmi, tibbiyot fanlariga oid ko'p kitoblarni o'qib chiqadi. Fors va arab tillarini va qadimgi ajdodlar tillarini qunt bilan o'rganadi.

Beruniy bir necha yil koinot, metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida «Minerologiya» asarini yaratadi. Uning «Geodeziya» asarida geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda paleontologik kuzatishlari natijalari ham bayon qilingan.

Beruniyning yana bir muhim asari «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar"dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha va ma'lumotlar bergan. Olim 1030 yilda o'zining Sharq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Xindiston» asarini yaratadi. Asarda Beruniyning Xindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan.

Hammasi bo'lib 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Olim o'z asarlarini o'sha davr an'anasiga ko'ra arab tilida yozgan. Beruniy yuqoridagi asarlarida inson kamoloti xaqida o'z qarashlarini bayon etadi.

Beruniy mamlakat obodonchiligi ilm-fanning ravnaqiga bog'liq bo'lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi, axloqi va ma'rifatida deb biladi.

Shuning uchun u yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan raxmdil, mexribon, kishilarga iltifotli, xayrihoh, bo'lishni, najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, boylikka xirs qo'yish, yolg'on gapirish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi 2 turga bo'ladi. Beruniy inson va axloqiy tarbiya xaqida fikr yuritarkan, «insonga er yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun xar bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim», - deydi. Aqliy tarbiya, deydi Beruniy, kishining tafakkurini rivojlantirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Uning o'z-o'zini anglab etishiga ta'sir etadi.

Mutafakkir inson kamolotida mexnat va mexnat tarbiyasi hakida muhim fikrlarni bayon etadi. U xar bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mexnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan soxiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli, olimlar mehnatiga alohida e'tibor beradi va hayrihoh bo'lishga chaqiradi. Shu bilan birga og'ir mehnat qiluvchi konchilar, er ostida ishlovchilar, dexqonlar xaqida gapirib, ularning mexnatini rag'batlantirib turish kerak deydi. Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida xam fikr yuritadi. U bolalarni eng kichik ilk yoshidan mehnatga o'rgatish kerak deydi. Beruniy «Minerologiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar xaqida emas, xunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari xaqida qimmatli fikrlar bildiradi.

«Saydana» nomli mashhur asarida esa sharqdagi dorivor o'simliklarning tavsifi bayon qilingan. Beruniy inson kamolotida 3 narsa muxim rol o'ynaydi deydi.

1. Irsiyat.

2. Muhit.

3. Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari xakidagi fikrlari xozirgi davr uchun ham dolzarbdir. o'quvchiga bilim berishda u:

-o'quvchini zeriktirmaslik;

bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;

-uzviylik, izchillik;

-yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va xokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Olim fan soxasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid koldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi. Ilm toliblariga qalbni yomon ilatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, xirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuxratdan saklanishi zarurligini uqtiradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari o'z zamonasi uchun emas, xozirgi davr ta'lim-tarbiyasini takomillashtirishda xam katta axamiyatga egadir.

Nazorat savollari:

1. Beruniyning ta'lim-tarbiyaga oid o'arashlari o'aysi asarlarida ban o'ilingan?

3-savol bayoni

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) 980 yilda Buxoro shaxri yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Abdullox va uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralarida yosh Ibn Sino xam qatnashar edi. Bunday oilaviy muxit, Buxoro shaxridagi ko'plab madrasalar, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxonalarning mavjudligi ham yosh va iqtidorli Ibn Sinoga o'z ta'sirini ko'rsatadi. U maktabda o'qib ko'pgina ustozlardan ta'lim oladi. Masalan: Abdullox Notiliydan falsafa, mantiq, xandasa buiicha, Buxorolik Abu Mansur Qamariydan til bo'iicha ta'lim oladi. IX asr oxiri va X asr boshlariga kelib o'lkada siyosiy ijtimoiy vaziyat murakkablashadi. Shuning uchun Ibn Sino Xorazmga-Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda bir qator olimlar bilan xamkorlikda Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasida» ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Natijada o'zining yirik asari «Tib konunlari», «Ash-Shifo» ustida ish olib boradi. Ibn Sino fanning turli sohasiga oid 450 dan ortik asar yaratadi. Lekin bizgacha 250 ga yakini etib kelgan bo'lib, ulardan 50 dan ortik qo'l yozmalari O'zbekiston fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining kitob fondida saqlanib kelmokda. U ta'lim-tarbiyaga ta'lluqli bo'lgan quyidagi asarlarni yaratgan. Masalan: «Tadbir al-Manozil» (turar joyni boshkarish), «Axloq haqida risola», «Burch hakida risola», «Nafsn pokiza tutish», «Badanni boshkarish», «Adolat hakida kitob», «Al-konun», «Ishq hakida risola», «Xay ibn-Yakzon», «Nomozning mohiyati haqida risola», «Ziyorat kilishning ma'nosi hakida», «An-Najot», «Ash-Shifo», «Donishnoma» kabi asarlari bilan ilm-fanga hissa ko'shgan buyuk allomadir. Shuning uchun ham Sharqda unga, "Shayx ur-Rais" - ya'ni olimlarning olimi degan yuksak unvon berilgan. U o'zining «Axloqqa oid risola»sida insonning umumiy fazilati hakida gapirib, kishilarda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lish sabablari to'g'risida to'xtaladi. Uning fikricha yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo'ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishida hukumat ahllarining ta'siri ham zo'r bo'ladi, deydi. Ibn Sino axloqiy hislatlardan: iffat, kanoat, saxiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, sirni saklay bilishlik, ilm- ma'rifatli bo'lish, kamtarlik, adolatlilik, do'stlik, vafodorlik kabi axloqiy kategoriyalarga ta'rif beradi. U insoniy fazilatlarga:

Jasurlik - biror ishni bajarishda kishining jasurligi; Chidamlilik - inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat;

Aqllilik - biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik kilishdan saklovchi quvvat;

Ziyraklik - sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushinishga yordam beruvchi quvvat.

Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'xton, irodasizlik kabilardir.

U fanlar tavsifi xakida ham fikr bildirgan Olim birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini ko'yadi. falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga bo'ladi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi.

Ikkinchi guruxga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritgan. Olim fizika, adabiyot, tarix fanlari bilan shug'ullangan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda kuyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi.

-bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib ko'ymaslik;

-ta'limda engildan og'irga borish orkali bilim berish;

-olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;

-o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;

-bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

-o'qitishni jismoniy mashqlar bilan ko'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga xam mos kelishi bilan qimmatli bo'lib, bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustaxkam bilim olishiga yordam beradi.

U bola tarbiyasi xaqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'iishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olijanob vazifasi deb biladi. Agar qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotellar bola tarbiyasini davlat ixtiyoriga qo'ysalar, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak deydi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino buyuk olim, faylasuf, adib, tabib bo'lishi bilan birga buyuk murabbiy edi. U ta'lim-tarbiya xaqida juda ko'p bosh qotiradi.

Olimning pedagogika faniga qo'shgan xissasi shundaki, u ta'limiy tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, xam axloqiy, xam estetik xamda jismoniy tomondan rivojlanishi, kamolga etishining mezonini ishlab chiqadi.

Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa olimning tarbiya soxasidagi katta xizmatlaridan xisoblanadi.

Yana uning xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mexnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug'ladi, undagi qudratga ishondi. Inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini targ'ib qildi.

Nazorat savollari:

1.Ibn Sinoning oilada bola tarbiyasiga oid fikrlari?

4-savol bayoni

Tarixdan bizga ma'lumki, Movarounnahrda qariyb bir yarim asr davomida Movarounnaxr mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron etildi. Fan- madaniyat, ma'rifatga juda katta putur etkazildi. Xonavayron bo'lgan Movarounnaxr xalqi XIV asrning boshlariga kelib Mo'g'ul istilochilari zulmidan kutila boshladi. Movarounnaxrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Maxmud Torobiy boshchiligida qo'zg'aldi, Samarkand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'alonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat xatto xokimiyatni ham boshqarib turdilar.

Markazlaian buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movaraunnaxrda yana fan va madaniyat, maorif kaytadan ravnak topa boshladi. Shuning uchun xam tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr o'rta Osiyoda Shark o'yg'onish davrining ikkinchi boskichi deyilishi bejiz emas... chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iktisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi.

Amir Temur xukmronligi davrida jaxonning ko'plab shaxarlaridan Samarqandga xunarmandlar, san'atkorlar, muxandislar, olimu-fozillar olib kelindi va ularning tajribalaridan ilm-ma'rifat, madaniyat va qurilish jabxalarida keng foydalanildi.Samarqand va Xirotda madrasalar, rasadxonalar, bog'u-rog'lar, madaniyat o'chog'lari barpo etildi. Shu davrga kelib tibbiyot ilmimi o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa, xuquqiy, targ'ibot, tarbiyashunoslikka oid bir qator ajoyib va muxim asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oni, Imom Buxoriy, At-Termiziy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga xarakat kuchaydi. Mamlakatda davlatni boshqarishni mukammallashtirish, qurilish, obodonchilik, sug'orish ishlariga, shaxarlar o'rtasidagi savdo yo'llarini kengaytirishga katta e'tibor berildi.

Zamondosh tarixchilarning e'tirof etishicha, soxibqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlari - davlat, mamlakat va fuqaroning g'amxo'ri bo'lganligi edi. Jaxongirlik qoidasi esa haqiqat - sixat-salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat - adolat deb tushunilgan.

Buyuk bobokalonimiz xar vaqt: «Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalk ham ulug'laydi», degan xikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va xayotda o'zlari bunga amal qilganlar. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur, odob - axloq, iymon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya soxasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka

erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch xosil qilish uchun uning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasixatlarni, shuningdek Soxibqiron xaqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya.

Tarix fanlari doktori prof. Ashraf Axmad Soxibqiron Amir Temurning o'zi amal qilgan sifatarni yuksak baxolaydi. Bular quyidagilar:

-... Hammaga xam bir xil: jiddiy va odil qaradim... Boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim;

-... Islomga kat'iy rioya kildim. ...

-Men kambag'allarga ko'p xayr-ex,son kildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal kilishga butun jahdimni sarf kildim;

-Xaloyikka rahm kildim, barchaga naf' etkurdim.

-... Birovga nohak ozor etkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krashdan itarmadim...; -Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qilib keldim...;

-Barcha so'zlarimdan doim haqiqat go'ylikka amal kildim...

-Men har kimga va'da bersam, unga vafo kildim...;

-Doimo o'zimni Allohning erdagi mulkning posboni deb bildim va parvardigor iznisiz uni sarf etmadim...;

-Men har doim insof bayroshni baland ko'tardim va iymon tarkatishni o'z buyukligimning kudratli zamini deb bildim...;

-Men doim saidlarga ehtikom bilan karadim, ulamo va shayxlarni e'zozladim...

Shunday qilib soxibqiron Amir Temurning ibratli, xayotiy pand-nasixatlari va purma'no o'gitlarining har bir mazmun va ma'no kengligi, mantikning kuchliligi, teranligi, ta'siri umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan aloxida axamiyat kasb etadi, ularni hadsiz hazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Ulug'bek tashabbusi bilan o'lkada ilm-fan, adabiyot, san'at axllari fanlarning yangi-yangi kirralarini ocha boshladilar. Ulug'bek o'z faoliyatida asosan falakiyotni rivojlantirishga katta axamiyat beradi, bu bilan birga, ko'plab iste'dodli shoirlar, ijodkorlarni to'plab, ular faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoit yaratadi. Ma'naviy va moddiy jixatdan rag'batlantirib turadi. Masalan uning raxnomoligida me'morchilik ravnaq topdi. Buxoro, Samarkand va G'ijkdovonda madrasalar, Marvda xayriya muassasalari xamda «Chixl ustun» ("Qirk ustun"), «Bog'i maydon» kabi bog'lar barpo etiladi. Ulug'bek 1424 yilda Samarkandda Obiraxmat suvi yonida G'iyosiddin Jamshid, Abduvali Birjoniy, Mansur Koshiy, Mirim Chalabiy va boshka olimlar bilan birgalikda kurgan rasadxonasida sayyoralar sirini o'rganadi. Uning boshchiligida yuzdan ortiq olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib boradi, falakiyot va matematika soxasida katta kashfiyotlar qilib jahonga mashxur bo'ldilar. Bu tadqiqotlar jaxonga dong'i ketgan Samarqand rasadxonasida amalga oshiriladi. Natijada, Ulug'bek 1018 yuzduzning xolati va xarakatini aniklaydi, falaqiyotga doir bir necha asarlar yozadi. Bu asarlarning asosiy mazmunini «Ziji Ko'ragoniy» deb atalmish falakiyot jadvali tashkil etadi. Jadval jaxon fani rivojiga muxim hissa bo'lib ko'shiladi.

Markaziy Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, o'zining g'oyat samarali faoliyati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan, temuriylar avlodining so'nggi vakillaridan biri Umar Shayx Mirzo O'g'li Zaxiriddin Muhammad Boburdir. Bobur Mirzo Farg'ona viloyatining hukmdori Umarshayx, ya'ni Sohikiron Amir Temurning chevarasi oilasida 1483 yilda tavallud topdi. Bobur saroy muhitida tarbiyalandi va o'qidi,

yoshligidan ilmga, she'riyatda berildi. Dovyurakligi, jasurligi va epchilligi tufayli uni «Bobur ya'ni «Yo'lbars» deb atadilar.

Zahiriddin Muhammad Bobur ilm va fanning, san'atning, umuman xayotning xamma soxalari bilan yakindan kiziqkan. G'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste'dod Boburni rivojlangan feodal davrning ulug' siymolaridan biriga aylantirdi. o'tkir zexnli Bobur Mirzo 9 yoshida savodini chiqaradi, qur'onni yod oldi, she'rlar yozib uni sharxlay bildi. 10-12 yoshlarida xarbiy san'at sirlarini, davlatni boshqarish usulini, jismoniy tarbiya mashqlarini mukammal darajada egalladi.

Bobur xayotiy esdaliklar yozish maktabini «Boburnoma» asari orkali boshlab berdi. Gulbadanbegim otasi Bobur vafotidan so'ng bu maktabni davom ettirib, «Xumoyunnoma» asarini yozdi. Bu maktab XX asr adabiyotida xam davom etdi. «Esdaliklar» (S.Ayniy), «Bolalik» (Oybek) v.b. asarlar. «Boburnoma» nisbatan tor ma'noda bo'lsada, yozuvchi yashagan davrni, muxitni bir muncha aks ettirdi.

Boburning ta'lim nazariyasidagi yana bir muxim xususiyati, o'zi bilgan bilimlarni kelajak avlodga ilinishidir. Avlodim bilsin deb eliga o'rgatgisi keladi. Bu xol uni bashariyatga buyuk ma'naviy boyliklar qoldirishiga muvaffaq qildi. Undan meros bo'lib kolgan lirik she'riy asarlar; «Boburnoma», «Muxtasar», «Mubayyin», «Volidiya» va boshka asarlari jaxon fanida, ayniqsa xalq tarbiya konunlarida aloxida o'rin tutadi. «Boburnoma»da esa shu darajada ko'p va turli-tuman ma'lumotlar borki, ulardan xozirgi davrdagi mavjud fanlarning deyarli barcha soxalariga tegishli ma'lumotlarni olish mumkin. Shu jixatdan qaraganda, «Boburnoma» bolalar va yoshlar kitobxonligida katta axamiyatga molikdir.

Nazorat savollari:

1. Amir Temurning shaxs va jamiyat munosabatlari haqidagi tuzuklari.

5- savol bayoni

Qomusiy bilimlar soxibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlarini rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga xam e'tibor berdi. U o'z «Xamsa»sida, «Maxzub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarida, shuningdek, «Munojat», «Vaqfiya», «Majolisun nafoio», «Muxokamat ul - lug'atayn» kabi asarlarida Aduraxmon Jomiyning Arba'yin nomli asari tarjimasida «Chixil xadis («Qirq xadis)da tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi.

Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlariga ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muxabbat xam kiradi. Chunki baxtli xayotga intilgan Navoiyning ijodkor, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-kuvvatiga, aklu zakovatiga ishonadi.

Alisher Navoiy ilmni quyosh va oy xamda kunduzga o'xshatib, u insonni baxt-saodatiga eltadi demoqchi bo'ladi: ya'ni bu maqolat «ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi xaqidakim, bilimsizlik tunni yoritish uchun «ayn» quyosh, «lom» oy, «mim» kunduz belgilarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'u ko'rinishi xaqidakim, g'aflat chaqini pastlik kechasida zoxir qilib, bu kechada baxtsizlikdan xikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi joxilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa xam tuproqdek xorligi» xaqida fikr bayon etadi. Demak, Alisher Navoiy ilmni inson kamolati uchun eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaxolatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson xam faqat ilmi bo'lishi bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni xaqiqiy inson sifatida ta'riflashga yana sabr-qanoat, saxiylik, ximmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze', adab, ishq-vafo va xakozolar xam asos bo'ladi. Navoiy insonning axloqiy xislatlari-yaxshi fe'l-atvorlar xususida to'xtalib o'tar ekan, avvalo xar bir insoniy fazilatning ta'rifini beradi. U yaxshi fe'llarga kanoat, sabr, tavoze' va adab, ishq va vafo, saxovat, ximmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (xilm) kabi xislatlarni kiritib, xar birining ta'rifidan so'ng tanbex va xikoyatlar vositasida o'z fikrini

to'ldiradi. Navoiy asarda mazkur xislatlarga ta'rif berish bilan birga, ularga qarama-qarshi bo'lgan yomon illatlardan kutulish yo'llarini bayon etadi.

Nazorat savollari:

1 Alisher Navoiyning o'zlikni anglash haqidagi oyalari ilmiy-ma'rifiy merosi va uning tarbiyaviy ahamiyati.

6- savol bayoni

VII asrdan boshlab arablar Movarounnahrda ham xujum boshladi. VIII asr o'rtalarida esa butun Movarounnahr zabt etildi, natijada bu o'lkada ham xalqqa islom dini qabul qildiriddi. Arablar istilo etgach Movarounnahrda ham islom g'oyalariga asoslangan ta'lim — tarbiya tizimi o'rnatila boshlandi. Va yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. Islom dini qabul qilingan joylarda machitlar, machitlar qoshida esa maktablar tashkil etildi. Arab tilini o'rganish joriy etildi, maktablarda ta'lim arab tilida olib borilar va u erda asosan "Qur'oni Karim" o'rganilar edi. Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rgatish maqsadida "Xaftiyak", "Chor kitob" kabi darsliklar o'qitilardi.

XII asrdan boshlab, islom dinini turkiy tilda yozilgan asarlarda ham ommalashtirish boshlandi. Misol tariqasida Ahmad Yassaviyning "Xikmatlar" asarini keltirish mumkin. Xalq asosan, o'z ona tilida so'zlashsa ham, yozuv arab alifbosida edi. U davrda savod chiqarish harf va so'zlarni yozishni o'rganishdan boshlanar edi. Maktab so'zining, arabcha "yozuv o'rgatadigan joy" deb nomlanishi xam ana shundandir. Maktablarda bolalarga yozish va xisoblash o'rgatilgan, bundan tashqari, o'smirlarga savdo san'ati, arab tili, mantiq, notiqlik, xusnixat, arifmetikadan saboq berilgan. Har bir maktab talabasining soni 30 — 40 dan oshmagan. Machitlar xuzuridagi maktablarda asosan "Qur'on" o'qitilgan. "Xadis" va "sunna" so'zlari bir- ma'noni anglatib, Rasululloxning xayoti va faoliyatida diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Hadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki payg'ambarimiz Qur'oni Karim nozil bo'lgan vaqtlarda arab bo'lmagan kishilarning, xadislarni Qur'on oyatlaridan deb o'ylashlaridan cho'chib, uni yozib berishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin payg'ambarimiz Muhammad salallohu alayxivasallam huzurida sahobalar bo'lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarni yodlab borganlar. Masalan, Xazrati Abu Xurayra shunday mo''tabar kishilardan bo'lib, butun umrini hadislarni yodlashga baxsh etgan. Mazkur hadislar to'g'ri, ishonarli (sahih) bo'lgan. Hadislarda insonning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mexr - oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota - ona va kattalarga, qarindoshlarga muruvvat, g'amxo'rlik, xurmat, vatanga muxabbat, mexnat va kasb - xunarni ulug'lash, xalollik, poklik, o'zaro do'st, tinch - totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o'zini illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand - nasixatlar ham o'z ifodasini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi.

Hadislarda, umuman, Islomda tozalik va poklikka, ruxiy va jismoniy poklikka katta e'tibor beriladi. «)Haq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi. o'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi. Eshiklarni oldini pokiza tutinglar» (190 — xadis, 133, 66 — b.). Shuning uchun xam nomozdan keyin yuz - ko'lni yuvish, maxs tortish, oyokni yuvish, mustaxab, o'ng ko'l bilan taxorat kilmaslik, burunga suv tortmoq, og'izni toza tutish, g'usl, tayammum qoidalari insonni jismonan pok bo'lishga yo'naltirganki, bular avloddan — avlodlarga o'tib, xulq - odob koidalarga aylanib kolgan. Hadislarda inson erkiga xam axamiyat berilgan.

Inson xar tomonlama etuk bo'lishi uchun u erkin bo'lishi kerakligi "Qur'oni Karim"da xam, "Hadisi Sharif"da xam e'tirof etilgan: Allox Taologa amali solixlarning yaxshi ko'ringani agarki oz bo'lsa xam davomlisidir. Allox Taologa farzlardan so'ng amali solixlarning eng sevimplisi musulmon kishining diliga xursandchilik solishdir. «(33 - xadis)». Allox o'zi kechiruvchi zot, kechirguvchini yaxshi ko'radi (191 - xadis) kabi hadislar buning dalilidir. Chunki inson qanchalik qadrlansa, barcha ezguliklar, yaxshiliklar insonga atalsa, uning manfaati uchun xizmat qilsa, inson xam shunga ko'ra kamol topaveradi, yuksaklikka ko'tarilaveradi, o'z navbatida bunday insonlar yashaydigan jamiyat xam rivojlanaveradi.

Demak, xadislar Muxammad payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, mazmunan xar bir mo''minning ishonchini, e'tiqodini mustaxkamlaydi, shu bilan insonni ma'naviy kamolatga da'vat etadi. Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham xar bir shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolatga etkazishga oid e'tiqod va iymondan iborat bo'lib komil insonni shakllantirishda muxim manba bo'lib xizmat qiladi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb muammolaridan sanaladi. Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo'lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyotlar maxsuldir.

Jadidchilik oqimini ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy tomonlarini professor B.Qosimov o'z tadqiqotida batafsil bayon etgan. XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar. Jadidizm (arabcha «jadid» so'zidan olingan bo'lib «yangi» degan ma'noni bildiradi). O'sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo'lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr boshlarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. Qadimistlar esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib, o'lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o'z faoliyatini davom ettirib, 1813 yilda vafot etadi. XIX asrning 50-60 – yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), g'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarini yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o'zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni qo'yadi: Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritsinlar. Birovning birovg'a ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy mann qilinsin.

Madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va shrq kabi quruq mazmunga ega bo'lgan va madrasa o'quvchilari uchun foydasiz bo'lgan hamda ularning 8-10 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin. Madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin. Arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin.

Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin. Marjoniy va uning tarafdorlari bo'lgan o'sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o'qitishni shart qilib qo'ydilar. Biroq, qadimistlar va amirning reaksion siyosati natijasida ta'qibga uchragan Marjoniy Buxorodan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Uning maslakdoshlaridan ko'pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da berdilar. XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi ular uchun oydek ravshan edi. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirlarini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi. Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og'ir vaziyat tufayli 1905 yil to'ntarishi sodir bo'ldi. Bu to'ntarishdan maqsad jamiyatni demakratlashtirish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish,

dvoryanlar ixtiyoridagi katta er-mulkn olib, dehqonlarga bo'lib berish va hokozolar edi. Birinchi rus to'ntarishining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyolik taraqqiyparvar ziyolilar tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga kelib qo'shildilar. 1907 yil Eron burjua to'ntarishi, 1908 yil Turkiya burjua to'ntarishi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta'sirida o'zbek zaminining boshqa go'shalarida ham jadidchilik harakati avj oldi. Jadidchilik jamiyati to'ntarish yo'li bilan emas, islohotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o'zining bu vazifasini ado etishda, faqat bir sinfga – proletariatgagina tayanmadi. Umuman jadidchilik insoniyatni sinflarga bo'lib tashlash tarafdori emas. Jadidlar hatto qadimchilar bilan ham ittifoq tuzib, xalq va kelajak manfaati yo'lida baqamti ishlash, bugungi ifoda bilan aytganimizda turli siyosiy qarashlarga ega bo'lgan xalq qatlamlarining tinch-totuv yashashi va ishlashi g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Behbudiy ana shu «muttahid» front tuzish g'oyasini bayon qilar ekan, «ulamo yoki ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz boy va avomimiz birlashib, din va millat va vatanning rivoji uchun xizmat etsak»², deb yozgan. Jadidlarning bunday muttahid frontni tuzishga intilganlarining boisi turli sharoit bilan belgilangandi. Avom ham, boylar ham, ulamo ham, ziyolilar ham chor hukumati qaramog'ida bo'lgan mustamlakaning biri oz, ikkinchisi ko'p siquvda bo'lgan kishilar edilar. Markaziy Osiyo bozorlarida rus savdo va sanoat burjuaziyasi hukmron bo'lib, mahalliy burjuaziya vakillari sina boshlagan edilar. Boshqacha aytganda, mustamlakachilik azobini mahalliy boylar va savdogarlar ham seza boshladilar. Ana shunday tarixiy sharoitda, jadidlarning fikr-mulohazalariga ko'ra, oddiy xalqning iqtisodiy-madaniy hayotini yaxshilash qanday zarur bo'lsa, chet el kapitali iskanjasidan, mustamlakachilik kishanlaridan qutilish ham shunchalik kechiktirib bo'lmas vazifa edi. Jadidlar 1906 yildayoq «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, «Xurshid», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo'q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g'oyalar bilan paydo bo'lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so'z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma'nosi ham «yangi» demakdir».

Agar lo'nda qilib aytsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan:

Diniy taassuf va fanatizmga qarshi kurash.

Diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr maktablari o'rniga Ovro'po qabiladagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish.

Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga etkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurliqi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish. Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashlarini ta'minlash yo'li bilan ular taqdirini o'zgartirish va oilada islohot o'tkazish.

Mahalliy boylar va savdogar ahlining siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo'lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olishiga qarshi kurash. Shu yo'l bilan mustamlakachilik siyosatini isloh qilish.

Asosiy talabalari ana shundan iborat bo'lgan jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordami bilan o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'ldilar.

Nazorat savollari:

1 Jadidchilik harakatining kelib chiqish omillari nimalardan iborat?

- 2 Jadidchilik qanday g'oyalarni ilgari surgan?
- 3 Turkistonning rivojlanishida jadidchilik harakati qanday ahamiyat kasb etadi?
- 4 Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim tizimini rivojlantirishga qanday hissa qo'shdi?
- 5 Munavvar Qori qanday g'oyalar bilan maydonga chiqdi?
- 6 Abdurauf Fitrat Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy rivojlanishiga qanday hissa qo'shdi?

Adabiyotlar:

- 1 R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
- 2 Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
- 3 Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
- 4 Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
- 5 Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

3-MA'RUZA.

PEDAGOGIK TEXNIKA PEDAGOGIK MAHORATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Asosiy savollari

1. Pedagogik texnika tuzilishi haqida tushuncha
2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari va xususiyatlari.
3. Pedagogik mahorat va texnika.
4. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Pedagogik texnika, tashqi qiyofa, hissiyot, mimika, pantomimika, texnologiya, asab tizimi, gapirish texnikasi, talaffuz, nafas olish, tovush maromi.

1-savol bayoni

Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

Pedagogik texnikaning muhim jihatlari — bu avvalo o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika o'qituvchining ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil qilishida, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday rol o'ynaydi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi.

Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim–tarbiya jarayonida o'z–o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy pertseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchining tarbiyalanuvchi ob'ektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy integratsion usullarda o'quvchilar ongiga etkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Ilg'or va novator o'qituvchilarning texnik mahorati pedagogik faoliyat olib borishlarida, mimik va pantomimik harakatlarida, ovozini idora qila olish xususiyatlarida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, o'qituvchilar pedagogik texnika san'atini mukammal egallaganlar, uning ko'nikma va malakalarini o'zlarida aniq shakllantirishgan va turli pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlariga egadirlar.

Pedagogikada o'qituvchi chuqur hissiyotga berilishini, shaxsiy hayotidagi turli ruhiy vaziyatlar tufayli kayfiyatining o'zgarib turishini o'zi qattiq nazorat qilish talab qilinadi. Nazoratni o'qituvchining o'zi boshqarib, . Bu jarayonning ijobiy natijalari o'qituvchining refleksiv qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnikaning yana bir muhim xususiyati pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi o'qituvchining ma'naviy va estetik qiyofasi. Bu tarbiyalanuvchilarga yaqqol namoyon bo'ladigan xususiyatdir. Agar o'qituvchi ma'naviy qashshoq bo'lsa, nutqi tartibsiz va muloqotda no'noq bo'ladi, didi past, o'z hissiyotlarini jilovlay olmaydigan qo'pol bo'lsa, uning ta'lim-tarbiya berishi haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Pedagogik texnikaning sirlarini egallash yo'llari o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlar va mustaqil ishlash jarayonida shakllanib boradi. Pedagogik texnika sirlarini mukammal egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'qituvchi o'z – o'zini doimiy shakllantirib borishi, ya'ni o'z oldiga qo'yilgan talablar nuqtai nazaridan mohir o'quvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Nazorat savollari:

Pedagogik talab, o'rgatish, mashq qilish, tarbiyalovchi vaziyatlar, musobaqa, jamoatchilik fikri tarbiya metodlaridan qaysilariga tegishli?

1. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalari qanday paydo bo'ladi?
2. Pedagogik texnikani egallashda guruh bo'lib shuullanishning afzallik tomonlarini so'zlab bering.
3. Pedagogik texnika sirlarini egallashda oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini izohlab bering. Mutaxassislik fanlari, pedagogik-psixologik fanlarning ahamiyatini ochib bering.

2-savol bayoni

Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri o'quvchilar bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. Bunda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari o'qituvchining pedagogik mahorati bilan aloqadorlikda shakllanib boradi. Rivojlangan pedagogik texnika xususiyatlari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bosiqlik va osoyishtalik, aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib toptiradi. Individual pedagogik texnikaning shakllanishi o'qituvchining yoshi, jinsi, mijoz, fe'l-atvori, salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq. O'qituvchida individual shaxsiy pedagogik texnika malakalarini shakllantirish muammolari ayniqsa psixolog olimlarning tadqiqot markazidan o'rin olgan. Psixolog olimlar R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, M.Abdullajonova o'qituvchining individual kasbiy faoliyatini batafsil o'rganishib, o'qituvchining shaxsiy "Mehnat professiogrammasi"ni ishlab chiqdilar. Olimlarning fikriga ko'ra o'qituvchi professiogrammasi o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga oladi hamda har bir fan o'qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyat olib boradigan "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da quyidagi hislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar:

- 1) O'qituvchining shaxsiy hislatlari: *bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.*
- 2) Kasbiga xos bilimi: *ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.*
- 3) Kasbiga xos hislatlari: *milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutqiy madaniyati.*
- 4) Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: *dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'quvchilar jamosini boshqara olishi.*
- 5) Tashkilotchilik malakalari: *o'quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli vaziyatlarda ham o'quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.*
- 6) Kommunikativ malakalari: *o'quvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.*
- 7) Gnostik malakalari: *o'quvchilarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olishi, o'z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'qituvchilar*

mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalana bilishi, o'quvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi.

8) *Ijodiy hislatlari: o'z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o'quvchilarni tarbiyalashda o'z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o'quvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o'quvchilarga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra olishga intilishi.*

Psixolog olimlarning fikricha, ushbu professiogramma yosh o'qituvchilarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab, kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishlariga yordam beradi. Demak, o'qituvchi professiogrammasi ham pedagogik texnikani egallashning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining o'z kasbiy texnikasini mukammal egallab, rivojlantirib borishiga va o'z kasbiy faoliyatidan qanoatlanishni his etishga olib keladi. Bularning barchasi o'qituvchining tinimsiz pedagogik mehnati tufayli yuzaga keladi. O'qituvchining pedagogik texnikasi – pedagogik faoliyatining tashkiliy shakli bo'lib, qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, behad uzoq ijodiy izlanishlar va azob uqubatli kechinmalar, tinimsiz pedagogik faoliyat, o'qituvchining fahm-farosati, bilimi va mahorati bilan amalga oshiriladigan qizg'in ijodiy mehnatining mahsulidir.

Bir maromda olib boriladigan tizimli ijodiy mashg'ulot tufayli aktyor yuksak cho'qqilarni egallaydi. O'zgaralar obrazini mujassamlashtirishda u ma'lum bir qolipdan aslo chiqib keta olmaydi. Demak har qanday ijodkorlik, hatto pedagogik ijodkorlik ham ma'lum bir belgilangan qolipda shakllanishi kerak. U o'qituvchining ichki kechinmalari, tuyg'ulari va hissiy reaksiyalari asosida qurilishi aslo mumkin emas. Chunki, tarbiyalash san'atida o'qituvchining pedagogik texnikasi, ya'ni “bir qolipda”gi mehnat madaniyati borki, u boshqa biror kasbiy faoliyatga aslo o'xshamaydi. Shuning uchun, respublikamizda tarbiyaviy texnologiyalarni muntazam bilishga intilish, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini uzluksiz oshirib borish o'qituvchining bir qolipdagi mehnat madaniyatini shakllantirishga, pedagogik texnika malakalarini doimiy oshirib borishga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, hali biror o'qituvchi oliy ta'lim muassasasini tugatib, yoki malaka oshirish kurslarida bilim olib birdaniga pedagogik texnika sirlarini mukammal biladigan tajribali o'qituvchi bo'lib qolgani yo'q. O'qituvchida pedagogik texnika ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatish jarayonida, o'quvchilar bilan yakka yakkama yakka muloqot jarayonida, pedagogik amaliyotda shakllanib boradi.

Hozirgi kun talablari nuqtai nazaridan, o'qituvchiga qo'yilayotgan javobgarlik hissi kengayib murakkablashib bormoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning yuksak natijalari bevosita o'qituvchining qizg'in mehnati samarasiga bog'liq. Vatanimizning porloq kelajagi uchun yosh avlodni har tomonlama etuk, komil inson qilib voyaga etkazishda o'qituvchining kasbiy bilimi, faoliyat texnikasi mutlaqo yangilanib, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishi kerak. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablariga muvofiq o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga doimo e'tibor berib kelishi lozim. O'qituvchining pedagogik texnikasi ham vatanparvarlikka, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashga, o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishiga asoslangan bo'lishi shart. Shu ma'noda taniqli adib Tursunoy Sodiqova asarlarida hozirgi kun o'qituvchisiga qo'yiladigan “Murabbiylikning shartlari” oqilon berilgan: “...Siz insonlarning hech bir yo'q joydan “shoxini ko'kartirish”, qulfi dilini ochish, dunyosini kengaytirish, kechagi holatidan bugunini yuksakroq qilish uchun bu ishga qo'l urdingiz. Ammo oldin biling: umringizni sarflab olib borayotgan harakatlaringiz ro'parangizdagi o'quvchiga yoqayaptimi, yo'qmi? Bor gap shunda!

Murabbiylikni xohlagan, shu kasbga o'qigan odam murabbiy bo'lib qolmaydi. Ustozlikning o'ziga xos parhezlari, bosib o'tilmaydigan chegara chiziqlari bordir! Birinchidan, dilingizda ustoz—murabbiyning yozilgan yozilmagan qonun qoidalariga bo'ysunaman, degan Allohga qasamingiz bo'lsin! Ikkinchidan, niyatingiz sof bo'lsin! Men insonlarni faqat yaxshilikka o'rgataman deng, orqamda o'z qo'lim bilan yaratilgan fayzli bog'lar qoladi, deb tilak tilang!

*Toki shogirdlaringiz sizning sharofatingiz bilan faqat savob ishlarga dahldor bo'lsinlar. Uchinchidan, haqiqiy murabbiy bo'laman desangiz, birovg'a biror narsa o'rgatishni astoydil xohlang va siz ilm oluvchiga nisbatan muxabbat qo'ying! Har bir ishingizga fidoyilik bilan kirishing. Buning otini ixlos deydilar! Shu ishtiyoq sizda qanchalik kuchli bo'lsa, Tangri sizga shuncha ko'p uquv beradi, ep beradi, mushkullaringizni O'zi osonlashtiradi. Murabbiylikda ta'tilga chiqish, sog'ligi, kayfiyatiga qarab faoliyatini to'xtatish, degan gap yo'q. **Yo'lda ham, cho'lda ham, hamma fasl, hamma manzilda, qo'yingchi, umringizning oxirgi nuqtasigacha siz faoliyat ustidasiz.** Bu degani, sizning borlig'ingiz, har bir so'z, har bir ishorangiz odamlar uchun nur, madad va xaloskorlikdir.*

Nazardan qolgan, qarg'ish olgan, loqayd murabbiylar tarbiya maskanlariga qadam bosmasliklari kerak. Ular ishlayveradilar, ammo o'qituvchilikning noni yuqmaydi, ro'shnolik ko'rmaydilar, falokatlari arimaydi, niyatlariga etmaydilar. Chunki muqaddas kitoblarda "neki bersak, egallab turgan kasb koringizdan berurmiz" deb yozilgan. Kasbga halollik buyuk ibodatdir". Adiba o'qituvchidan o'z kasbiga sadoqatli bo'lishni, fidoyilikni, yuksak ma'naviyatni, tinimsiz mehnatni, o'quvchilarga nisbatan mehr va muxabbatni, halol va pokiza bo'lishni talab qiladi. Bu aynan o'qituvchi pedagogik texnikasining ham muhim xususiyatlaridan biridir.

3-savol bayoni

O'qituvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insonning tashqi ko'rinishi atrofda qilarg'a estetik ma'no va zavq kasb etib, doimiy e'tiborda bo'lishini unutmashlik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishini asosan namoyish etuvchi muhim hususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishida bosiqlik, tabiiylikdir. O'qituvchi sinfg'a kirishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan muloqotg'a kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh ijobiy, xoh salbiy hatti-harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchi ilk bor darsg'a kirishidan oldin hishayajonini, qo'rquvini engishi, o'zini erkin tutishi, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zini yo'qotmasligi lozim.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatg'a ega. O'qituvchining hatti harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

MIMIKA - bu o'z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyotini qosh, ko'z va yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan yuzning va nigohning ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'qituvchig'a qarab uning kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun uydagi ba'zi noxushliklar, hissiyotg'a berilish, g'am va tashvishning o'qituvchi yuzida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o'quvchining dars mashg'ulotlarini bajarishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlarig'a xos bo'lgan, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyaviy topshiriqlarni echishg'a yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalash lozim.

O'qituvchining yuz ifodasi, nutqi, talabalar bilan o'zaro munosabati uning individual xarakterig'a mos bo'lishi kerak. O'qituvchi yuz ko'rinishidagi mimik ifoda, ta'lim-tarbiya qonuniyatlarig'a mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdag'i turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatg'a ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko'z, yuz ko'rinishi ishtirok etadi.

Qosh, ko'z, yuz o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalash bilan birga, o'quvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishga ham yordam beradi. Shuni alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar o'qituvchining xarakterini, ichki dunyosini, ma'naviyatini, pedagogik faoliyatining individual xususiyatlarini bekamu ko'st namoyish etadi. O'qituvchining mimikasi ifodalangan nigohi talabalarga, yoki ayrim talabaga qaratilgan bo'ladi. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazmali qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilish aslo mumkin emas.

PANTOMIMIKA – bu gavda, qo'l, oyoq harakatini tartibga soluvchi uslubdir. O'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etishi barchaga ma'lum. Biroq o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining pantomimikasi, ya'ni, gavda, qo'l, oyoq harakati to'g'ri ifodalanmasa, ta'lim-tarbiyaga asoslangan muloqot natija bermasligi mumkin. O'qituvchi o'z gavadasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini "chiza" olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavadani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qila turib qo'lini, boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchining talabalar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim. (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan holi bo'lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez tez yurish, qo'llari bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini uyoq-buyoqqa tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va o'rganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

O'qituvchi mashg'ulot o'tish jarayonida faqat oldinga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish talabalar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi mumkin, chunki bunda talabalar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar.

O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatidagi o'zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchiga birdaniga paydo bo'ladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi darkor. Chunki, yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib uni odat qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi. Pantomimik harakatlarda o'z hissiy holatini nazorat qilishda o'qituvchi quyidagi holatlarga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir:

- sport bilan muntazam shug'ullanib borish;
- yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarni doimiy o'rganib borishi;
- o'quvchilarga nisbatan xayrixohlik va optimizmga ega bo'lishi;
- o'z harakatini nazorat qilishi (muskul zo'riqishini, qo'l, oyoq va bosh harakatini, nutq tempini bir maromda saqlashda nafas olishini tartibga solish);
- madaniy hordiqni to'g'ri uyushtirishi (dam olishi, o'z sog'ligiga doimiy e'tibor, lirika, musiqa, yumoristik hajviyalarni sevib o'qiy olish);
- o'z- o'ziga tanqidiy ta'sir ko'rsatish.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining harakatlarida aktyorlik va rejissyorlik malakalari ham mujassamlashgan bo'lishi lozim. Xususan, gumanitar fanlar o'qituvchilari aktyorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlar haqida so'zlaganda aktyorlik, rejissyorlik malakalari zarur. Ular o'qituvchiga o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda, mavzu qahramonlariga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini o'zlashtirishga yordamlashadi.

Pedagogik texnika malakalari o'qituvchining maxsus fanlar bo'yicha bilimlarni egallash, pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilish, o'z kasbiga qiziqish, burch hamda mas'uliyatni his qilish asosida oshiriladi. Va ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida nutq texnikasi, his-tuyg'ularini boshqara olish, mimik va pantomimik malakalar bir qolipda mukammal olib borilganda ko'zlangan maqsadga albatta erishiladi. Bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishoralar, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda uddaburonlik, osoyishtalik bilan ziddiyatdan chiqish, voqelikni oldindan ko'ra olish va adolatli tahlil qilishga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlar o'qituvchining shaxsiy, individual psixik, fiziologik fazilatlarini asosida tarkib topadi. Pantomimik harakatlarni boshqarishda ham o'qituvchining individual pedagogik texnikasi, yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi avvalo tarbiyachi sifatida o'zida yuqoridagi malakalarni shakllantirishi, ularning mazmunini chuqur o'zlashtirib, pedagogik texnikani egallashning imkoniyatlaridan foydalanishi kerak. Shunda u o'qituvchini pedagogik mahorat sari etaklaydi. Shunday qilib, o'qituvchining tashqi ko'rinishi ham pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib – tarbiyalanuvchilarga ko'rib, eshitib turgan narsalarini erkin fikrlash orqali, o'z mulohazalarini mustaqil, cho'chimasdan o'qituvchiga etkazish imkoniyatini beradi. “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin” – deb yozgan edi taniqli pedagog A.S. Makarenko.

Nazorat savollari:

Harakati bilan bayon qilish san'ati nima deb ataladi?

- a) O'qituvchining mimikasi
- b) notiqligi
- c) pantomimikasi
- d) aktyorlik sa'nati

O'quvchilarga doimo tarbiyaviy ta'sir etuvchi ota-onalar, tarbiyachilar, sinf jamoasi qanday nomlanadi?

- a) O'qituvchi faoliyatining subektlari
- b) kasbiy bilimlari
- c) O'qituvchi faoliyati
- d) Tarbiya jarayoni

4- savol bayoni

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (Nutq tempi, diktsiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 1G'2 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchining nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan

tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning fikrlari o'quvchilar ongiga tez etib boradi, o'quv materiallarini o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapazonlari kuchi, nutq tembrining harakatchanligi, diktsiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapozoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shashtiradi va susaytiradi.

O'qituvchi tovush diapazonini, uning tembri bilan bog'lab ishlatasa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining ovozida so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitilari va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diktsiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diktsiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslda ko'rib chiqiladi.

2. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika o'qituvchining individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'qituvchining o'zi mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish, pedagogik mahoratini oshirib borish orqali qo'lga kiritadi va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarini tarbiyalaydi hamda kasbiy ideal sari harakat qiladi.

3. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir o'qituvchiga refleksiv qobiliyatlari asosida, o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va hulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

4. Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o'qituvchining o'z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o'qituvchi o'zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini

aniqlab olish zarur. Ya'ni, o'qituvchining dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro'y beradigan nuqsonlar e'tirof etiladi. Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi.

Ushbu faoliyat natijasida ko'nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining etishmaydigan jihatlarini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi.

5. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o'qituvchining umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining tashqi ko'rinishi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, bo'lar bo'lmas voqealarga nisbatan o'z hissiyotiga erk beradigan bo'lsa, tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Ta'kidlash joizki, pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini egallash yo'llari to'g'risida bildirilgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga etarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir o'qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg'ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o'rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) ishlashdir. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini egallash individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabalik yillarida o'zida mohir o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallashda muhim rol o'ynaydi.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o'qish asosida, integratsion bilimlarni egallash, portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) o'qituvchi tomonidan muntazam mashg'ulotlar asosida egallanadi. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlash talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bo'lsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rishi, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlashi va sinab ko'rishi, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi xususiyatlarini anglashi va pedagogik faoliyatining individual uslublarini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jamoa shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullarini tekshirib ko'radigan, nazariy va amaliy masalalar, turli muammolar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Psixologlar pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganishni, o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10—14 kishidan iborat etib belgilashni ta'kidlab o'tadilar. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining

boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik fahm-farosatini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarining kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha muvaffaqiyatli ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribalarning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham mulohazalar olib borish mumkin. Masalan, nafas olish va ovoznining tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan faoliyat olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi etishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki ularning to'liq majmuasini ishlab chiqish lozim.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiysi aynan pedagogik texnikaga oid ma'lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo'lmoqda. Pedagogik texnika to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikr va mulohazalarga e'tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo'qligi, o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o'qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo'qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmaslik kerak.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash bo'lajak o'qituvchiga o'zining kasbiy yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, talabalarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalari qanday paydo bo'ladi?
2. Pedagogik texnikani egallashda guruh bo'lib shuullanishning afzallik tomonlarini so'zlab bering.
3. Pedagogik texnika sirlarini egallashda oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini izohlab bering. Mutaxassislik fanlari, pedagogik-psixologik fanlarning ahamiyatini ochib bering.
4. Pedagogik texnikani shakllantirishning shaxsiy rejasiga rioya qilasizmi? Uni qanday tartibda amalgam oshirasiz?
5. Siz uchun pedagogik texnikaning qaysi bir yo'nalishi ahamiyatli hisoblanadi?
6. Pedagogik texnikani hosil qilish va shakllantirish haqida o'z fikr-muloxazalaringizni yozma bayon eting.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.

3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqususov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: “Moliya” nashiriyoti, 2006.

4-MA'RUZA.

PEDAGOGLARNING O'QUVCHILAR BILAN O'ZARO MUOMALASI

Asosiy savollari

1. Pedagogning o'quvchilar bilan muomala olib borishning mohiyati.
2. Muomala – axborot jarayoni. O'qituvchi muomala sub'ekti sifatida.
3. Qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogik qobiliyatlar.
4. Pedagogning o'quvchilar bilan o'zaro muomalada tutgan yo'li.
5. O'quvchilarni tarbiyalashda muomalaning o'rni
6. O'quvchilar tarbiyalashda muomalaning o'rni.
7. O'quvchilar muomalaning individual usulini shakllantirish bosqichlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: muloqot, muloqot mohiyati, muloqotning tuzilishi, muloqot turlari, muloqot vositalari, pedagogik muloqot o'ziga xosligi, pedagogik o'zaro munosabatlar, ijodiyot, innovatsiya, pedagogik ijod, pedagogik innovatsiya.

1-savol bayoni

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, ularning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik o'qituvchilar zimmasiga yuklatildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «*Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo'lishi kerak... bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi*». Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zamirida shakllanib, takomillashadi.

Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlar va hatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning hatti-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchi sub'ekti bilan, o'quvchi ob'ekti o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro

muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etadi, natijada o'quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi.

Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida **muomala** o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;
- muomala ob'ekti bo'lmish o'quvchi diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;
- o'quvchining ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;
- o'quvchiga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchi ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi.

Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o'rnini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo'ladi.

Pedagogik muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, umuman o'quvchilar jamoasi haqida, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga ega bo'ladi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi muloqot asosida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arziyas bir xatolik, adolatsizlik, qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo'ladi va tuzatib bo'lmaydigan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi:

- pedagogik muloqot orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi ob'ekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;
- o'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;
- o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;

- o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida ob'ekt va sub'ektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muloqotning asosiy bog'lovchisi so'zdir. So'z – mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o'z ifodasini topadi.

Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o'qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o'quvchining shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e'tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o'qituvchini g'oyat xilma-xil sharoit va ko'rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasada, o'quvchi ichki dunyosida sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlarini bilib, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

O'qituvchi o'quvchining ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim. O'qituvchining muloqot madaniyati asosida gapiradigan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar o'quvchilar tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi, bu o'quvchining fikr mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyan o'quvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.

Nazorat savollari:

1. Muloqot nima?
2. Nima uchun muloqot pedagogik hamkorlik vositasi sanaladi?
3. Muloqotning qanday turlari mavjud?
4. Muloqot qanday shakllarda tashkil etiladi?
5. Muloqot jarayonida qanday vositalardan foydalaniladi?

2-savol bayoni

Muloqot – yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuv, ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga etadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik–psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma'noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalaydi.

Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

1. muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;
2. muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;
3. o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi;
4. pedagogikada muloqot – o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;

5. muloqot – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;

6. noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchida qo'rquv, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi, uning diqqat–e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

- salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
- o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;
- o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini uyg'otish;
- dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

A.S.Makarenkoning fikricha, o'qituvchi muloqoti hypmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo'lishi lozim.

V. Suxomlinskiy o'qituvchining *"...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak"* deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi.

Pedagogik muloqot funksiyalari. O'qituvchining pedagogik muloqoti ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, quyidagi funksiyalari bilan xarakterlanadi:

1. o'quvchilarning psixik holatini mukammal bilishi;
2. o'zaro axborot almashishni yo'lga qo'yishi;
3. ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni birgalikda tashkil etishi;
4. o'quvchini erkin fikr-mulohaza yuritishga o'rgatishi;
5. salbiy holatlarni sinf jamoasi bilan birgalikda bartaraf etishi;
6. do'stlar uchun qayg'urish va ularga yordam berishga o'rgatish;
7. o'zligini anglash, o'quvchilar bilan muloqotda qoniqish his etish.

Muloqot jarayonida o'qituvchi qisqa muddatda o'zining psixologik bilimlariga tayanib o'quvchining psixik xususiyatlarini mukammal bilishga harakat qilishi lozim. O'quvchining ichki dunyosiga, ruhiy holatiga kirib bormasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy jazolar qo'llash, tanbeh berish mumkin emas. Bu holat o'quvchi bilan o'zaro muloqotni tuzatib bo'lmas darajada buzilishiga, o'quvchining yashirin holatga, o'z "qobig'i"ga kirib olishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchining o'zaro axborot almashishi bilan bog'liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog'liq. Sinf jamoasida ro'y berayotgan har qanday voqea va hodisalar o'qituvchi nazoratida bo'lishi, ularning oqibatini o'qituvchi tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim. Bu faqat faol o'quvchilar bilan axborot almashib turish natijasida amalga oshadi. Shundagina, o'qituvchining o'quv tarbiyaviy jarayondagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijobiy natijalar beradi.

O'qituvchi ta'lim – tarbiyaviy faoliyatni o'quvchilar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda sinfning faol o'quvchilari hamda norasmiy liderlari bilan o'zaro muloqotning adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega: o'quvchilarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil bajarishga jalb etish, bunda o'quvchilarga tashkilotchilik va ijro etish rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim.

O'qituvchining muloqoti o'quvchining o'zligini anglash funksiyasini takomillashtiradi. Bunda o'qituvchining vazifasi muloqot asosida o'quvchilarga o'zining "Men"ini anglashni,

shaxs sifatida o'z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o'z o'rnini bilishni, o'z-o'zini baholashni o'rgatishi kerak.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o'qituvchi ijodkorligining noyob namunasidir. Pedagog olimlar o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Olimlar esa, muloqot uchun o'qituvchiga yo'nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Prognostik etap: O'qituvchi tomonidan sinf jamoasi bilan bo'lajak muloqotni modellashtirish.
2. Kommunikativ aloqa: O'quvchi bilan dastlabki o'zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.
3. Pedagogik jarayon: O'qituvchining hatti harakati, pedagogik mahora-ti bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.
4. Natijalar tahlili: Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun modellashtirish.

Muloqotning har bir bosqichida o'qituvchi nimani bilishi kerak?

Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki o'quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur.

Kommunikativ aloqa bosqichida sinf jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim.

Pedagogik jarayon bosqichida o'qituvchining faoliyati bevosita ta'lim- tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir yo'nalishga solish, o'quvchilar tashabbusini qo'llab quvvatlash, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o'z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko'nikmalarini yaratish kabi faoliyat olib boriladi.

Natijalar tahlilida o'qituvchi o'z faoliyatiga xolisona baho berishi, yutuq va kamchiliklarni inobatga olib, kelgusi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo'llashni bilishi lozim, ushbu etapda maqsad, reja va natijalarning birligi ta'minlanadi, o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlikni, tashabbuskor bo'la olishni bilishi kerak.

O'quvchilarning axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi uning atrofidagi muhitga nisbatan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiyalanganlik o'quvchining his tuyg'ularida ichki kechinmalarida ifodalanadi va xulq atvorida, o'qituvchi bilan muloqot jarayonida yuzaga qalqib chiqadi. O'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va mehribonlikni namoyish etish, o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatda to'g'ri va odilona muloqotini tashkil etishda asosiy zamin bo'ladi.

Muloqot turli rollar orqali shaxs faoliyati uchun ijtimoiy maydon yaratadi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini rejalashtiradi. O'qituvchi o'quv- tarbiya jarayonida o'zining shaxsiy tashabbuskor va rahbarlik rolini namoyish etadi. Dars jarayonida esa o'qituvchi o'quvchilarni *tashkilotchi va ijrochi* rollarida bo'lishga imkoniyat yaratishi kerak. Muloqot asosida shaxs o'zligini tanishni o'rganadi. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan, faqat o'rganilayotgan dars mavzusi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan o'quvchilarni axborot ko'lamiga jalb etishni o'ylamasligi kerak, balki o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni topishi, ularga yordam berish uchun sharoit yaratishi, har bir o'quvchining qiziqishini ta'minlovchi sharoitlarni ko'ra olishi va o'zaro hamkorlikni ta'minlashi lozim.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi

kerak. Pedagogik muloqot esa, bu o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi. Bu vaziyatda o'qituvchi baho beruvchi rovida namoyon bo'ladi hamda uning o'zi baho oluvchi hisoblanadi. bunday hollarda pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari hamda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

Kommunikativ muloqot.

Interaktiv muloqot.

Pertseptiv muloqot.

1. Kommunikativ muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi bir - birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Interaktiv muloqotning muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi o'zaro ta'sir etishda, ularning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, hatti - harakat va xulq atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. Pertseptiv muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik-psixologik ta'sir metodlari nimalardan iborat?
2. Pedagogik-psixologik ta'sir vositalari nima?
3. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?

3-savol bayoni

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektiv shart–sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisiga aytiladi, zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsning boshqa sifatleri va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati: *O'qituvchining o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata olishi.*

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: *ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*

3. Eshitish va his qilish qobiliyati: *Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.*

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: *o'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo'naltiradi, vaqtni, harakat sur'atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish,, hayot marhamatlaridan rohatlanish.*

5. Mantiqiy qobiliyat: *mulohaza yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni sevish, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisidan ajrata olish;*

6. Shaxsning ichki qobiliyati: *o'z-o'zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo'rquv yoki noerkinlik tuyg'usi kamdan-kam holda bo'ladi.*

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kiritadi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaa natijasidir, qobiliyat esa kishi psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir. Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir. Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisidir.

Ular o'qituvchining kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilar, buning natijasida o'qituvchi kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar etarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlari zehn deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, xarakter kabi, - shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishiga aytiladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldor ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.

Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivlashtirish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimoligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

Kreativ ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui insonning iste'dodi deyiladi.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi, iste'dodining yuksak cho'qqisi – uning intellektini belgilaydi. “Intellekt – bu aqlan ish ko'rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati” (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Biroq, kishidagi tabiiy layoqat nishonalari mukammal kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli olib borilishini ta'minlamaydi. Kishi o'zidagi layoqat nishonalari doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak, bu esa faqat shijoatli kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogik–psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o'zgarmas irsiyat” nasldan – naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida **pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari** ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muxabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. O'z mutaxassislik fanini yaxshi bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- etakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko'p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning **asosiy xususiyatlari** o'qituvchining yuksak pedagogik–psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi:

Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishida pok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Pertseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muxabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga etkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining ongli ravishda yuzaga keltirilgan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan rejalashtira olishi.

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligida, voqea va xodisalarga adolatli munosabatda bo'lishi.

Pedagogik qobiliyatlarning **tayanch xususiyatlari** kuzatuvchanlik – ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu – individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo'nalishda bo'lganligi sababli, ularning har biri o'z tafakkuri va dunyoqarashiga ega. Qobiliyatning **etakchi xususiyati** ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematika o'qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo'lmasdan, balki aynan barcha fan o'qituvchilariga ham tegishli.

Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hislatlar va xususiyatlar orasida ba'zilar yordamchi rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan **yordamchi xususiyatlar** va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql–idroknining muayyan turlari, hozirjavoblik; kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;
- o'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;
- aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

Nazorat savollari:

- Muloqotning qanday turlari mavjud?
- Muloqot qanday shakllarda tashkil etiladi?
- Muloqot jarayonida qanday vositalardan foydalaniladi?
- Pedagogik-psixologik ta'sir metodlari nimalardan iborat?

4-savol bayoni

I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida "O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi... o'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat...ligini, demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanishi, mustaqil fikrlash katta boylik..." ekanligini ta'kidladi.

Demak, o'qituvchining asosiy vazifasi shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Shundagina ta'lim tizimida yoshlarga erkin fikrlash imkoniyatlari yaratiladi. Davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish komil inson tarbiyasiga mas'ul – o'qituvchi zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o'z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas'uliyati yuklangan.

O'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatida erishishi lozim bo'lgan barcha ijobiy natijalar uning o'quvchilar bilan jonli va erkin muloqotni to'g'ri tashkil etish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi so'z san'atining cheksiz qudrati asosida o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, har bir darsni samarali tashkil etib olib boradi, o'quvchilar bilan so'zlashishni biladi, tarbiyaning suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullaridan o'rinli foydanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan qizg'in muloqotni amalga oshiradi.

Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni shakllantirish o'qituvchining jonli muloqotni samarali tashkil etishiga bog'liq. Bunda o'qituvchi va o'quvchining muloqoti ijobiy natijalar berishi uchun o'qituvchida o'quvchilar bilan erkin so'zlashuv qobiliyati bo'lishi kerak. Zero, o'qituvchi bilan o'quvchining muloqotini bog'lovchi asosiy vosita – so'zdir. O'qituvchining so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, muloqot olib borish qobiliyati tez namoyon bo'lib, ijobiy natijalarga erishishi oson bo'ladi.

Odatda so'z boyligi qashshoq bo'lgan o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatlarida o'quvchilar bilan tez-tez ziddiyatlarga duch keladilar. O'qituvchining jonli muloqoti har qanday tarbiyaviy tadbirning mazmun va mohiyatini o'quvchiga tabiiy holda etkazadi, shu jarayonning ob'ekti va sub'ekti o'rtasida muloqot uchun mustahkam ko'prik yaratadi va ichki hissiyot bilan harakatlarning uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Jonli muloqot – o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga etkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir.

O'qituvchi pedagogik mahoratida mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o'tkir dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibligi har qanday dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hamda o'qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o'z oldiga doimo quyidagi savol bayonilarni qo'yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak:

1. Nimaga o'rgatish:

- a) o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ilmiy yangiliklardan xabardor etish, fan terminlarini tushuntirish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;
- b) o'quvchilarda shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- v) o'quvchilarning o'rganilayotgan fan bo'yicha qobiliyatlarini, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- g) yangi mavzuni fanlararo aloqadorlik asosida tushuntirish;
- d) dars jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalarining qiziqarli metodlari asosida tashkil etish.

2. Kimni o'rgatish:

- a) kelajakda mamlakat taraqqiyoti uchun mas'ul, davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish komil insonga ta'lim-tarbiya berish;

- b) o'quvchilarning bilim olish va tarbiyalanish jarayonida duch keladigan muammolarni va qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etishga o'rgatish;
- v) o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
- g) dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchilar fikrlarini inobatga olgan holda tashkil etish;
- d) o'quvchilar yosh va murg'ak qalb egasi ekanligini, ulardagi psixologik o'zgarishlar va rivojlanishlarni inobatga olish zarurligini unutmashlik;
- e) iqtidorli o'quvchilar bilan yakka holda faoliyat olib borish.

3. Qanday o'rgatish:

- a) o'qituvchi o'z faoliyati davomida to'plagan tajribalari asosida pedagogik, kompyuter va axborot texnologiyalarini qo'llagan holda ta'lim berishi;
- b) yuksak pedagogik mahorat bilan dars va darsdan tashqari vaziyatlarda tarbiyaviy jarayonni milliy mafkura, an'ana va qadriyatlar asosida tashkil etish;
- v) o'quvchilarni bilim olishga qiziqishini oshirish maqsadida pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullaridan foydalanish;
- g) ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda belgilangan maqsadga erishish uchun, mahalla faollari, otanonalar bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash.

O'qituvchining o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoasi bilan uzviy aloqada bo'lishi, uning jonli muloqotni to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar bilan jonli muloqotga kirishib, ularning hurmat e'tiboriga sazovor bo'lish birdaniga sodir bo'ladigan va ta'lim-tarbiya sohasida yutuqlarga darhol etaklaydigan jarayon emas. Buning uchun o'qituvchi yillar davomida tayyorlanadi, pedagogik mahorat sirlarini egallaydi, tajribali ustoz o'qituvchilarning yutuqlaridan foydalanadi. Yosh o'qituvchi uchun jonli muloqotni yaratishda quyidagi vazifalarga e'tibor berish talab qilinadi:

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini, psixik holatini chuqur o'rganish, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari faoliyati bilan tanishish, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish;
- jonli muloqot asosida mustaqil fikrlovchi, o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga intiluvchi erkin shaxsga ta'lim-tarbiya berishi shartligini unutmashlik;
- jonli muloqotning pirovard natijasi o'quvchilarni o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati bilan mas'uliyatni his etishini ta'minlashi, ularni ongli ravishda ozod va hur fikrlovchi inson bo'lib tarbiyalanishi lozimligini unutmashlik;
- jonli muloqot tufayli o'quvchilarning muayyan darajadagi intellektual salohiyatlarini, aql zakovati qudratini yuzaga chiqarishga erishish.

Pedagogik muloqotning muhim jihatlaridan biri uning vositalaridir. Vositalar tashkilotchilik qobiliyati, baho beruvchi, intizomga undovchi bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda o'qituvchi o'z ishining mohir ustasi bo'lishi uchun tashkilotchilik qobiliyati asosida ta'sir ko'rsatishga ko'proq yondashishi lozimligi ta'kidlanadi.

O'qituvchining pedagogik muloqoti amalda o'zining uchta shakli bilan namoyon bo'ladi:

- bilimlarni egallashda o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikda hamkorlik qilishlari;
- o'qituvchining o'quvchilarga tazyiq o'tkazishi va ularning faolligini ro'yobga chiqarmasligi;
- o'qituvchining o'quvchilar o'zaro muloqotda, nisbatan mo'tadil munosabatda bo'lishi va o'quvchi jamoasi tomonidan hal etilayotgan barcha muammolardan o'zini chetga olishi.

Muloqotdagi noo'rin vaziyatlarni o'qituvchining o'zi tajribasizligi tufayli paydo qiladi. U o'quvchilar bilan bir xil o'zaro muloqot olib bora olmaydi, ba'zi ishtirokchilarga nisbatan tazyiq o'tkazsa, ba'zi ishtirokchilarga muvofiq ravishda faoliyat olib boradi.

O'qituvchi muloqotga emotsional tus berish bilan neytral holat orqali muloqotdagi faoliyatini ijodiylikdan salbiylikka o'zgartirishi mumkin. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfdagi

ma'lum iqlimni o'zgartiradi. Takomillashgan pedagogik muloqot o'qituvchining o'z-o'zini muloqot jarayonida va erishilgan yutuqlari natijalarini muntazam nazorat qilib borishini nazarda tutadi.

To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o'qituvchi tanlagan vositalar ta'lim-tarbiya jarayonining vazifa va sharoitlariga muvofiq kelishini o'lchovchi vosita sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot orqali quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonining o'qituvchi tomonidan yakka holda olib borilishi va bu faoliyatga yagona o'zi javobgarligi;

ikkinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy - psixologik tizimning bir maromda ta'minlashi;

uchinchidan, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatida muayyan bir tizimning tashkil qilinishi;

to'rtinchidan, o'quvchini mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllantirish, yashirin iste'dodini ro'yobga chiqarishga erishish imkoniyatlaridan foydalanish;

beshinchidan, komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida o'qituvchi pedagogik faoliyatining birlamchi vazifasi ekanligini unutmaslik.

Muloqot jarayonida o'quvchilarning xulqi ijtimoiy qonun qoidalar maromiga zid kelsa, u holda uning hatti-harakatiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi, ya'ni, e'tiroz, tanbeh, ogohlantirish kabi vositalar qo'llaniladi. Muloqot jarayonida o'qituvchining axloqiy namunalari muhim ahamiyatta ega bo'lib, axborot almashinuv, o'zaro ta'sir, kabi muloqot vositalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Har bir fikr va e'tiroz bildirilganda, muloqotdan o'quvchining ruhiy o'zgarishlariga, tashqi ko'rinishiga e'tibor berish, lozim bo'lganda o'qituvchining uzr so'rashi, tavoze bilan o'quvchiga murojaat qilishi o'qituvchi muomala odobining muhim belgisidir.

Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot jarayonida nojo'ya hatti – harakati, qo'polligi, o'ylanmay bildirilgan noto'g'ri fikri, ortiqcha imo-ishoralari natijasida o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotning buzilishiga, tuzatib bo'lmas qaltis vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Buning natijasida muloqot odobi, yaxshi muomala bilan fikr almashuv o'z o'rnini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi. Ushbu salbiy holatlarga yo'l qo'yilmaslik uchun, pedagogik muomalada o'quvchilar bilan o'zaro munosabat hurmat va ishonch negizida qurilishi kerak. Bunda o'qituvchi o'quvchining huquq va majburiyatini, maktabda, jamoada, oilada bajaradigan vazifalari nimalardan iborat ekanligini har lahzada eslatib turishi lozim.

Nazorat savollari:

5. Muloqot jarayonida qanday vositalardan foydalaniladi?
6. Pedagogik-psixologik ta'sir metodlari nimalardan iborat?
7. Pedagogik-psixologik ta'sir vositalari nima?
8. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?

5-savol bayoni

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun suhbatdoshni o'ziga moyil qilib olish zarur. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'lmagan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi. Ularning eng muhimlari o'quvchi *ishonchini qozonish hamda ta'sir etish va ma'qullash* usullaridir.

–ishonchini qozonish usuli o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'sir ko'rsatishning yuqori samara beradigan usulidir. U o'quvchi ongiga qaratilgan bo'lib, idrok qilish orqali o'quvchilar ishonchini qozonishni va ularning roziligini nazarda tutadi. Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli muloqot dasturi sifatida darsdan tashqari jarayonlarda, o'quvchi bilan yakka holda suhbatlarda, ma'naviy-tarbiyaviy soatlarda

qo'llaniladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o'z-o'zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi.

Ishonchini qozonish usuli nafaqat o'qituvchi bilan muloqot jarayonida, balki ta'lim-tarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham o'quvchiga ta'sir qiladi. O'quvchi ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. O'qituvchi ishontirish bilan o'quvchida ijobiy hislatlarni uyg'otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o'z o'rnida qo'llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Chunki bir xil yoshdagi o'quvchilar psixik jihatdan turli xarakterga ega bo'lishi mumkin. O'quvchilarning qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy hislatlari har xil bo'lgani uchun bir o'quvchiga nisbatan foydali bo'lgan ishonchini qozonish usuli, boshqasiga zararli bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchining ruhiyatini, psixologiyasini, ichki dunyosini o'qituvchi muntazam o'rganib borishi, o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini, tarbiyalanuvchi temperamentining umumiy tiplarini o'rganish metodikasini bilish lozim. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglashi, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimiga bog'liq bo'lib, o'qituvchi o'quvchi ishonchini qozonishi uchun ularni bilishi va zarur bo'lgan xulosalarni ishlab chiqishi shart.

O'quvchi ishonchini qozonishning yana bir muhim xususiyati o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishida o'z-o'zini tarbiyalashidir. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchining o'zini o'zi idora qilishi, o'zida erkinlikni, ijtimoiy mavqeini, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantirishdir. O'quvchining yashirin qobiliyatlari o'z-o'ziga ishonch orqali yuzaga chiqadi. O'quvchi uchun o'z o'zini baholash qiyin jarayon. O'quvchi ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchiga ishonch bilan ergashib, o'ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalanar ekan, unda avvalo, mustahkam iroda shakllanadi, o'z burchini to'g'ri tushunadi, bilish va o'rganishga qiziqishi kuchayadi, o'z-o'zini har tomonlama takomillashtirishga intiladi, o'ziga atrof muhitdagi o'rtoqlari ko'zi bilan xolisona baho beradi, o'ziga ishonadi va unda qoniqish hissi paydo bo'ladi. Xarakteridagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni tez anglab, ularni yo'qotish va bartaraf etishga intiladi.

–*ta'sir etish va ma'qullash usuli* muloqotning umumiy jarayonidir. Ikki suhbatdoshning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari, tarbiyaviy maqsadni ma'qullatirish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu usul vositasida o'qituvchi o'quvchi ruhiyatiga va xulq-atvoriga tarbiyaviy maqsadni ko'zlab sezilarsiz ravishda psixologik ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi psixikasida nazoratsiz kiradi. Ushbu usul, muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda axloqiy-irodaviy hislatlarni faol takomillashtiradi. O'qituvchi xushmuomalaligi, muosharat odobining cheksiz qudrati bilan o'quvchi psixikasining anglanmagan qirralariga pedagogik ta'sir etadi, o'qituvchi va o'quvchining yaqindan muloqotda bo'lishini, bir-birlariga ishonchini, topshiriqlarni ma'qullab vaqtida bajarish uchun javobgarlik hissini shakllantiradi.

O'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan pedagogik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talablariga mos keluvchi etakchi *tamoyill*aridan o'rinli foydalanishi lozim:

1. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda demokratik yondashuv. Muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchini ijtimoiy qadriyat deb tan olishi, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilishi, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini e'zozlashi lozim. Zero, ta'limni isloh qilishdan asosiy maqsad, tarbiyada demokratiyaning ustunligi, tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-birlariga o'zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik munosabat mohiyatini ijobiy tomonga yo'naltirish demakdir. Muloqotni demokratik uslubda tashkil etishdan maqsad, ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, pedagogik faoliyat markazida inson shaxsi turganini unutmazlik, insonga nisbatan bebaho boyluk sifatida munosabat tuyg'ularini o'quvchilarda ham shakllantirish vazifasi bajariladi.

2. O'quvchilar bilan do'stona munosabat. Aslida muloqotdan maqsad o'quvchilar bilan do'stona munosabatni ro'yobga chiqarishdir. O'quvchi shaxsini hurmat qilish o'qituvchining insonparvarlik tuyg'ularidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muxabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Bolalarga nisbatan hurmat tuyg'usi ularning kuchiga kuch qo'shadi, o'z imkoniyatlariga ishonch tuyg'usini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish va munosabatni adolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do'stona muloqot o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi o'qituvchining axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. O'qituvchining o'ziga va o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

O'z faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi ayniqsa, har bir o'quvchining kelajagiga umid bilan karashi, unga individual yondashishga harakat qilishi, tarbiyaviy jazolash usullarini tartibsiz qo'llamasligi, o'quvchilar jamoasi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsadlarni qo'yishga intilishi lozim. O'qituvchi ma'lum bir pedagogik mahorat sirlarini egallashga intilmasa, o'z fanidan bilimi sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondashmasa, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasa, o'quvchilar uni asta - sekin tan olmay qo'yishadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi muloqotida tuzatib bo'lmas xatoliklar paydo bo'lishi mumkin.

3. Muloqotni ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan bog'lab olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatlari ham muntazam ta'sir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati bo'lib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning tarbiyalanib, shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmui tushuniladi. Muhit tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit xususiyatlarini ifodalaydi. Ayniqsa, oila, maktab, do'stlar davrasi, tengqurlar kabilarni o'z ichiga oladigan mikromuhit shaxsni tarbiyalash jarayoniga muhim ta'sir etishi pedagog va psixolog olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Oila muhiti o'quvchining tarbiyasi va komil inson sifatida shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shuning uchun o'qituvchi muloqotni tashkil etishda ota-onalar, mahalla faollari, uchastka nozirlari bilan doimiy aloqada bo'lib, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Muloqotda ijtimoiy hayot qonuniyatlarini hisobga olish, o'quvchilarni maqsadli tarbiyalashda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zamin yaratadi.

4. Muloqotni tashkil etishda mehnat faoliyatining o'рни. Ta'lim muassasalarida o'quvchi mehnat faoliyati bilan o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi. Mehnat – yosh avlodni yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvorini namoyon qiluvchi, kasbiy qobiliyatlarini uyg'otuvchi, tarbiyaviy jarayonning eng qadimiy va sinalgan vositasidir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani jismonan chiniqtiradi va faollashtiradi, xulq mukammalligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qilib shakllantiradi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni ularning mehnatsevarligiga yoki dangasaligiga qarab belgilasa ham bo'ladi. Ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muxabbat va mehnat qiluvchilarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'zaro muloqotning o'рни cheksiz. Ta'lim muassasalarida o'qishning o'zi ham mehnatdir. Muloqotdan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun u mehnat tarbiyasi bilan aloqadorlikda olib borilishi lozim.

5. Qo'rquv va hayajonga asoslangan muloqot uslubi. Bunday muloqot uslubiga odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar tushib qolishi mumkin. Ushbu uslub asosida boshlangan muloqot ko'pincha o'quvchilarni tez-tez ogohlantirish, ularni qattiqqo'llik bilan tarbiyalashga harakat qilish, o'qituvchi yoqtirmagan hatti-harakatni ta'qiqlash vaziyatida olib boriladi. O'quvchilar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida ko'z ilg'amas qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

Muloqot jarayonidagi ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar bilan o'qituvchining o'quvchilarga qo'yadigan talablari va ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishidan paydo bo'ladi. Ba'zan o'quvchining ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq kelmasligidan, yoki o'qituvchining o'quvchilar yosh xususiyatlarini, fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog'lomligini bilmasliklari oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi. Muloqot jarayonidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etishda asosan o'qituvchining o'zi qizg'in faoliyat olib borishi, ustoz o'qituvchilar tajribalaridan foydalanishi, lozim bo'lganda, tortinmasdan ulardan yordam so'rashi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, axloqiy normalarni o'zlashtiradilar. *O'quvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarini, axloq-odobni, muloqot madaniyatini asosan o'qituvchi timsolida anglab olishini unutmazlik kerak.* O'quvchilar jamoasida o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda ikki xil bo'lib biri rasmiy, ikkinchisi norasmiy muomala deyiladi.

Rasmiy muomala munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi.

Norasmiy muomala pedagogik etika va estetikaning konuniyatlariga va o'qituvchi odobiga asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muloqot odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari va qoidalari, talablari hamda o'qituvchilar jamoasining fikri asosida boshqariladi.

Nazorat savollari:

5. Muloqot jarayonida qanday vositalardan foydalaniladi?
6. Pedagogik-psixologik ta'sir metodlari nimalardan iborat?
7. Pedagogik-psixologik ta'sir vositalari nima?
8. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?

6-savol bayoni

Ijtimoiy munosabatlar ko'lamining kengayishi o'qituvchidan o'sib kelayotgan yosh avlodni o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayonida har tomonlama chuqur bilimga ega, barkamol inson qilib tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan sog'lom muhitda mukammal tarbiyalangan inson hayotiy qarama-qarshiliklar, xususan turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish, nosog'lom turmush kechirish va noqonuniy hatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir.

O'zbekiston Respublikasida demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

Ushbu yuksak javobgarlikni talab qiluvchi vazifalar o'qituvchilar zimmasiga yanada ulkan mas'uliyatlarni yuklaydi. Bu xususda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e'tirof etadi: *«Umumlashtirgan holda kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillaridan biri... ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o'qituvchilarni va murabbiylarni qayta tayyorlash... o'quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash»¹* lozim.

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 2000. – 23-бет.

Pedagogik mahorat bo'lajak o'qituvchilarda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi. O'qituvchi bunday murakkab vazifalarni amalga oshiruvchi, davlat va jamiyatning ishonchli vakilidir. O'qituvchilar jamoasini birlashtiruvchi sinfda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati va psixologik xususiyatlari ochiq namoyon bo'ladi. Avvalo, o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro hamkorlik va bir-birlariga nisbatan ishonch tuyg'ulari bo'lishi hamda o'qituvchi o'z kasbiy bilimlaridan tashqari boshqa o'quv fanlarini ham puxta egallagan bo'lishi lozim.

Zero, sinf jamoasini boshqarish – pedagogik jamoa, ota onalar oldida o'qituvchining obro'–e'tibori qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi mezon. O'qituvchining axloqiy saviyasini, bilimni muloqot asosida sinf jamoasini boshqarishda erishayotgan yutuqlari belgilaydi. Odatda o'qituvchilarning xarakteri, individual xususiyatiga qarab: tashabbuskor, ijodkor, tashabbusiz, o'z fikriga ega bo'lmagan, barcha ishlarga befarq qarovchilar toifasiga ajratiladi. Pedagog va psixolog olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari, kuzatishlari va ilmiy tajribalariga asoslangan holda o'qituvchilarning rahbar sifatida sinf jamoasini boshqarishida qo'llaydigan muloqot usullari quyidagicha tavsiflanadi:

1. *Avtoritar uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.*
2. *Demokratik uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.*
3. *Liberal uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.*

Avtoritar usulda faoliyat olib boradigan o'qituvchi ish faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi:

- o'zi yakka holda guruh faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydi;
- o'zi o'quvchilarga ko'rsatmalar va buyruqlar beradi;
- ta'lim-tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- o'quvchilarning unga so'zsiz bo'ysunishini da'vo qiladi;
- qattiq intizom asosida ish olib boradi;
- topshiriqlarning to'liq bajarilishini talab qiladi;
- gap qaytargan, fikr bildirgan o'quvchini yoqtirmaydi;
- aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi, so'zlari qattiq va qo'pol;
- o'quvchilarga biror muammoni to'liq tushuntirmasdan talab qiladi.

Avtoritar usullarda pedagogik faoliyat olib boruvchi o'qituvchi "Mening aytganim aytgan, deganim degan" shaklidagi printsip asosida pedagogik faoliyat olib boradi. U sinf jamoasi bilan muloqotga kirishishda quyidagi uslublarni qo'llaydi: buyruq, ko'rsatma berish, qattiqqo'llik bilan ishlash, tarbiyaviy jazo turlarini tez-tez qo'llash. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayoniga qo'pol, dag'al, do'q-po'pisa, majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi. Ushbu usul o'qituvchi asab tizimini doimiy taranglashib yurishiga sabab bo'lib, uning sog'ligiga putur etkazishi mumkin. Natijada o'qituvchi tez charchaydi. Avtoritar usulning ijobiy tomonlari ham bor: ya'ni, ular faqat favqulodda vaziyatlar jarayonida ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinida, aholini evakuatsiya qilishda) mumkin. O'qituvchi muloqotining ushbu uslubda boshqarilishi sinf jamoasini tarqoqlikka, hamjihatlikning buzilishiga olib keladi.

Demokratik usul asosida faoliyat olib boradigan o'qituvchining bosh shiori o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O'qituvchining muloqoti barcha demokratik talablar asosida quriladi. Zero, «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi»¹. Ushbu usulni mukammal egallagan o'qituvchi o'z pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlarni mujassamlashtiradi:

- pedagogik faoliyatda sinf jamoasining fikr mulohazalariga tayanib ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi;
- sinf jamoasining tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, o'quvchilarning erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratadi;

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 2000. – 97-бет.

- muloqot jarayonida o'quvchilar fikr-mulohazalari inobatga olib, pedagogik faoliyatida qo'llaydi;
- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos, maslahat berish, samimiy muomala. Demokratik usulda muloqotni tashkil etuvchi o'qituvchi hozirgi zamon talablariga, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan kutilayotgan maqsadlarga javob bera oladi. O'qituvchining vazifasi komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb bilgan holda, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan tengdoshlariga namuna bo'ladigan bilimli, ma'rifatli, aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli o'quvchilarni tarbiyalash uchun qizg'in pedagogik faoliyat olib borishi lozim. Muloqot jarayonida o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Samarali demokratik tarbiyaviy jarayon, sinf jamoasi a'zolarining qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqaradi, o'quvchining jamoada har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar paydo qiladi. O'quvchilar bilan muloqotning erkin demokratik asosda tashkil etilishi sinfning ahil jamoa bo'lib birlashib, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatlarga erishishiga zamin yaratadi. Yaxshi uyushgan jamoada har bir o'quvchining fikri ulkan tarbiyaviy kuchga ega.

Liberal usul asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi xususiyatlariga sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimga xos mafkuraviy qarashlar mujassamlashgan. O'qituvchining pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- tashabbussiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi;
- sinf jamoasining tarbiyaviy faoliyatiga aslo aralashmaydi;
- ta'lim-tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi;
- o'z mustaqil fikriga ega emas, javobgarlikdan o'zini olib qochadi;
- o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan kiziqmaydi;
- o'quvchilar kelajagiga, taqdiriga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;
- o'z pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi.

Biroq, yillar o'tib, zamonlar o'zgargan sari, XXI asrda jamiyatning ijtimoiy talablaridan kelib chiqib, o'qituvchining xulq-atvori, pedagogik va psixologik bilimlar saviyasi, o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan munosabati, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish saviyasi ham o'zgarmoqda. Shu sababli, o'qituvchilar o'z bilim va tafakkurlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, sinf jamoasini boshqarishning turli shakl va metodlarini amalda qo'llamoqdalar. Sinf jamoasining har qanday boshqaruv usuli o'qituvchi muloqoti asosida tashkil etiladi. Muloqotdan kutilayotgan natija, tarbiya asosida o'quvchining ongini va tafakkurini boyitish va o'zgartirishdir.

7-savol bayoni

Biz yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlarga asoslanib, muloqot asosida sinf jamoasini boshqarishda o'qituvchi uchun lozim bo'lgan quyidagi bosqichlarni tavsiya etamiz:

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning birinchi bosqichi. *Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu sinf jamoasi shakllanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrda o'quvchilar jamoasi hali tarbiyalanuvchi jamoa bo'lmay, balki «birlikni tashkil etuvchi» guruh hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qarashi tabiiy bir holat. O'qituvchi tashkilotchiligidagi jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni yagona maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O'qituvchi muloqoti asosida o'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi faollashadi, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. O'quvchilarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalarga ega emasliklari bois o'qituvchining asosiy maqsadi muloqot asosida jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat.*

Ushbu bosqichda o'qituvchining talabchanligi, jamoaning barcha a'zolariga birday talabni qo'ya olishi, u tomonidan qo'yilayotgan talabning qat'iyligi, izchilligi hamda murosasizligi

muhim omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining muloqotda «hukmdorlik» qilishi uzoq davom etishi mumkin. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning ikkinchi bosqichi. *Ushbu bosqichda jamoa faollarining o'qituvchi muloqotidan kelib chiquvchi talablarni qo'llab-quvvatlashi hamda o'z navbatida bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. O'qituvchi jamoada paydo bo'ladigan muammolarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faollari bilan qizg'in muloqot natijasida tarbiyaviy ishlarni olib boradi.*

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda o'qituvchi muloqotni jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishiga, tadbirlarni o'tkazishga, faoliyat natijalarini muhokama qilishga, jamoa faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillariga tayanib tashkil qiladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faollari, jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelaridan noo'rin foydalanmasliklari kerak.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning uchinchi bosqichi. *Sinf jamoasi faliyatida bu bosqich sermahsul hisoblanadi. Endilikda jamoa ishiga faqat faollargina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotida ijtimoiy va erkin fikrlash vujudga keladi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda muloqotni maqsadga muvofiq va izchil pedagogik faoliyat olib borgan sharoitdagina o'quvchilarda erkin fikr yuritish va ongli intizomni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda o'qituvchi muloqot asosida u yoki bu tadbir rejasini, jamoaning birgalikdagi faoliyatini va uning a'zolari hatti-harakatini jamoa bo'lib muhokama qiladi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi.*

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning to'rtinchi bosqichi. *Bu bosqichda o'qituvchi muloqoti barcha sinf a'zolarining jamoa oldida turgan vazifalari asosida o'z-o'zlariga qat'iy talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqichda ham jamoa a'zolari o'zlariga nisbatan muayyan talablar qo'yishlari lozim. Ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi bilan ajralib turishi zarur.*

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda o'qituvchi muloqoti asosida amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

A.S.Makarenko sinf jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarning ichki xususiyatlariga ulkan ahamiyat bergan va jamoada shakllanadigan quyidagi eng muhim belgilarni ajratib ko'rsatgan:

- 1) o'z jamoasi bilan g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash;
- 2) jamoaning har bir a'zosida qaror topgan do'stona birlik;
- 3) tarbiyali, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;
- 4) hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish.

Tajribali pedagog olim tomonidan ta'kidlab o'tilgan ushbu fikrlar o'qituvchining sinf jamoasi bilan tashkil etiladigan muloqotida va o'quvchilar oldiga qo'yadigan talablarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartib o'rnatilishini ta'minlaydi.

O'qituvchi muloqotini ta'minlaydigan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natijalar beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi, yosh xususiyatlari inobatga olingan bo'lishi kerak.
 2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.
 3. Jamoaning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatiga nisbatan qo'yilayotgan talablari jamiyat talablari bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi shart.
 4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. O'qituvchi qo'yilayotgan talablar hajmini va tizimini bilib o'rgangan holda, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtirgan bo'lishi lozim.
- Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat holatlarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda xulq-atvorni mashq qildirish lozim.
- Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatiladi. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinf xonasidagi navbatchilik, stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Muloqot nima?
2. Nima uchun muloqot pedagogik hamkorlik vositasi sanaladi?
3. Muloqotning qanday turlari mavjud?
4. Muloqot qanday shakllarda tashkil etiladi?
5. Muloqot jarayonida qanday vositalardan foydalaniladi?
6. Pedagogik-psixologik ta'sir metodlari nimalardan iborat?
7. Pedagogik-psixologik ta'sir vositalari nima?
8. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
9. Pedagogik faoliyatda ijod qanday o'rin tutadi.
10. Pedagogik jarayonda innovatsiyalar qanday ahamiyatga ega?

Adabiyotlar:

6. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashriyoti 2007 y.
7. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
8. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
9. Abdiqudusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
10. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashriyoti, 2006.

5-MA'RUZA.

O'QUVCHILARNI O'RGANISH, KUZATISH VA TA'SIR KO'RSATISH METODIKASI

Asosiy savollari

1. Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmun ekanligi.

2. Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini puxta o'rganishi va ular haqidagi ma'lumotlarni aniqlashi.
3. O'quvchilarni pedagogik kuzatish o'quvchilar hayoti va faoliyatini o'rganishning eng ishonchli usullaridan.
4. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari va qoidalari. Pedagogik talab
5. Talabning asosiy shakllari va qoidalari. O'quvchilar bilan o'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish vositalari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *o'quvchilarni o'rganish, guruh rahbari, guruh faoliyati, intizomlilikni mustahkamlash, guruh rahbari vazifalari, guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishi.*

1-savol bayoni

Hozirgi davrda o'quv muassasalar va ulardagi o'quv, tarbiya jamoa oldida juda katta ijtimoiy ahamiyatga moliq vazifalar qo'yilmoqda.

Oliy o'quv yurti yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, oyaviy va siyosiy jihatdan chiniqtirishi yuksak axloqiy fazilatga ega qilishi mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda guruh rahbari muhim rol uynaydi. CHunki u bir guruh sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. Guruh rahbarining ko'p qirrali vazifasi va funksiyalari "Ta'lim to'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da , "O'quv yurti ichki nizomlari" da bayon qilingan bo'lib, unda o'qituvchilarga, ota-onalarga va guruh rahbarlariga tavsiyalar berilgan; aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyaning vazifasi va mazmuni guruhlarga nisbatan moslashtirilgan.

Ana shunga ko'ra guruh rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan guruhda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarishda u yozilmas. SHu guruhda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloq tarbiyasini amalga oshiradi. "Kamolot" tashkiloti xamkorligida, muntazam suratda ularga tayanib va kundalik ishda yordam uyushtirib talabalar bilan darsdan tashqaridagi xilma-xil ishlarni tashkil etadi va guruh jamoasini mustahkamlaydi.
 2. O'quvchilarning birligiga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini o'stirish, har bir o'quvchining individual-ruhiy xususiyatini hisobga olgan holda kasbga uyuntirish va hayotiy maqsadlarni shakllantirish – guruh rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda u har bir o'quvchining soligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.
 3. Guruh rahbarining diqqat markazida talabalarning yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir talabani kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi, orqada qolayotganlarga o'z vaqtida kechiktirmay yordam uyushtiradi.
 4. Guruhdagi talabalarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi, ular ishtirokida guruh jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, o'quv yurti miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z guruhining faol qatnashishini ta'minlaydi.
 5. Guruh talabalarining ota-onalari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi oila va o'quv yurtiga yordam beruvchi homiy mahallalar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.
 6. Guruh rahbari shu guruhda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida, o'quv yurti bilan oila o'rtasida talabalarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan o'quv yurti o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.
 7. Guruh rahbari o'z guruhidagi turli hujjatlarning : guruh jurnali, o'quvchilarning reyting daftarchasi, shaxsiy hujjatlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.
- Ko'rinib turibdiki, vazifva keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish guruh rahbarining shaxsiy sifatlariga ham boliqdir. Guruh rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'uyiladigan farq qilmaydi. Lekin guruh rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatidan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida o'rin egallaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining oyaviy ishonchiga va siyosiy ongining darajasiga boliq.

Guruh rahbari o'zining oyaviy-siyosiy ongini oshiradi. Bu guruh rahbariga bolalarni onglilik ruhida tarbiyalashga, ular orasiga begona ideologiya va yomon xulqning kirib borishiga qarshi kurasha olish imkoniyatini bera oladi. Guruh rahbarining axloqiy obro'si hoyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Guruh rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Guruh rahbari uchun kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishning o'zi etarli emas. O'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi fuqarolik fazilatlari, intizomi va odamiyligi, axloqiy sifatleri bilan ham ta'sir o'tkazadi. Chunki tarbiyachilik talanti juda ko'p sifatleri chuqur bilish, keng fikr doirasi, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish bolalarga bo'lgan cheksiz muxabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq, temperament, aql va odoblilik namunasi, aloqada nazokat va sipolik, vazminlik va kamtarlik kabi fazilatlarning bo'lishini taqozo qiladi. Bunda yana tarbiyachilik texnikasi qo'shilsa ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi guruh rahbarining asosiy qurolidir.

Guruh rahbaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir talaba shaxsini inson sifatidahrmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondoshish talab qilinadi. Muhimi shundaki, guruh rahbarining o'zi bolalarda tarbiyalamoqchi bo'lgan oyaviy-axloqiy oyaga mos bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pligiga asosiy sabab talabalarning oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi harakterda hamisha ham namoyon bo'lavermasligidadir.

Guruh rahbarining maxsus kasbiy va ijtimoiy vazifalariga odilona baho beruvchi xolis hakam – tarbiyalanuvchilar. Avvalo, guruh rahbarining amaliy faoliyati faqat yarimi tarbiya texnologiyaga asoslanganligini nazarda tutish kerak. Uning ikkinchi yarimi bu san'at. SHu tufayli guruh rahbariga qo'yiladigan dastlabki talab – unda pedagogik qobiliyat mavjud bo'lishi kerak. Guruh rahbarining qobiliyati – bu o'quvchilar bilan ishlashga ishtiyoq, bolalarga nisbatan muhabbat, ular bilan bo'lgan munosabatdan mamnun bo'lish bilan ifoda bo'ladigan shaxsning sifatleri. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa. Qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson asab tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur.

Tarbiyaviy faoliyatning samarali bo'lishi uchun guruh rahbarida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmoi va tarbiyalab etishtirilmoi lozim:

- tashkiliy – guruh rahbarining o'quvchilarni jipslashtirish, ularni band qilish, vazifalar bo'lib berish, ishni rejalashtirish, qilingan ishlarni jamlash mahoratiga namoyon bo'ladi;
- didaktiga oid – o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, xissiy istaklarni rabatlantirish, o'quv bilimini orttirish, faollashtirish mahoratida namoyon bo'ladi;
- perseptiv – tarbiyalanuvchilarning ma'naviy dunyosiga singib, ularning emotsional holatini baholash, ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratida namoyon bo'ladi;
- suggestiv – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi;
- kelajakni ko'ra bilish - o'z harakatlarning oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchilarda qanday fazilatlarni ro'yobga chiqarish lozimligini oldindan ayta olish mahoratida namoyon bo'ladi;
- tadqiqiy - pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni o'rganish va ob'ektiv baholash mahoratida namoyon bo'ladi.

Guruh rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ (kattalar bilan ham, kichiklar bilan ham tez aloqa o'rnatish olish) qobiliyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan fakt va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bolab baholashgina emas, balki ro'y berish sababiga qarab hukm ham chiqarishi pedagogik optimizmga, ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lish kerak. Guruh

rahbarining eng muhim fazilati – odamlar bilan tezda til topa olishi, ko‘pchilikka o‘shila bilish, ulfatjonlik, dilkashlik bo‘lib, bu undagi muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki unga hamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to‘ri keladi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda o‘quv-tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yaratish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar bo‘luvchi guruh rahbarining insoniy xislatlari muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Guruh rahbari uchun juda muhim xislat – insonparvarlik, ya‘ni o‘sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabat qilish lozim. Insoniy munosabatlar o‘quvchiga nisbatan xayrixohlik, unga yordam berish, ularning fikriga quloq solmoq, uning o‘quvchilik faoliyatiga yuksak talabchanlikdan iborat.

Guruh rahbari doimo faol, ijodkor shaxsdir. U o‘quvchilarning kundalik hayotini uyushtiruvchi hamdir. O‘quvchilarda qiziqish uyotish, ularni o‘zi bilan etaklash faqat yuksak irodali insonning qo‘lidan keladi. Auditoriya, o‘quvchilar jamoasi kabi murakkab organizmlarga pedagogik rahbarlik qilishi guruh rahbaridan topqir, zehni o‘tkir, har qanday vaziyatni mustaqil echishga doim tayyor bo‘lishligini talab qiladi. Unga kasbiy jihatdan kerakli xislatlardan biri – sabr-toqat va dadillikdir. O‘qituvchining birdan sarosimaga tushgani, o‘z nochorligini o‘quvchilar sezmasligi lozim. SHuni hamisha esda tutish kerakki, guruh rahbari o‘z harakati va axloqini nazorat qilish, hech qachon arzimagan narsalarga asabiylashmasligi kerak.

Muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning birinchi sharti - bu guruh rahbarining talabchanligi. Dastlab talabni u o‘ziga qo‘yishi kerak, chunki o‘zingda bo‘lmaganni o‘zgan talab qila olmaysan. Talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi ham bo‘lishi lozim. Pedagogik jarayonlarda yuz berib turadigan keskinliklarni bartaraf etish uchun tarbiyachiga hazil-mutoyiba tuyusi yordam beradi. Uning ko‘lamida tayyor hazil, maqol, yaxshi, do‘stona piching – ijobiy emotsional holat yaratishga imkon berib, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qildiradi.

SHaxs axloqini karakterlaydigan belgilardan biri – ma‘suliyatdir. Guruh rahbarining ma‘suliyati - tarbiyachining faoliyati va ta‘lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o‘z ichiga oladi. Tarbiyachi zimmasiga bolaning shaxs sifatida har tomonlama kamol toptirish ma‘suliyati yuklanadi. U o‘quvchiga chuqur nazariy bilim berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. SHu bilan birga u o‘quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatni o‘z vaqtida payqab, individual munosabatda bo‘lishi, unda mavjud bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o‘stirishi darkor.

Guruh rahbari o‘quv yurtidagi eng universal pedagogik hisoblanib u bajaradigan mehnatning o‘lchovi, chegarasi yo‘q. Uning bilmagan ishi uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo‘lmaydi. SHu bilan bir qatorda, u bearaz, xolis va ta‘masiz shaxs bo‘lib, jamoachilik asosida ishlaydi. Guruh rahbari pedagoglar, ota-onalar va o‘quvchilarni o‘zaro bolovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o‘zaro aloqalarning to‘ri bo‘lishiga ta‘sir o‘tkazishi va ayni vaqtda o‘zining pozitsiyasini aniq ta‘minlay olishi kerak. Bu esa donollikdir.

SHunday qilib, pedagogik odobga ega bo‘lgan guruh rahbari o‘quvchilar orasida obro‘ qozonadi. Ustoz qanchalik obro‘ qozonsa, ta‘lim va tarbiya mohiyatan shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi va aksincha, tarbiyachining sha‘ni qanchalik past bo‘lsa, uning ta‘siri shuncha bo‘sh va o‘quvchilarni voyaga etkazish jarayoni ham shuncha zaif bo‘ladi.

YUqori aytib utilgan fazilatlar guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishda va uning muvaffaqiyatini ta‘minlashga garov bo‘ladi.
Guruh rahbarining o'quvchilar oilalarida bo'lishi maktab va oila o'zaro hamkorlikning muhim shakli hisoblanadi. Oilada bo'lishning maqsadini aniq vaziyat belgilab beradi. Guruh rahbari nima maqsaddad oilaga berishga muvofiq tarzda unga oldindan tayergarlik ko'radi (O'qituvchilar bilan maslahatlashadi, o'quvchining o'zlashtirishi xulqini aniqlaydi, avvalgi borishi natijalari to'g'risidagi mavzularni ko'rib chiqadi, suhbat mazmunini va shaklini belgilaydi, muhokama qilish ota-onalar bilan kelishish uchun

masalalarni tanlaydi, yaqin kelajak uchun ota-onalarning tarbiyaviy vazifalarni, tavsiyanomalari va hokazolarni belgilab oladi).

Oilada bo'lganda faqat maslahatchi bo'lib qolmasdan, o'zi ham ota-onalarning fikri va takliflariga quloq solishlari kerak, chunki ular farzandlarining muvafaqqiyatidan bizga nisbatan kam manfaatdor emaslar. Yuqori guruh o'qituvchilarning oilalariga borishni zarur deb hisoblaydigan guruh rahbari nohaqdir. Yuqori guruh o'qituvchilar oldida kasb tanlash muammosi turadi, ota-onalar esa bunga o'z farzandlarining u eki bu faoliyatiga qiziqishi va qobiloyatini inkor etib, o'z haëtiy tajribalari asosida ëndoshadilar. Bu jihatdan guruh rahbari tomonidan odob bilan ërdam berishi zarurligi ravshandir.

Nobop oilalar bilan ishlash guruh rahbari uchun alohida qiyinchilik tug'diradi. Odatda bola oilaviy notinchlikning qurboni bo'ladi, binobarin uni pedagogika eid oilaviy munsabatlarni asrash-maktabning vazifasidir.

9-guruh o'qituvchisi Javlonning ota-onasi o'zaro qattiq ziddiyatda edilar. Otasi muhandis, spirtli ichimlikka berilib, rafiqasini haqoratlardir. Hattoki munosabatlarini yumshatishni istab uning bu qilmishlariga chidab kelardi. Lekin o'g'li Javlon aralashib otasidan onasidi taqqirlashni bas qilishni talab qiladi. Ish mushlashishgacha borib etadi.

Shundan so'ng Javlon darslarga bormay qo'yadi. Guruh rahbari shoshilinch chora ko'radi, ya'ni Javlonning otasi ishlaydigan joyga borib tushuntirish ishlarini olib boradi. Shundan so'ng oilada vaziyat asta-sekin yaxshilana boradi. Ona ham, o'g'il ham o'qituvchining ota bilan suhbatlashganini bilishmaydi.

Jamoatchi va bilimli guruh rahbari har qanday vaziyatdan juda ustalik bilan chiqib ketadi va har tomonlama rivojlangan guruh jamoasini tashkil qiladi.

Nazorat savollari:

6. Jamoada shaxsni tarbiyalashning qanday shakllarini bilasiz?
7. SHaxsning shakllanishida guruh rahbarining roli qanday ?
8. Hozirgi kunda guruh rahbarlarining oldiga qo'yilayotgan vazifalar nimalardan iborat?
9. Guruh rahbarlarining ota-onalari bilan qilgan hamkorliklari natijasida nimalarga erishish mumkin?
10. Ijobiy harakterga ega bo'lgan chora tadbirlarning amaliy ahamiyati qanday?

5- savol bayoni

Maktab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirishda-oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun haëti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodir va odatda ta'sir ko'rsatadi.

Oila tarbiya vazfasining bu ulkan miqësi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oila darajasida ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsiy tiklantirish jaraëning zarur bo'g'iniga aylantiradi.

Maktablar tajribasida faoliyat odatda ommaviy jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil qiladi. Tabiiyki individual shakllar muammolash nazarda tutmaydi.

Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya'ni ularda o'quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi), o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jaraënidagi faoliyat maqsadiga (masalan, lektsiya, kontsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilarning o'zaro muammosini nazarda tutmaydi.

O'quvchilar guruhlarda muammolarning o'ziga xos xususiyatini o'rganish uning guruhlarni o'quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiriladigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Jamoa tashkil etganda o'quvchilar muhitda mavjud bo'lgan haqiqiy guruhlarni tutish, bir-biriga va o'zaro do'stlashadigan o'quvchilarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarni xususiyatlarini ularning yo'nalishi, qiziqishlari, malakasini bilishlari hisobga olish va foydalanish kerak. Jamoa ishni tashkil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xususiyatlarini hisobga olish ishining samaradorligini oshiradi. Ikkinchi

tomondan bu hol guruhdagi muammolarni jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomala sohasiga olib kiradi.

Jaoma faoliyatini tashkil etishda o'qituvchilarning shaxslararo real mavjud bo'lgan aloqalarini hisobga olish ikki xil maqsadga erishish : guruh a'zolarini jamoa haetiga jalb qilish va ular o'rtasiga muomalaga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. Jamoada shaxsni tarbiyalashning qanday shakllarini bilasiz?
2. SHaxsning shakllanishida guruh rahbarining roli qanday ?
3. Hozirgi kunda guruh rahbarlarining oldiga qo'yilayotgan vazifalar nimalardan iborat?
4. Guruh rahbarlarining ota-onalari bilan qilgan hamkorliklari natijasida nimalarga erishish mumkin?
5. Ijobiy harakterga ega bo'lgan chora tadbirlarning amaliy ahamiyati qanday?
6. Guruh bilan ishlash va unga rahbarlik qilishda nimalarga ahamiyat qilish kerak?
7. Guruh rahbari ma'naviyatining boyligi talabalar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadimi?

Adabiyotlar:

11. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
12. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
13. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
14. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
15. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

7-MA'RUZA.

SHAXSGA JAMOAVIY TARBIYAVIY TA'SIR KO'RSATISHNING SHAKL VA METODLARI

Asosiy savollari

1. O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish muammosi
2. O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasi
3. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi.
4. Barkamol inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Guruh rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish, bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasi, talablar qo'yish; faollarni aniqlash, o'quv mehnat, barkamol inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati.*

1-savol bayoni

Guruh rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash -tarbiyaning etakchi maqsadidir.

Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to'liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etilgan, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish; faollarni aniqlash, o'quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; soo'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy ao'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoa (maktab, guruh jamoasi, maktabdan tashqari bolalar birlashmasi va hokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

Bolalarning jamoa turmush normalari va qoidalarining, intizomning buzilishiga munosabatlarini kuzatib, jamoaning tashkiliy tuzulishi ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bolalar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va guruh rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. Shuning uchun jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi va mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamoa rivojlanishning 2-chi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas balki harakatlarini qo'llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo'yishini kuzatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri - o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi chiqindi qoo'oz yoki metallolom to'plash, kechaga tayyorgarlik ko'rish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi.

Guruh rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. o'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun guruh rahbari dastavval bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarni, o'zlarini darsda qanday tutishlarni, uy vazifalarni sidqidildan bajarishlarini yoki bajarimasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat eng muhimi - ularning o'qishdagi mo'ljallari ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi.

O'quvchilar o'rtasida salbiy holatlar ro'y bermasligi uchun jamoaning rivojlanish usulini aniqlab olishimiz kerak. Buning eng ishonchli usuli - o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish jarayonida kuzatishdan iboratdir. Maxsus diagnostik usullar, masalan, anketa tarqatish, pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Lekin, bu usullar guruhini juda ehtiyotkorlik bilan, katta pedagogik odobi bilan qo'llash lozim. o'quvchilarni o'rgani-shning har bir usuli ayni vaqtda tarbiya usuli ham ekanligi o'qituvchilar uchun qonun bo'lishi kerak.

Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalashda maktab o'quvchisini o'z-o'zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga bo'yni yor bermaydigan tarbiyasi qiyin bolalar - bu albatta, yomon o'zlashtiruvchilar emas, holbuki ular orasida odatda ko'pchiligi ana shunday bolalardir. Zamonaviy guruh rahbari o'quvchidar yomon xulq-atvorining, past o'zlashtirishning sabablarini puxta o'rganadi. Bunda o'quvchining sinfdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma'naviy asoslari eng muhim masalalardan biridir. Jamoa munosabatlari - dastavval muayyan maqsadlarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlar yo'naltirib turadigan o'zaro ma'suliyatli munosabatlardir.

Sinf o'quvchilari ko'p bo'lgan sharoitda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, har bir bola qalbiga to'eri yo'l topish juda qiyin. Agar olquvchilar jamoasi qo'llab-quvatlasa, har holda bunday yo'lni topish mumkin.

Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuv-ning mohiyati alohida o'quvchini jamoa faoliyatiga jalb etishdan, jamoani esa mazkur o'quvchi bilan qiziqtirib qo'yishdan ham iboratdir. Har qanday jamoada tarbiyasi qiyin bolalar bo'ladi, lekin "ajratib qo'yilgan" bolalar bo'lmaydi.

O'quvchilarning xulq-atvorini muntazam o'rganishni o'qi-tuvchi o'z oldiga maxsus maqsad qilib qo'ymasa u o'qituvchi uchun sezilmagan tarzda o'zgarishi mumkin. Bunday o'rganish yakka tartibda ishni tashkil etishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ish albatta ayrim o'quvchilarning rivojlanishga ta'sir etadi va shuning uchun ham bu jarayon stixiyali emas, balki maqsadga qaratilgan va boshqariladigan bo'lishi kerak.

Guruh rahbari o`quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o`zaro hamkorlikda bo`ladi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni uyushtirishda guruh rahbariga muayyan tarzda yordam beradigan asosiy manba "Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi"dir. Mazkur dastur o`quvchilarning ota-onalari bilan xilma-xil mashq`ulotlarni birga qo`shib olib borishini ko`zga tutadi.

Jamoa tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiy ishdir bunda mazkur ish bolalarning tarkib jihatdan kichik (eng ko`pi bilan besh kishi) guruhlarida amalga oshiriladi. Shunday kichik guruhlarda barcha a'zolar bir-birlari bilan bevosita muomilada bo`ladilar va bir-birlariga bevosita ta'sir ko`rsatadilar.

O`qituvchilar guruhlarda muammolarning o`ziga xos xususiyatini o`rganish, uning gurahlarni o`quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiriladigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Maktablarda guruhiy ishlarni tashkil etishning turli usullari qo`llaniladi:

- bir xil ishlar: unda jamoani tashkil etgan barcha gurahlar bir xil topshiriqlarni bajaradilar;
- tabaqalashtirilgan guruhiy ishlar; unda gurahlar individual topshiriq oladilar. Tashkil etishning gurahiy shakllari amalda o`quvchilar faoliyatining barcha sohalarida qo`llaniladi. Masalan, sinfdagi darsdan tashqari bilish faoliyatida "topilgan va topilmagan sirlar kechasi" o`tkaziladi. Sinf bir necha gurahga bo`linadi, ulardan har biri o`z "siri"ni belgilab va uni sinfga taqdim etadi. Darsda biiish faoliyatini, masalan, 8-sinfdagi tarix darsida o`quvchilar guruhlariga bo`linadilar, ularning har biri topshiriq oladi. Guruhlarning vakillari topshiriqlarning bajarilish yakunlarini butun sinfga ma'lum qiladilar, sinf ularni muhokama qilib, tuzatishlar kiritadi.

Jamoa tashkil etganda o`quvchilar muhitida mavjud bo`lgan haqiqiy gurahlarni tuzish, bir-biriga mehr bilan qaraydigan va o`zaro do`stlashadigan bolalarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarning xususiyatlarini, ularning yo`nalishi, qiziqishlari, malakasini va hokazolarni bilishi, hisobga olishi va foydalanishi kerak. Jamoa ishni tashkil etishda va amalga oshirishda, vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xususiyatlarni hisobga olish ishning samaradorligini oshiradi. Ikkinchi tomondan, bu hol guruhdagi muammolarni jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomala sohasiga olib kiradi.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o`quvchilarning shaxslararo real mavjud boigan aloqalarini hisobga olish ikki xil maqsadga erishish: guruh a'zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o`rtasiga muomalaga ta'sir ko`rsatish imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. O`qituvchi faoliyatida o`quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa.
2. Nazariyada jamoa rivojlanishining uchta darajasi.
3. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi.
4. Barkamol inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati.

2- savol bayoni

O`qituvchi faoliyatida o`quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo`yish, faollarni tarbiyalash, o`quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniyat, faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sogiom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy air analarni yaratish va ko`paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo`llanma hisoblanadi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o`qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdan, jamoa munosabatlarining rivojlanish darajasini aniqlashdan boshlaydi. o`qituvchining esa yangi guruh bilan ko`p marta ish boshlashiga to`o`ri keladi: o`z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfhi navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa maktabda vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan guruh rahbari o`zining metodlari jamoaning rivojlanishiga

to'sqinlik qilmasligi uchun shundan keyingi ishlari davomida vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishning uch yoki to'rt darajasi ajratib ko'rsatiladi.

Boshlano'ich daraja pedagogning kuch-o'ayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan qismi guruh rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Tarbiya jarayoniga, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z-o'zini nazorat qiladi. Guruh rahbari va o'quvchilar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo'l uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar yuzasidan juda qiziqarlidir. Bu guruh rahbarining asosiy ishidir. Umuman maktab o'quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bo'liq bo'ladi. Agar o'quvchilar jamoasi tashkil etilmagan bo'lsa, o'quvchi maktabni hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik maktab yillarini eslamaydi ham. o'quvchilarni inoq jamoaga birlashtirishga mohir guruh rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulo'ayayotgan kishining hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini angiash guruh rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qafiy faoliyatining zarur sharti hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa.
2. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, ko'paytirish kabilar.
3. Nazariyada jamoa rivojlanishining uchta darajasi.
4. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi.

3-savol bayoni

Uning mohiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta'rifini aniq jamoa ta'rifi bilan taqqoslashdan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadning, pedagoglar bilan o'quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o'zaro ma'suliyatli munosabatlarning mavjudligi: o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati va h.k.

Guruh rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun bolalarda ularning hozirgi va bo'lajak hayotlarida ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlari mavjudligini bilish muhim, ya'ni jamoaning hayotiy faoliyati istiqbollarni barcha yoki yarim o'quvchilar qabul qilishni va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olish zarur. Agar bo'lajak shanbalik yoki bayram kechasi bolalar uchun faoliyatga undovchi bo'lsa va bu kun istiqboli faqat ayrim o'quvchilar uchun ahamiyatli bo'lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi haqida gapirish mumkin.

Pedagog guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Sinfda haqiqiy jamoa munosabatlari bo'lmasligi mumkin, bunda o'qituvchi ishni boshidan boshlashga to'o'ri keladi. Ko'pincha bunday holat yangi shakllangan, "yio'ma" sinflarda, yangi qurilgan maktablarda bo'lishi mumkin. To'o'ri, boshqa hollarda ham shunday bo'lishi, avvalgi guruh rahbarining kuch-o'ayrati muvaffaqiyat keltirmagan bo'lishi, tarkibi o'zgarmagan jamoa VII-VIII cinflarda ham shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan guruh rahbari guruh bilan ishlar ekan, har doim jamoa rivojlanishning boshlano'ich davri bilan ish ko'radi, deb mo'ljallab bo'lmaydi. Boshlano'ich sinfdayoq (I-IV sinflarda) ko'pincha yaxshi sinf jamoalari shakllanadi. o'qituvchi bunday holda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini tahlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo'llaydi.

2. **Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati.** Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Bizga maTumki, hayoti davomida inson jismoniy va psixik tomonidan o'zgarib boradi, lekin bolalik va o'smirlilik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o'sishi, o'zgarishi bilan shaxs sifatida kamolga etadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Shaxsning fazilatlarini to'o'ri aniqlash va behato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'o'ri hal qilish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmok kerak.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi: biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiyata'siretadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: "munosib inson" bo'lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor.

Bola shaxsining rivojlanishiga, kamol topishga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak, har bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochning, ko'zning, terisining rangi, bo'y-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bularning barchasi jismoniy xususiyatlarga kiradi. Bularidan tashqari oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tuo'ma o'tadi. Bu esa fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir. Muhit deganda kishiga hayajonli ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuasi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. Shular bilan birga muhit - oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh uruo'ini ko'radi. Bola kamolotida ijtimoiy jamiyat muhit bo'lib hisoblanadi. Chunki bu yerda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar alohida ta'sir qiladi. Bu xil munosabat natijasida odam bolasi hayot tajriba va bilimlarini egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlariga ham turlicha ta'sir etadi.

Bizga ma'lumki, komil inson shaxsini tarbiyalashda yuqoridagi omillardan tashqari yana bir omil, ya'ni jamoaning roli ham katta hisoblanadi. Chunki jamoa har qanday bola tarbiyasini to'o'ri yo'lga soladi. Masalan, guruh jamoasini oladigan bo'lsak, agar shu sinfda bir yomon o'quvchi, ya'ni xulqi, tarbiyasi jihatdan yomon bo'lsa, shu guruh jamoasi unga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini albatta o'tkazadi. Ya'ni qanday yo'llar bilan degan savol tuo'ilish mumkin. Masalan, tadbirlar yoki sayohatlar orqali. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati juda katta. Azal-azaldan bizgacha ota-bobolarimizdan qolgan o'lmas maqollarimizdan birini shu o'rinda keltirib o'tsak: "Aqlni beaqldan o'rgan". Ushbu maqol zamirida bir qancha ma'nolar bor. Ya'ni jamoada har xil bolalar bo'lib, ular bir-biriga qarab ham o'zlaridagi yomon xulqlarni yuqotadilar. Bu xislatlar esa ularning komil inson bo'lib tayyorlanayotganidan darak beradi.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa.
2. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, ko'paytirish kabilar.
3. Nazariyada jamoa rivojlanishining uchta darajasi.
4. Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi.

5. Barkamol inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati.
6. Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti.
7. O'quvchining kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvorining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etishi: biologik omil, ijtimoiy omil va ta'limtarbiya.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

8-MA'RUZA.

OILA VA JAMOATCHILIK BILAN OLIB BORILADIGAN TARBIYAVIY ISH METODIKASI

Asosiy savollari

1. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan oilalarga ko'rsatilayotgan e'tibor.
2. Ota-onaning pedagogik, tarbiyachilik faoliyatini jonlantirish.
3. Ota-onalar guruhi majlisini muntazam tashkil etish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Oila – tarbiya o'choi. Oila – jamiyat negizi. Oila va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas boliq. Oila tarbiyasi. Oila, ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligi. Ota-onaning pedagogik, tarbiyachilik faoliyatini jonlantirish. Ota-onalar guruhi majlisini muntazam tashkil etish. Ota-onalarga pedagogik bilim berish. Ota-onalar uchun ma'ruza.

1-savol bayoni

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y- harakatlarini birlashtirish maksadida 1993 yilda ishlab chikilgan "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Konsepsiyasi yoshlarni istiqloq oylariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal buldi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya turrisidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori poonaga kutarishni taqozo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir, birinchi prezidentimiz ta'kidlaganidek, birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

Ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya — milliy mafkuraga sadoqat ru hida tarbiyalash;

Uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon xamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tudirish uchun intilish ru hida tarbiyalash;

To'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadokat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

beshinchidan, yosh avlodni ulu ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda talaba-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Davlatimiz rahbari ko'rsatib berganidek, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar:

birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin SHaxsni shakllantirishga;

to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;

beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy Duneqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Mazkur Konsepsiyada taraqqietimizning ma'naviy-a hloqiy negizi milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyunligi ekanligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyun yo'nalishlari belgilab olindi.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy Fypyp, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglik, milliy odob, fidoyilik fazilatlarini shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigienik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Konsepsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosligini ta'minlaydi.

Konsepsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998 yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytiradi. qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi siesiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martda qabul qilingan "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada solomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'risida"gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'risida"gi qonunining 30-moddasida "Voyaga etmagan shaxslarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari shaxsning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, o'quv muassasasigacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar", deb belgilab qo'yilgan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 3.2 bandida esa ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu "Oila, o'quv bilim yurti, mahalla hamkorligi" bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. YOsh avlodni ma'naviy-a hloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

O'zbekistonda ro'y berayotgan uzgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

Nazorat savollari:

1. "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Konsepsiyasining o'zni va ahamiyati?
2. Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini deganda nimani tushunasiz?

3. Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorligini qanday yo'lga qo'yish mumkin?
4. Oiladagi tarbiya jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2-savol bayoni

O'quv yurtining oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi guruh rahbari orqali amalga oshiriladi. Guruh rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;
2. Talabaga nisbatan o'quv yurtining va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi;
3. Guruh ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning guruhdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi;
4. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi;
5. Guruhga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va o'quv yurtiga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi va ularni guruhdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Guruh rahbarining talabani yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko'p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog'liq. Ana shu maqsadda guruh rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

- Talabanning o'quv mehnatiga tavsifnoma, o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

- Talabanning ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, talabanning jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.

- Talabanning o'z o'rtoqlari, o'qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan h olatlarning xarakteri, o'quv yurtidagi munosabatlarnig doirasi.

- Talabanning ayrim xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga talaba tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar. Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, ko'zatishtlari yuzasidan guruh rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:

- Farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

- Belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.

- Talabanning o'quv yurti haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, guruh hayotidagi turli voqealarga baholari.

- Ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, guruh rahbaridan, o'quv yurti rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Guruh rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar talabani to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu talaba uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Guruh rahbari o'z ko'zatishtlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, guruh-guruhli va ommaviy kabi shakllar keng tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatinnig asosiy yo'nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni o'quv yurti talablari bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan ko'zatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yo'llari, uslub va shakllari haqida bilim berish, guruh hayotidagi o'zgarishlar, rejalari haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ruzalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, "ochiq eshik" kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o'tkazish ommaviy ishning turlaridir.

Guruh rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar guruh ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o'z qarorlari bilan guruhdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo'nalishini belgilab beradi.

Guruh ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud: guruhdagi tashkiliy ishlar bilan boliq majlislar, ota-onalarga pedagogik ma'lumot berishga baishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga baishlangan majlislar. Bu majlislarning har biri o'z maqsadiga tayyorlash va o'tkazish tartibiga ega.

Tashkiliy masalalar bilan boliq guruh ota-onalari majlisida odatda ota-onalar guruhi saylanadi, ish rejalari tasdiqlanadi, ota-onalar o'rtasidagi vazifalar taqsimlanadi.

Ko'pgina o'quv yurtidagi guruh rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko'proq shaxsiy ish shakli bo'lib, unga guruh rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradi. Guruh rahbari o'zining shaxsiy suhbatini, oilani o'rganish va ko'zatisish asosida to'plagan ma'lumotlarni ota-onalar bilan o'tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus jurnaliga yozib borishi oyatda muhim. Agar bu xil jurnalni guruh rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta'siri yaxshilashning muhim vositasiga aylanadi.

Nazorat savollari:

1. "Oila, mahalla, o'quv yurti hamkorligi" Konsepsiyasining o'rni va ahamiyati?
2. Oila – jamiyatning asosiy bo'linidir deganda nimani tushunasiz?
3. Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorligini qanday yo'lga qo'yish mumkin?
4. Oiladagi tarbiya jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. "Bir shaxsga etti qo'shni ota – ona" degan iborani tahlili qiling.
6. Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorligining ijobiy tomonlarini sanab bering.

3-savol bayoni

Guruh rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz :

1. Talabalarining uylariga borish – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda guruh rahbari talabaning ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.

2. Ota-onalarni o'quv yurtiga chaqirish. Bundan maqsad, faqatgina talabalarining xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga talabani oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

3. Ota-onalar bilan ishlash. Bu esa talabaga chaqiriqlar yoki maxsus da'vatnomalar orqali amalga oshiriladi.

4. Ota-onalar guruh majlisini o'tkazish. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasi orqali amalga oshiriladi.

5. Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ular bilan suhbat va ma'ruzalar o'tkaziladi.

6. Savol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli guruh talabalarining xususiyati, harakterini yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi.

7. Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilor tajribalar bilan fikr almashish, o'rtoqlashish. Bu narsa quyidagi mavzuda bo'lishi mumkin:

a) yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?

b) talabaning kundalik rejimi haqida.

v) "Ota-onalarning obro'si" haqida, "Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish" va hokazolar to'risida anjumanlar o'tkazish.

8. O'quv yurti qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish va bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

a) ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.

b) "Ota-onalar, sizlar uchun" degan mavzuda og'zaki jurnal.

v) faol ota-onalarning tarbiyaviy ish tajribalari bilan boshqa guruh rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat guruh va o'quv yurti miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va talabaning ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi.

Bizning yosh avlod xalkimizniig inkilobiy, mehnat, jangovar an'analarini uzlashtirib, uziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini — goyaviy e'tikod va matonatni, Vatanga muxabbatni, uning ikgisodiy, siyosiy va jangovar kudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina uz bobolari va otalari ishini davom ettira va kupaytira oladi. Bu ishda ota-onalar ayniksa muhim urin tutishlari kerak.³

Buni barcha guruh rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, Bunda shaxsning huquqiy etukligi shaxs ijtimoiylashuvining maxsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish goyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jaraeni ruy beradigan, uning a hloki, duiyokarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va ni hoyatda mu him a hamiyatga ega bulgan jamoadir.

Oila boshka tarbiyaviy muassasalardan farkli pavishda odanning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, kirralariga ta'sir kursatishga kodirdir va odatda ta'sir kursatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkap mikyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir kursatiishning chuqur uziga hosligi bilan uygunlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan kilibgina kolmay, shu bilan birga sha hsni shakllantirish jarayonining zarur buginiga ham aylantiradi.

Oilanipg yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning uziga hos hususiyatlari: kon-karindoshligi, muhabbati, yakinligi, ishonchi, burch hissi, obruliligi va hokazolar bilan ta'minlanadi. Uz farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chogidan biladigan, uning kalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan ya hshirok. kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, dustlikka, muhabbatga urgata oladi!

Ma'lumki, xilma- hil faoliyat sharoitida shaxsning kobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshka kaerda ham faoliyatning hilma- hil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy tarbiyanipg kimmatliligi va a hamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saklanib koladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati konuniy tarzda belgilab kuyilgan.

Guruh rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar zkanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadjikotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham mu himdir, ularga ;muvofik usib kelayotgan kishi sha hsini shakllantirishga oilaning kushadigan hissasi turli yosh boskichlarida turlicha buladi va tulkinsimon uzgaradi. Dastlabki 3 yil ichida u ayniksa kuchli buladi, shundan keyin oilaviy ta'sirning muayyan darajada barkarorlashuvi davri boshlanadi. **Uning** navbatdagi chukkisik» odatda ma htabgacha yosh tugaydigan paytga tugri keladi, shundan keyin ta hminan usmirlik davrigacha u zaiflashgandek buladi. YAna ota-onalariing ta'siri ota-ona oilasidan ajralib, uz oilasini uzguncha ancha kuchayadi.

Psi hologik-pedagogik tadjikotlarning ma'lumotlari ba'zan shaxsning imkoniyatlari tugrisidagi barkaror tasavvurlarni uzgartirib yuboradi. Masalan, ych yillik shaxslar olimlar bir necha yil mukaddam ta hmin kilganlariga nisbatan ancha chukur idrok etish kobiliyaiga ega, uch yoshli shaxs hozir fakat olti eshli shaxslar kilgan va kilmagan narsalarni bilishi va

³ Рахимжонов Н. "Ёшлар иқтисодий тафаккурини шакллантиришда oilaning roli" Т., 2005 (Б.М.И.)

kilishi mumkinligi kichkintoyini yurishdan oldin suzishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga urganish mumkinligi va hokazolar ma'lum buldi.

Vaholanki, tajribaning kursatishicha, ota-onalar kupincha uzlarini tarbiyaviy ishga tula tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota-onalarning bu husuiyatini tanikli pedagog va psi holog K. D. Ushinskiy uz davrida ta'kidlagan edi. «Tarbiya san'ati, — deb degan edi u, — shunday hususiyatga **egaki**, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bulib tuyuladi — odam bu ish bilan nazariy va amaliy ji hatdan kanchalik kam tanish bulsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bulib kurinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-tokatni talab etishini e'tirof kilishadi, ayrimlar buning uchun *tugma kobiliyat va malaka*, ya'ni kunikma kerak, deb uylaydilar; **lekin** juda kam odam sabr-tokat, tugma kobiliyat va malakadan tashkari yana ma hsus bilimlar .kerakligi hakida ishonch hosil kiilish-

Bunday bilimlarniig yukligi oilaviy tarbiyada ko'plab hatolarga olib keladi, guru h ra hbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yuk.. Bu jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi kuydagi kiyinchiliklari va xatolarini ajratib kursagish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular uzlari, ishlari hakida kam suzlab beradilar, o'quv bilim yurti talabalar jamoasining hayoti, uz shaxssining kizikishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning kiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobinga balli", "Sog' tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq hunar oz", O'g'lim posbonim", «Hayot—ustoz, xalq—muallim", "O'zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch — mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag'asida", "Askarlik — yigitlik o'quv muassasasii", "Oila ba hti — Vatan ba hti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tuilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, kor hona va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Konsepsiyasining o'rni va ahamiyati?
2. Oila – jamiyatning asosiy bo'inidir deganda nimani tushunasiz?
3. Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorligini qanday yo'lga qo'yish mumkin?
4. Oiladagi tarbiya jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. "Bir shaxsga etti qo'shni ota – ona" degan iborani tahlili qiling.
6. Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorligining ijobiy tomonlarini sanab bering.
7. Oila, mahalla hamda o'quv yurti hamkorlikda qanday tadbirlar tashkil qilish mumkin?
8. Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligini amalga oshirishning qanday uslublari mavjud?
9. YOshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv yurtining hamkorligini amalga oshirishning qanday tamoyillari va bosqichlari bor?

Adabiyotlar:

16. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
17. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
18. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.

19. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
20. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: “Moliya” nashriyoti, 2006.

9-MA'RUZA.

O'QUVCHILARNI BILIMGA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH ORQALI TARBIYALASH

Asosiy savollari

1. O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifasi
2. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish va mehnat ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi.
3. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotga qo'llay olishlarini hisobga olish.
4. O'quvchilarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifalari, o'qish va mehnatning ijtimoiy ahamiyati, nazariy bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotga qo'llay olish, maktabda ta'lim tarbiyani to'ri yo'lga qo'yishga boliq.*

1-savol bayoni

O'quvchilarning bilim faolligini taraqqiy ettirishda sinf rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat :

1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg'otish.

Bola bilimiga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni engishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

2. O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan endashish.

O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lishlik ta'limning ijtimoiy, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbarlari o'quvchilarga ularning bosh vazifasi– o'qish ekanligini tushuntirishi kerak. O'qishga mas'uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o'qituvchilar , ota–onalar va o'z oldidagi mas'uliyat , ularning fikrlari, ma'qullashlarini eshitishga intilish, sinf o'quv jamoasida munosib o'rinni egallashga ham tegishlidir.

3. O'quv madaniyatini oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat hollarda, o'quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Sinf rahbarining va fan o'qituvchilarning asosiy vazifasi har bir o'quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog'liq :

1. Faoliyati reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala–partishlikka yo'l qo'ymaslik, saranjomlikka o'rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni engish.
6. O'quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish.

Bu degani o'quv mehnatini o'quvchining dam olishi bilan to'g'ri almashtirib borilishidir.

7. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro erdam uyushtirish.

O'rtoqlarcha o'zaro ěrdam sinfda ulgurmovchilikning oldin oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

8.Sinf o'qituvchilari bilan hamkorlik.

Sinf rahbari ta'lim–tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

Endi bevosita ana shu ishlar mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jaraēnida o'qish nafaqat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ish ekanligini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz , butun xalqimiz maktab dagohidam chuqur bilimli, haētga har tomonlama tayěrlangan kishilarning etishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida sinf majlislarida, har bir o'quvchi bilan alohida ěki bir guruh o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda sinf rahbari batafsil gapirib beradi. O'qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil ěndashish, katta mas'uliyat bilan qarash kerakligi bolalarga tushuntirib boriladi.

Bilim –takrorlash mevasidir, – degan edi Abu rayhon Beruniy. Sinfda va uyda ko'p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o'qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat ětadi. Bolalarni o'qishga mas'uliyat bilan qarash ruhida, ko'chirib olishga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kerak.

Sinf majlislarida vaqti–vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmuni mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o'quv mashg'ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o'quvchilarga sezilarli ta'sir o'tkazish kerak.

Sinfning o'zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi, bu borada sinf devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo'llay bilimlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko'p maktablarda muvaffaqiyatla qo'llanilib kelinmoqda. O'quvchilarga biror bir fan bo'yicha ko'rgazmali quro ěki biror jihoz yasab kelish buyurilidayuyi Bunda Agar tirishsang, bu sening qo'lingdan keladi degan gapni uning qulog'iga quyish kerak. Buni o'quvchi nafaqat oddiy topshiriq , balki o'qituvchining ishonchi sifatida ham etarli nazariy bilimga ega bo'lishi kerak. o'quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u ěki bu fan asoslarini o'rganishga, o'z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o'zi yasaētgan o'quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat ětganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o'rganadi.

Maktab o'quvchilarning bilimga qiziqishi ularning haētiy ehtiějlarigap bevosita bog'liqdir.

Maktab hovlisidagi bog', tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jaraēn–daraxtlarni butash, ulargi payvand solib, tok kesish, daraxt o'tkazish, issiqxonalarga pomidor, sabzavotlar etishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu hol ularni botanika , geometriya, jo'g'rofiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o'rganishga rag'bat uyg'otadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarning mohir ustalari bo'lib etishish mumkinmi ? Bolalarga ijtimoiy fanlarga qiziqishni orttirish uchun ularni turli madaniy–ma'rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Xuddi shuningdek, fizika, ximiya, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o'quvchilarda havas uyg'otadigan juda katta haētiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda sinflarni, o'quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarda turli qarashlar, did , duněqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg'otadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyg'otadi.

Bugungi kunda turli fanlar bo'yicha qiziqarli adabiētlar nashr qilinmoqda : Mashhur kishilar haētidan, Qiziqarli matematika, Qiziqarli jo'g'rofiya, O'simliklar haēti, Bizni o'rab turgan olam, Tapriximizga bir nazar va hokazo ilmiy–ommabop turkumdagi bu kitoblar o'quvchilar qo'liga berilsa, ular haētida albatta burilish yasashi turgan gap.

Guruh rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni echadi. Bu borada guruh rahbariga turli xil manbalar yordam beradi.

Bolalarni o'rganish ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirishga bo'ysindirmoq lozim. O'quvchilarni muntazam tarzda o'rganish asosida boshlanich jamoaga hamda alohida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishining yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib borish bilangina cheklanib qolish noto'ri bo'lur edi. Bu o'rganish asosida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, bular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni tashkil etish muhimdir. O'z o'quvchilarini yaxshi o'rganish demak, tashqi tomoniga emas, balki ular hulq atvor sabablarini o'rganishga e'tibor bermoq darkor.

O'quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o'rganish.

O'quvchi ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali maslahatga va jamoat ishiga o'rganishi lozim. O'qituvchilarning o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va tevarak atrofidagi kishilar bilan kirishadigan munosabatlarini o'rgatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jarayonida shaxsning yanada to'la ochiladi. O'quvchilarni tibbiy ish va kundalik hatti harakat jarayonida o'rganish o'quvchiga haqiqiy baho berishga yordam beradi.

Guruh rahbari pedagoglar, ota onalar va o'quvchilarni o'zaro bolovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirish, o'zaro aloqalarning to'ri bo'llshiga ta'sir o'tkazish va ayni vaqtda o'zpnig pozistiyasini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Guruh rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularni fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha amxo'rlik qilib boradi. Xatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatna o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat kilish zarur.

Ba'zi ayrim maktablarda yuqori o'zlashtirishga erishishga o'quv, didaktik masala sifatida maktabda ta'lim tarbiyani to'ri yo'lga qo'yishga boliq bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarda mehnastevarlik, dikqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

1. O'quv mehnatiga ongli munosabatda va unga ma'lumot bilan yondashish hissini tarbiyalash bilimning sifatli bo'lishi bolaning o'qishga bo'lgan intilishi, qiziqishiga ularning harakatchangligiga, diqqatiga faoliyatiga tashabbuskorligiga, mustaqilligiga boliqdir. Bunday sifatlarni o'kuvchilarda shakllantirish, ularga o'quv mehnatining ijodiy ahamiyati tushuntirish va o'quv mashgulotlariga mas'uliyat bilan yondashish o'quvchilardan talab etish guruh rahbarining faoliyatiga muhim o'rin egallaydi. Sinf raxbari ular oldida o'qish bolalarini ochib berishga harakat qiladi. Bunga esa ularning o'qishdagi har bir yutiini ijtimoiy foydali mehnat bilan bolanish o'qish bilan hayot o'rtasidagi mehnat faoliyati o'rtasidagi aloqali ko'rsitish vatanni himoya qilish hissasini tarbiyalash orqali erishiladi.

2. Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uyotish.

Bola bilimga qiziqmay turib, o'qishga intilmay turib, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Birinchi navbatda qiyinchilik bilan o'zlashtirilgan fanlariga nisbatan bolaning qiziqishini uyotish kerak. Boladagi o'qish mehnatiga nisbatan, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o'qishidagi qiyinchiliklarni engishga, bilim faoliyatini oshirishga qiziqvchanlik va mustaqilligini kamol topishiga olib keladi.

Bolalarda mehnastevarlik, dikqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat, o'quv mehnatini sistemali va rejali olib borish iqtidorli bolalarda shakllanadigan kelib chiqadi.

Guruh rahbarining va o'qituvchining asosiy vazifasi har bir o'qituvchining fikrlashga o'rnatishdan iboratdir. Ayniqsa bolalarda o'qish qiyinchiliklarini engish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash uy vazifalarini bajarishda rioya qilishni olgan bilimlarni, amalda qo'llash kabi bilim olish uchun zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O'qituvchilarniyag aqliy va jismoniy taraqqiy etishga madaniyatli bo'lib harakat qilish va hamisha bu haqda amxo'rlik qilish lozim.

4. O'qituvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish.

O'qituvchi mehnati bilan dam olishni to'ri almashtirib borish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lim samaradorligini oshiradi. o'qituvchilar rejimga itoat etishlarini o'qituvchi, guruh rahbari va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. SHu yul bilan ularni muvaffakiyatli o'qishga, o'quv mehnatada saramjonlikka o'rganish mumkin.

5. Sinfda o'qish jarayonida o'rtoqlarga yordam uyushtirish. O'rtoqlarga o'zaro yordam, sinfda ulgurmovchilikni, ikki yillikni va maktabni tashlab ketish hollarining oldini olishga yordam beradi. SHu bilan birga sinfda o'rtoqlik do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishiga olib keladi.

6. Sinf o'qituvchilari bilan alohida bo'lishi va yaxshi hamkorlik.

Guruh rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu srshflarda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida guruh rahbarining va shu sinfda ishlaydigan boshqa o'qituvchilarning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'qituvchilarga nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'qituvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Guruh rahbari bolalarda mehnastevarlik, diqqat, matonat kabi sifatlarini tarbiyalashda nimalarga tayanib ish ko'radi?
2. Guruh rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni kimlar bilan hamkorlikda hal etadi?
3. Guruh rahbari o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qanday vazifalarini hal etishi kerak?

2-savol bayoni

Guruh rahbari maktab o'qituvchilar jamoasi va pedagogika kengashining a'zosisidir. Guruh rahbarining burchi juda keng va ko'p tomonlamadir.

Guruh rahbari ishining asosiy qismi o'qituvchilarni o'rganish. O'qituvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib intizomini mustahkamlash. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish. O'qituvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ishlar ham guruh rahbarining asosiy vazifalaridan biridir.

O'qituvchilar jamoasi-guruh rahbarining tayanichi. O'qituvchilarni tarbiyalashda guruh jamoasidagi barcha o'qituvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega. Ularni bir-biriga ko'rsatadigan o'rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini hosil qiladi.

Guruh rahbari bolalarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul hrakat qilishni o'rgatishi lozim.

Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar va ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jaaryonini sevishi kerak deydi. O'ziga xos o'qituvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. SHogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta bola-guruh jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda guruh rahbari ko'p mashaqqatlarga duch keladi. SHuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod

qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. SHogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Xaq yulida senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Guruh rahbari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalar ekan, u o'z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- guruh rahbari o'quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.

- guruh rahbari bolalarga axloqiy normalarni o'rgatishi kerak.

- gerdayishi, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi axloqiga yod sifatlardir.

- xalq nazarida olim hisoblanadigan o'qituvchilar yomon ishlardan, fisku-fasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan to'ri muomala qila olishi murakkab, nozik ish. CHunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televidinie, radio orqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. SHunday vaziyatlar ham bo'ladiki, o'il yoki qiz bola maktabda o'zboshimchalik qiladi, lekin oilada xushyor va gapga quloq soladi, yoki aksincha. Oilada muomalasi qo'pol, o'zboshimcha, maktabda esa o'zini xushmuamola, intizomli tutadi. Buning sababi nimada Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to'ri javobni topish amri mahol. CHunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Demak, guruh rahbari va ota-onalarning maqsadlari bir hil bo'lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo'lmaydi.

Guruh rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtni to'ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to'la qimmatli tarbiya yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bo'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

YOshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlanich maktab muhim o'rin egallaydi.

Ma'naviy axloqiy tarbiya-ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Guruh rahbari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning quyidagi vazifalarini hal etishi kerak. O'zbekiston Respublkasi Prezidentining 1999 yil 3-sentyabrdagi "Respublika ma'naviyat va Ma'rifat kengashini qo'llab - quvvatlash to'risida"gi Farmoni zamiridagi oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar, shuningdek, Prezidentimiz I.A.Karimovning "YUksak ma'naviyat -yongilmas kuch" nomli asarida "Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini bakuvvat, imon-e'tikodini butun qiladigan, vijdonini uyotadigan bekiyos kuch, uning barcha karashlarining mezonidir" deb ta'kidlashlari xam, ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

1) Tuilib o'sgan joyiga, O'zbekiston Respublikasiga yuksak muhabbat tuyularini, uning tabiati va kishilar haqida, Vatanning himoyachilari va mehnat qahramonlari to'risida, ota-bobolarimiz, ularni dunyo stivilizistiyasiga qo'shgan hissalarini to'risida ko'proq bilishga intilishni tarbiyalash.

2) O'quvchilarda Vatanimizning boy tarixi, shuningdek boshqa mamlakatlar to'risda, tinchlik uchun kurash haqida chet ellardagi bolalar tashkilotlari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish.

3) Bolalarda o'rtoqlik tuyusini, boshqalarga yordam ko'rsatish ishtiyoqini, umumiy foyda yo'lida birgalikda faoliyat ko'rsatishga intilishni tarkib toptirish. Bolalar o'rtasida, o'il va qiz bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rabatlantirish, sohta o'rtoqlik ko'rinishlariga qarshi kurash olib borish lozim.

4) O'z so'zi va va'dasi uchun, o'qituvchi va jamoa topshiriqlarining bajarilishi uchun ma'suliyat tuyusini tarbiyalash.

5) Bolalarda kishilarga to'ri munosabatni, keksalar, bemorlar, invalidlarga nisbatan e'tibor va amhurlikni, xushfe'l va betartib, kamtar va haqgo'y bulishini tarbiyalash.

Nazorat savollari:

1. Guruh rahbari o'quvchilar bilim sifatini oshirishda nimalarga e'tibor berishi lozim?
2. Guruh rahbari bolalarda mehnastevarlik, dikqat, matonat kabi sifatlarni tarbiyalashda nimalarga tayanib ish ko'radi?

3-savol bayoni

O'quvchilarni barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatiga adolatli baho berishga o'rgatishi hamda o'z kuch ayratini o'quvchilarda nopoklik, adolastizlik, kishilarga raxm-shafqastiz bo'lishga nisbatan salbiy munosabatni tarkib topshtirishga qaratishi kerak.

O'quvchilarni tarbiyalash o'qitishga qaraganda ancha qiyin degan fikrni o'qituvchilar orasida tez-tez eshitish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda, o'zining xususiyatlariga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashni barcha protsesslarini bilim berish va o'rgatish bilan birga qamrab oladi. Bunday ikkita o'zaro bolangan tomon: hyotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish protsesslari ajralib turadi. Hayotni bilish ma'lumot olishning asosiy funksiyasi, unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish tarbiyaning asosi, vazifasini tashkil etadi.

Guruh rahbari faqat ta'lim-tarbiyaning birligini emas, balki ularning xususiyatlarini ham ko'ra bilishi muhimdir. Maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan olib boriladigan ulkan ishining bir qismi xolos, u bolaning ilgarigi tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, undagi barcha yaxshi sifatlarni o'stirib, noto'ri tasavvurlar, odatlarni tuzatib borishi va bo'lajak sifatga zamin tayyorlashi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchi maktabni tamomlagandan keyin ham tugallanmaydi, u butun umr bo'yi davom etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya-ta'lim berish bilan boliq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning forma va metodlariga ega bo'lib, maxsus ravishda o'rganilishi lozim.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim sharti sifatida ularning o'quv va o'qishdan tashqi xilma-xil faoliyatlarining birligi to'risidagi tushunchalar bilan boliqdir.

O'quv va ma'naviy-axloqiy tarbiya faoliyati bir-birlarini to'ldirish lozim: Guruh rahbari tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir sistemaning bo'lishi mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish protsessiga rahbarlik qilishni takozo etadi.

Biror maqsadga qaratilgan tarbiya protsessida tarbiyalanuvchilarning jismoniy hamda ma'naviy-axloqiy etukligi o'sib borishiga qarab ularning mustaqilligi va ijodiy aktivligi ortib boradi. O'quvchilar jamoaning ongliligi ortib borishi bilan tarbiyachining vazifalari o'zgaradi. Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topadi.

Nazorat savollari:

1. Guruh rahbari o'quvchilar bilim sifatini oshirishda nimalarga e'tibor berishi lozim?
2. Guruh rahbari bolalarda mehnastevarlik, dikqat, matonat kabi sifatlarni tarbiyalashda nimalarga tayanib ish ko'radi?
3. Guruh rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni kimlar bilan hamkorlikda hal etadi?

4-savol bayoni

O'quv jaraënida fanlar bo'yicha o'zaro bog'lanishga katta e'tibor berish kerak. Bunda o'qituvchi o'quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar echish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o'lchov birliklari qo'llaniladi. Matematika darslarida ikkala fan birgalikda va o'lchov birliklari qo'llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o'rganadigan mavzular bo'ladiki, ularda ikkala fan o'qituvchisi ham bir darsda o'z sohalari bo'yicha tushuncha bersalar nur ustiga nur bo'ladi. Adabiët–tarix, mehnat–botanika, tarix–jo'g'rofiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. Bolaning muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda ëndashish va fan asoslarini o'rganishga havas uyg'otish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarni bilish faolligini takomillashtirish uchun to'garak, fakultativ mashg'ulotlari jaraënida kengroq foydalanish lozim. Sinf rahbari o'z o'quvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida ma'lumotlar bilan fan o'qituvchilarini tanishtiradi, bolaga qanday munosabatda bo'lish kerakligina haqida maslahatlar beradi.

Bolalarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas'ullikni sezmagani o'quvchi pala–partish o'qiydi. Mas'ullik kishini sergak torttiradi, o'quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi.

Ma'lumki, ongli intizom va mas'uliyat hissini sezish maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlari tizimining samarasi hisoblanadi.

Bolalarning intizomli bo'lishida sinf rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o'rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi. Bu ishlarni sinf rahbari bir o'zi emas, balki o'qituvchilar, sinf jamoasi, faollari va ota–onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Sinfda intizomni saqlash va joriy qilish faqat sinf rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto'g'ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas'uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jaraëndir. Shunisi ham borki, ko'p vaqt qilingan mehnatni bir paytni o'zidaëq yo'qqa chiqarish mumkin. Masalan, intizomli o'tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o'quv yumushlari bilan band bo'lishadi, ba'zi o'qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy–chuv qilishadi, bir–biriga qog'oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o'qituvchi tajanglashadi, o'quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir maktab haëtida uchrab turishi tabiiy.

Nega shunday bo'ladi? Bu holatda o'sha fan o'qituvchining o'zi aybdordir. Nega u dastlabki mashg'ulotlaridaëq o'z sirini bolalarga oldirib qo'ygan. O'ta ko'ngilchan, so'zlari, harakatlari ta'sirsiz, bo'shang, muloyim, bolalarni o'ziga jalb qilolmaydi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega emas.

Xo'sh natija nima bo'ladi? O'qituvchi o'z kayfiyatini buzadi, jismonan charchaydi, o'quvchilarni uradi, dars maqsadiga erishish u ëqda tursin, darsni to'liq o'tolmaydi, bunda ham ëmoni o'quvchilar intizomini buzadi, sinfda tarqoqlikni, boshboshdoqlikni vujudga keltiradi. Mana, sizga birgina bo'shang o'qituvchining keltirgan ziëni.

O'quvchilarni intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni maktabga, atrof–muhitga saranjomlikka o'rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash–maktabning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Sinf rahbarlari xuddi shunday holatlarga o'z e'tiborlarini qaratishlari lozim. Butun sinf o'qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo'llikni, sinfda intizomni saqlash, o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo'yish lozim. Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda bolalarning partada qimirlayman o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak.

Darslardagi tartib–intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o‘quvchilar ishonchini qozonishdir.

Intizomli bo‘lish nafaqat maktabda, balki o‘quvchining kelgusi haëtida ham asqotishi turgan gap. Chunki inson haëtining chigal va murakkab so‘qmoqlarida ham tartib–intizom muhim ahamiyatga ega.

Nazorat savollari:

1. Guruh rahbari o‘quvchilar bilim sifatini oshirishda nimalarga e‘tibor berishi lozim?
2. Guruh rahbari bolalarda mehnastevarlik, diqqat, matonat kabi sifatlarni tarbiyalashda nimalarga tayanib ish ko‘radi?
3. Guruh rahbari ta‘lim-tarbiyaviy ishlarni kimlar bilan hamkorlikda hal etadi?
4. Guruh rahbari o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda qanday vazifalarini hal etishi kerak?
5. Guruh rahbarining ota-onalar bilan to‘ri muomala qila olishi qanday ahamiyatga ega?

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O‘quv qo‘llanma. O‘z. Res.Fanlar Akdemiyasi “FAN” nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O‘quv qo‘llanma. “Ofset print” MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta‘limi pedagogikasi O‘MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta‘limi uslubiyoti. T.: “Moliya” nashiriyoti, 2006.

10-MA‘RUZA.

O‘QUVCHILARDA INTIZOMLILIKNI TARBIYALASHNING SHAKL VA METODLARI

Asosiy savollari

1. O‘quvchilar ongli intizom va mas‘uliyat hissini sezishlarida ta‘lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va mohiyatining ahamiyati.
2. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari.
3. O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarning ijodiy, noan‘anaviy, interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish zaruriyati.
4. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda o‘qituvchi amal qilishi zarur bo‘lgan

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining o‘rni, o‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari.*

1-savol bayoni

Ma‘naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ma‘naviyat va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetgazish davlatimizning eng muhim maqsadlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtlaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi va kengaytiradi, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga imkoniyat yaratadi. Shu sababli keyingi davrda o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko‘ngilli uyushtirishga

alohida ahamiyat berilmoqda. Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishi kerak. Maktabda boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, uni yo'lga qo'yish guruh rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari tomonidan uyushtiriladi. Tarbiyaviy ishning asosiy yo'nalishlari: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish, o'quvchilarda axloq madaniyatini, ularning o'z huquq va burchlariga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash, o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Guruh rahbari o'z o'quvchisini doimo o'rganib borishi uchun faqat o'quvchilar bilangina emas, balki o'qituvchilar bilan, o'quvchilarning ota-onalari bilan ham ish olib borishi kerak. Sinf xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Guruh rahbarining ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridan foydalanish va bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtiarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishini, to'garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Bolalarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi. Bu esa sinfda o'quvchilar intizomini susayiyishiga olib keladi.

Guruhda intizomni saqlash va joriy qilish faqat guruh rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto'g'ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas'uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko'p vaqt qilingan mehnatni bir paytning o'zidayoq yo'qqa chiqarish mumkin. Bolalarning intizomli bo'lishida guruh rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o'rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish ham o'quvchilar intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish lozim. Bu esa o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning forma va metodlarini o'rganish, o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining bajaradigan ishlari mazmunini takomillashtirish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi.

Guruh rahbarining asosiy maqsadi o'quvchilarini to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va guruh rahbari bilan bir-birini tushuna olishini ta'minlashdir.

Maktabda o'quvchilarga tarbiya guruh rahbarining ishlari orqali beriladi. Jumladan, tadbirlar, mushoiralar, har xil kechalar, uchrashuvlar, tanloviar va boshqa o'yinlar orqali o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beriladi. Shunga qarab o'quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi.

Guruh rahbari maktab ma'muriyati bilan birgalikda va mahalla jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Maktab ma'muriyati guruh rahbari va uning olib borayotgan ishlarini doimo qo'llab-quvvatlashlari lozim. Chunki guruh rahbari o'z o'quvchilarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalash uchun nimalar kerakligini hisobga olib ish yuritadi. Guruh rahbari ishini ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari boshqarib turadi.

Boshlang'ich sinf maktab ta'limining dastlabki bosqichidir. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ta'limga birinchi qadam qo'yadilar. O'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar, o'qituvchi sinf bilan ko'pincha yolg'iz ishlaydi va tarbiyachi sifatida ish yuritadi.

O`qituvchilarning bolalarga bo`lgan munosabati katta mehribonlik va g`amxo`rlik bilan xarakterlanadi. Bular esa talabchanlik bilan olib boriladi. O`quvchilar bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlarni to`g`ri yo`lga qo`yish hamda o`quvchilarni o`sishi va rivojlanishiga qarab ularni tarbiyalash ham guruh rahbari uchun muhim ahamiyatga ega.

Maktab ustavida guruh rahbarining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Guruh rahbari barcha o`qituvchilar bilan birgalikda aloqada bo`lib, o`zining sinfi bilan tarbiyaviy ishlarni olib boradi. O`qituvchilar tamonidan o`quvchilarga qo`yiladigan pedagogik talablar birligiga erishadi. Ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari, jamoatchilik bilan doimo aloqada bo`lib turadi.

Zarur bo`lgan vaqtda o`qishda o`quvchilarga yordam ko`rsatishni tashkil etadi. Guruh rahbari qiladigan ishlar hujjatlarini yuritadi va uni maktab ma'muriyatiga taqdim etadi. O`quvchilar soligini mustahkamlashga doir ishlarni o`tkazadi va jismoniy hamda aqliy mehnat qilishga o`rgatib boradi.

Guruh jamoasini tashkil etishda guruh rahbarining roli kattadir. Guruh majlisi o`tkazish uchun avvalo, jamoa jipslashtiriladi. Guruh rahbari majlisda ko`plab masalalarni ko`taradi. Guruh majlisida 3-4 ta masalalar ko`rilib, muammoli tomonlari tahlil qilinadi va o`z yechimini topishi kerak bo`ladi.

Guruh rahbari majlis o`tkazish davomida yaxshi o`qiydigan bolalarni sinfda, ya'ni jamoa ichida rag`batlantirishi kerak. Bolalar bir-biriga do`stona munosabatda bolishadi. Ularni bir-biriga qarab yaxshi o`qiy boshlashiga intiladi. Yomon o`qiydigan bolalar ham yaxshi o`qiydigan bolalarga intilib, ular ham yaxshi o`qishga harakat qiladi. Bundan tashqari guruh rahbari o`quvchilarning saviyasi rivojlanishi uchun o`zi sinfda kutubxona qilishi kerak. Bu kutubxonadagi kitoblarni o`quvchilar sinfdan tashqari o`qish vaqtida yoki darsdan so`ng bo`sh qolgan paytlarida o`qib, o`zlariga foydali tomonlarini olishi mumkin.

Oila ham jamiyatning bir bo`lagi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasini yoiga qo`yish juda katta ahamiyatga ega.

Ota-onalar bilan ishlash shakllarini odatda guruh rahbari o`z shaxsiy xususiyatlarini, tajribasini, o`quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o`ziga xos xususiyatlarini, ota-onalarning bilim va tajribasini, bolalarni tarbiyalashda yuqorida ko`rsatib o`tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, maktab pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazalarni hisobga olib belgilaydi.

Tashkiliy yio`lishlarda ota-onalar qo`mitasi saylanadi, ish rejasi tasdiqlanadi. Maktab atrofida pedagogik muhit o`rnatish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqiladi, jamoat topshiriqlari taqsimlanadi va turli ish yo`nalishlariga doir tashabbuskor ota-onalar guruhlari tuziladi, ota-onalar ishtirokida umummaktab tadbirlarini o`tkazish rejalari muvofiqlashtiriladi.

Chorakdagi yakunlovchi guruh majlislari ota-onalarning e'tiborini o`quvchilarning bilimga doir qiziqishlari, qobiliyatini, axloqiy-irodaviy fazilatlarini rivojlantirishdagi yutuqlar, kamchiliklar, foydalanilmagan imkoniyatlarga qaratish maqsadini ko`zda tutadi.

Biror mavzuga ba'os` ishlangan yig`ilishlar tarbiyaning eng dolzarb muammolari yuzasidan o`tkaziladi, ularda ota-onalar qo`mitasi va guruh rahbarining o`quvchilarning u yoki bu sohadagi tarbiyalanganlik darajasi to`g`risida to`plangan materiallardan foydalaniladi.

Majlis-munozaralar ota-onalar e'tiborini tarbiyaning biror muammosiga jalb etish maqsadida o`tkaziladi. Bunday majlislarni ota-onalar qo`mitasi a'zolarida ota-onalarning bir qismi o`z vazifalariga, maktabning tavsiyanomalariga noto`g`ri munosabatda bo`layotganliklari, ota-onalarning bir qismi tayyorgarlik kayfiyatida ekanligi haqida ma'lumotlar bo`lgan taqdirda o`tkazish tavsiya etiladi.

Amaliy yig`ilish ota-onalarning tarbiyaviy jarayonlarda ishtirok etishini faollashtirish, unga maqsadga yo`naltirilgan tus bag`ishlash maqsadida o`tkaziladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish samaradorligi ko`p jihatdan o`qituvchilar va ota-onalarning muvofiq harakatlari bilan belgilanishini nazarda tutib, bolaning o`ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning xulq-atvoridagi eng kichik chetga chiqishlarga ham o`z vaqtda e'tibor berish kerak, bunga guruh rahbari bilan ota-onalarning ishonchli

munosabatlarini o`rnatish, o`quvchilarning oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo`shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarning ishonchli o`zaro munosabatiarini o`rnatish orqaligina erishiladi. Bunday munosabatlarni o`rgatish va chuqurlashtirish uchun yakka tartibdagi suhbatlardan foydalanish juda muhim.

Har bir ota-ona o`z farzandini yaxshi ko`radi, shuning uchun ular o`z farzandida hosil bo`lgan yangi, ijtimoiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan birgalikdagi harakatlari xususida maslahatlashishni muhim deb hisoblaydigan guruh rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar.

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar, ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir. Ularga muvofiq o`sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo`shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo`ladi va to`lqinsimon o`zgaradi.

Pedagogik ma'ruza pedagogik bilim berishning eng mashhur shakllaridan biridir. Keyingi paytlarda ota-onalarga pedagogik bilim berish keng miqiyos kasb etib, korxonalaridagi uyushmalar, madaniyat uylari huzuridagi, turar joylardagi va ota-onalar pedagogika universitetlari orqali turli shakllarda amalga oshiriladi.

Ochiq eshiklar kuni yoki ota-onalar kuni, odatda maktab ta'tillari paytida o`tkaziladi. Ularni tashkil etish shakllari xilma-xil bo`lishi mumkin. Bu tarkib topgan an'analarga va guruh rahbari ijodkorligiga bog`liqdir. Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati bolalar va ota-onalarning o`ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro`liligi bilan ta'minlanadi.

Guruh rahbari har doim o`quvchilaridan xabardor bo`lib turishi kerak. Masalan, bir o`quvchining o`zlashtirishi yomon bo`lsa, uni yaxshilash uchun o`qituvchi birinchi o`rinda ota-onasi bilan uchrashib, surishtirishi kerak. Nimaga yaxshi o`qimayapti, nima uchun darslarni o`z vaqtida qilmaydi, shular haqida ota-onasi bilan suhbat olib borishi kerak. Agar bolaning oilasida hamma sharoit bo`lib, bola o`zi yaxshi o`qishni xohlasa-da, o`zi o`ylagan natijaga erisha olmayotgan bo`lsa, o`qituvchi bolani yaxshi o`qiydigan o`rtog`ining yoniga o`tqizib qo`yishi kerak. Bundan tashqari o`shanga o`xshagan o`zlashtiruvchi o`quvchilarni yig`ib har xil fanlardan, masalan, matematika, ona tili, o`qish va boshqalardan qo`shimcha darslarni tashkil etib, bolalarning o`qishga bo`lgan talabini, qiziqishini yanada oshirishga harakat qilishi kerak. O`qituvchi o`quvchilarning ota-onalari bilan faol ishlashi kerak. Negaki, maktabda sinfda bo`layotgan ishlardan ota-onalar ham xabar topib, qiynalgan vaqtida hamroh bo`lishi lozim. Buning uchun ota-onalar bilan o`qituvchining o`rtasida bog`lab turuvchi aloqa daftarchasini tutishi va uni doim qoldirmasdan yuritib turishi darkor.

O`qituvchining ko`p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o`qituvchining xilma-xil faoliyatiga bo`liq: bolalarni o`qitish, maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilish, o`tkazish, ota-onalar o`rtasida pedagogik targ`ibot ishlarni olib borish va hakoza. Bularni hammasi o`qituvchilardan chuqur bilimlarga ega bo`lishni, o`z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Guruh rahbari ishining o`ziga xos xususiyatini shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o`quvchilar jamoasini shakllantiradi. o`quvchilarning asosiy vazifasi o`qishdan iborat. Shuning uchun guruh rahbari dastavval bolalarning o`qishiga qanday munosabatda ekanliklarini, o`zlarini qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlarini yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi, ularning o`qishidagi mo`ljallari nimalardan iboratiigi, bu mo`ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. Pedagog sinf bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin.

Guruh rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo`shimcha shart hisoblanadi. Pedagog shaxsini har tomonlama yetuk kamol toptirishda katta rol o`ynaydi. Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda muhim rol o`ynaydi.

O`qituvchilik kasbiga, shu jumladan guruh rahbari kasbiga xos bo`lgan muhim fazilatlardan biri - bolalarni sevishi, ulaming hissiyoti bilan qiziqishi, har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan, butun kuch va bilimni bolalaming kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy o`qituvchi bo`la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o`qituvchilik kasbiga loqayd odam haqiqiy o`qituvchi bo`la olmaydi.

O`z xizmati xususiyatiga ko`ra guruh rahbari tashkilotchilik fazilatiga ham ega bolmog`i lozim. Buning uchun o`qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobilyatiga ega boiib, har doim tetik, g`ayratli, o`z kuchi va imkoniyatiga ishongan boimog`i zarur. Tashabbuskor va g`ayratli guruh rahbari bolalarni o`z orqasidan ergashtira oladi, o`quvchilar unga ergashadi.

O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim konsepsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: "... mutaxassis o`z faoliyatini sohasidan qat`iy nazar, ijodiy jamoalarda ishlay olish qobilyatiga, menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega boiishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo`jalik ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak".

Ushbu fikrlar o`qituvchilarga ham, ya'ni mohir sinf rahbarlariga ham bevosita taalluqlidir. Chunki jamiyatimizda sodir bo`layotgan tub o`zgarishlar, bozor munosabatlariga kirib borishimiz o`qituvchilarni nafaqat kasbiy bilimlarini, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlardan ham xabardor bo`lishini taqozo qilmoqda. Bu o`rinda boshlang`ich sinf o`qituvchilari, sinf rahbarlarining xizmati katta.

Guruh rahbari shaxsiga qo`yiladigan muhim talablardan biri guruh rahbarining o`z ishini yaxshi bilishidir. U tarbiya metodikasini puxta o`zlashtirgan bo`lishi zarur. Ishni to`g`ri tashkil qilish va uni bolalar bilan tushunarli, qiziqarli va mas'uliyatni his qilgan holda olib borish kerak. O`quvchilar o`qituvchining bilimni bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning shu predmetga bo`lgan qiziqishini, uning fidoyiligini ham qadrlashadi.

Guruh rahbarining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi, ayniqsa, O`zbekiston mustaqilikka erishgandan so`ng xalqimizning o`z tarixini, madaniyatini, urf-odatini o`rganishiga, bilishga bo`lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda, ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o`qituvchisi, ayniqsa guruh rahbari milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ`ibotchisi ham bo`lishi kerak.

Har bir bolaning o`z tajribasi, o`z emotsional madaniyat darajasi, qadrlaydigan narsalar, ehtiyojlari, taiablari, umidlari, aloqalari, munosabatlari kabi butun bir dunyosi bor. Tarbiyada ana shular hisobga olinishi kerak. Guruh rahbari o`z o`quvchisining ichki dunyosini, kechinmalarini, hulqida vujudga kelayotgan holatlaming sababini, irodasini yaxshi bilsagina uning qalbiga yo`l topa oladi va bolaga ta'sir etishning to`o`ri yo`lini aniqlaydi. Ana shunday sifatlariga e'tibor bergan guruh rahbari tarbiyada yetakchi o`rinni egaliydi.

Shuni ham unitmaslik kerakki, bolaga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g`oyat darajada ko`paydi: oila, keng jamoatchilik, radio, televideniya, kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Guruh rahbarining bolaga tarbiyaviy ta'sir etishdagi yetakchilik, birdamlik rolini tarbiyaviy ta'sirmng bu qadar ko`p tarmoqlari orasida saqlab qolish g`oyat qiyinlashib boryapti. Ba'zan bolaga tarbiyachidan ko`ra o`rtoqlari, qo`shnisi, ko`chadagi do`stlari kuchliroq ta'sir etishi hollariga duch kelamiz. Ammo buning aksi bo`lgan taqdirdagina tarbiyada muvaffaqiyatga erishiladi. Bunga esa tarbiyachining nuqtai- nazari ham o`z ta'sirini ko`rsatadi. Chunki, har bir bolada ma'lum kurtaklar: yaxshilik va poklik bilan bir qatorda salbiy, faollik va passivlik sifatleri mavjud. U munosabatlarga e'tibori jihatidan ham har xil sifatlariga ega. Agar tarbiyachi unga optimistik nuqtai nazardan yondashsa, bola yaxshilikka intilib, uning umidini oqlaydi va aksincha, bolaga oldindan noshud, yalqov, tartibsiz deb qaralsa hamda o`jarlik va terslik bolaning sifati deb hukm chiqarilsa, u holda tarbiyalanuvchi o`zini xuddi shunday qilib ko`rsatadi. Natijada u bu borada ham tarbiyachining «umidini oqlaydi».

Guruh rahbari bolalarni yaxshi bila olishi uchun ulami o'rganish darsda, darsdan tashqari vaqtlarda umuman bolaning hayoti o'tadigan barcha sharoitlarda amalga oshiriladi. Bolani o'rganish bilan guruh rahbari uning individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbari butun guruh jamoasini ham o'rganishi kerak. Guruh rahbari o'ziga berilgan sinfni qabul qilib olishi bilan bolalar haqida ko'pgina ma'lumotlarni aniqlaydi. Bu ma'lumotlar bolaning oilasidan, o'qituvchilaridan, o'rtoqlaridan olinadi va tarbiyaga yagona ta'sir birligi ham shu asosda vujudga keladi.

Guruh rahbarining bosh vazifasi bolalar jamoasi faoliyatini mohirlik bilan boshqarish, o'quvchilar tashabbuskorligini o'stirish, guruh jamoasi faolligi va mustaqilligini tarkib toptirishdan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. O'quvchilar ongli intizom va mas'uliyat hissini sezishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va mohiyatining ahamiyati.

2-savol bayoni

O'quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda guruh rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat:

Bilimga qiziqish va muhabbat uyg'otish.

Bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun raobatlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lish va unga mas'uliyat bilan yondashish.

O'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lishlik ta'limning ijtimoiy, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbarlari o'quvchilarga ularning bosh vazifasi - o'qish ekanligini tushuntirishi kerak. O'qishga mas'uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli - jamoa, o'qituvchilar, ota-onalar va o'z oldidagi mas'uliyat, ularning fikrlari, ma'qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o'quv jamoasida munosib o'rinni egallashga ham tegishlidir.

O'quv madaniyatini oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat hollarda, o'quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Guruh rahbarining va fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o'quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bo'liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik, saranjomlikka o'rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni engish.

O'quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish. Bu degani o'quv mehnatini o'quvchining dam olishi bilan to'o'ri almashtirib borilishidir.

O'qishga o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish.

O'rtoqlarcha o'zaro yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilikning shakllanishiga olib keladi.

Sinf o'qituvchilari bilan hamkorlik.

Guruh rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

Endi bevosita ana shu ishlar mazmuni bilan tanyshib chiqamiz. Guruh rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish nafaqat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy

ahamiyatga ega bo'lgan ish ekanligini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz, butun xalqimiz maktab dargohidan chuqur bilimli, hayotga har tomonlama tayyorlangan kishilarning yetishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida sinf majlislarida, har bir o'quvchi bilan alohida yoki bir guruh o'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda guruh rahbari batafsil gapirib beradi. O'qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil yondashish, katta mas'uliyat bilan qarash kerakligi bolalarga tushuntirib boriladi.

"Bilim - takrorlash mevasidir", degan edi Abu Rayhon Beruniy. Sinfda va uyda ko'p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o'qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi. Bolalarni o'qishga mas'uliyat bilan qarash ruhida tarbiyalash kerak. Guruh majlislarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmun-mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o'quv mashg'ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o'quvchilarga sezilarli ta'sir o'tkazish kerak.

Sinfning o'zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi, bu borada sinf devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo'llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko'p maktablarda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. O'quvchilarga biror bir fan bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda "Harakat qilsang, bu sening qo'lingdan keladi" degan gapni uning qulo'iga quyish kerak. Buni o'quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o'qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To'ovrisini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o'quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo'lishi kerak. O'quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o'rganishga, o'z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o'zi yasayotgan o'quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o'rganadi.

Maktab o'quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir. Maktab hovlisidagi bo'o, tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jarayon - daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o'tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar yetishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyo'tadi. Bu hol ularni botanika, geometriya, geografiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o'rganishga rabat uyo'tadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarning mohir ustalari bo'lib yetishish mumkinmi? Bolalarda ijtimoiy fanlarga qiziqishni orttirish uchun ularni turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Huddi shuningdek, fizika, kimyo, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o'quvchilarda havas uyo'tadigan juda katta hayotiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga boigan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda sinflarni, o'quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyo'tadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyo'tadi.

Bugungi kunda turli fanlar bo'yicha qiziqarli adabiyotlar nashr qilinmoqda: "Mashhur kishilar hayotidan", "Qiziqarli matematika", "Qiziqarli botanika", "Qiziqarli geografiya", "o'simliklar hayoti", "Bizni o'rab turgan olam", "Tariximizga bir nazar" va hokazo. Ilmiy-ommabop turkumdagi bu kitoblar o'quvchilar qo'lga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap. Kitobdan ham yaqinroq do'st, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi bormi o'zi?

O'quv jarayonida fanlar bo'yicha o'zaro bog'lanishga katta e'tibor berish kerak. Bundan o'qituvchi ham, o'quvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar yechish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va o'lchov birliklari qo'llaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda o'rganadigan mavzular bo'ladi, ular da ikkala fan o'qituvchisi ham bir darsda o'z sohalari bo'yicha tushuncha bersalar nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Adabiyot-tarix, mehnat-botanika, tarix-geografiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir.

Bolaning muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongh ravishda yondashish va fan asoslarini o`rganishga havas uyo`otish mumkin bo`ladi.

O`quvchilarning bilish faolligini takomillashtirish uchun to`garak, amaliy masho`ulotlari jarayonidan kengroq foydalanish lozim. Guruh rahbari o`z o`quvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida ma`lumotlar bilan fan o`qituvchilarini tanishtiradi, bolaga qanday munosabatda bo`lish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham bo`ladiki, biror fandan o`zlashtirmayotgan o`quvchi bilan guruh rahbarining o`zi bevosita ish olib boradi. "Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qo`ymaymiz", deb dalda beradi shogirdiga. Kerak bo`lganda, a`lochi o`quvchilarni yoki ushbu fan o`qituvchisini ham ko`makka chaqiradi. Bundan o`quvchini ko`ngli too`dek ko`tariladi, yolo`iz emas ekanligini tushunadi, topshiriqni o`zlashtirishga harakat, havas uyo`onadi.

Bolalarda o`quv mehnatiga javobgarlik va mas`ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas`ullikni sezmagani o`quvchi pala-partish o`qiydi. Mas`ullik kishini sergak torttiradi, o`quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi

Malumki, ongli intizom va mas`uliyat hissini sezish maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

Bolalarning intizomli bo`lishida guruh rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o`rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

Bu ishlarni guruh rahbari bir o`zi emas, balki o`qituvchilar, guruh jamoasi, faollari va otanalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Guruhda intizomni saqlash va joriy qilish faqat guruh rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto`o`ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas`uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko`p vaqt qilingan mehnatni bir paytning o`zidayoq yo`qqa chiqarish mumkin. Masalan, guruh rahbari va ayrim fan o`qituvchilari darslarida bolalar jim, intizomli o`tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o`quv yumushlari bilan band bo`lishadi; ba`zi o`qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qoo`oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o`qituvchi tajanglashadi, o`quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir maktab hayotida uchrab turishi tabiiy.

Nega shunday bo`ladi? Bu holatda o`sha fan o`qituvchisining o`zi aybdordir. Negaki u dastlabki masho`ulotlaridayoq o`z "siri"ni bolalarga oldirib qo`ygan. o`ta ko`ngilchan, so`zlari, harakatlari ta`sirsiz, bo`shang, muloyim, bolalarni o`ziga jalb qilolmaydi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega emas.

Xo`sh natija nima bo`ladi? o`qituvchi o`z kayfiyatini buzadi, jismonan charchaydi, o`quvchilarni uradi, dars maqsadiga erishish u yoqda tursin, darsni to`liq o`tolmaydi, bundan ham yomoni o`quvchilar intizomini buzadi, sinfda tarqoqlikni, boshbosh-doqlikni vujudga keltiradi. Mana, sizga birgina bo`shang o`qituvchining keltirgan ziyoni.

O`quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni maktabga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to`o`ri munosabatda bo`lishga, uy vazifalarini bajarishga, saranjomlikka o`rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash - maktabnino`asosiy vazifasi hisoblanadi.

Sinf rahbarlari huddi shunday holatlarga o`z e`tiborlarini qaratishlari lozim. Butun sinf o`qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo`llikni, guruhda intizomni saqlash, o`quvchilarga bo`lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo`yish lozim. Sharqning faylasuf shoiri Shayx Sa`diy:

Agarda muallim bo`lsa beozor,

Bolalar sinfni qilishar bozor

deb bejiz aytmagan.

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda bolalarning partada qimirlamay o`tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko`pgina o`qituvchilar o`zicha intizom o`matmoqchi bo`ladilar. Sinfga qosh-qovoo`idan qor yoo`dirib kiradilar, dao`dao`a qilib

bolalarni siquvga oladilar, gah desa qo'lg'a qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu muro'ak qalblarga adovat uruo'ini sochadi, ulami sovuqqon, qo'rqqoq, juriatsiz, yolo'onchi, ozurda qilib qo'yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o'quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizo'in, ijodiy, ko'rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyo'otish, lol qoldirish, dars o'tilgach birorta ham o'quvchini "beish" qoldirmaslik - har biriga o'ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Intizomli bo'lish nafaqat maktabda, balki o'quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. Chunki, inson hayotining chigal va murakkab so'qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

Nazorat savollari:

1. O'quvchilar ongli intizom va mas'uliyat hissini sezishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va mohiyatining ahamiyati.
2. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari.

3-savol bayoni

Guruh rahbari o'z o'quvchisini doimo o'rganib borishi uchun faqat o'quvehilar bilangina emas, balki o'qituvchilar bilan, o'quvchilaming ota-onalari bilan ham ish olib borishi kerak. Sinf xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Guruh rahbarining ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridan foydalanish va bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ulami har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtiarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishini, to'garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Bolalarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlamini singdirishi talab etiladi.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbari o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

- yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqmng boy milliy, ma'naviy tarxiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish;
- shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratish;
- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, ularda reja va amal birligi hissini uyo'otish;
- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;
- har bir o'quvchining bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlaryaratish;
- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, bir-birini tushunadigan, mehribonlik,

shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitish-larga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolo`onchilik, tuxmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo`llanilishi lozim;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yasha-yotgan odamlar bilan o`zaro munosabat - muloqotni o`rganish, o`z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo`lib turish, o`zbekiston Resublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni o`zbekiston Konstitutsiyasiga, bayroo`iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi

fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o`zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;

- mustaqil respublikamiz o`zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga to`o`ri va holisona baho berishga o`rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ochiq-oshkora tashqi siyosatiga va o`z xalqining turmush darajasini oshirishga yo`naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to`o`ri tushuntirmo`i kerak.

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

- soo`lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo`lish istagini shakllantirish;

- yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o`rgatish;

- barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o`rgatish;

- o`zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo`llash malakalarini shakllantirish;

- insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-axloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;

- marakaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlaridagi hikmat, o`git va nasihatlarini o`rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

- tabiatga to`o`ri munosabatning mohiyatini, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo`yicha bilimlar berish;

- ota-ona va vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

o`z-o`zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va hurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilini saqlash, ma'naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

- yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo`lish, yaxshini yomondan ajrata olish bilimiga ega bo`lishini tushuntirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

- o`quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o`rgatish;

- darslarda ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;

- odob-axloqqa xos sifatlarni o`quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

- o`quvchilarda mehnat ko`nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;

- axloqiylikning oddiy hayotiy qoidalari bo`lishi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini e'zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi.

Bolalarni tarbiyalashda o`qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

- tarbiyaning o`quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini;

- o`quvchilarning aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'sirini o`rganish;
 - o`qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san'at va mahorati.
- o`quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o`yin, tabiatda, bahs-munozara, uchrashuv shaklida bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari:

1. O`quvchilar ongli intizom va mas'uliyat hissini sezishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va mohiyatining ahamiyati.
2. O`quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari.

4-savol bayoni

Pedagogik texnologiyalarni qo`llashda o`qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik - ta'lim-tarbiya amaliyotga asoslangan tajriba, sinovdan o`tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy etish.
2. Tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish.
3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o`rganib borish.
4. Tarbiya jarayonida o`quvchi bilan o`quvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.
5. Ilmiylik - yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o`quvchilarni mustaqil fikrlash va o`zini anglashga o`rgatish.
6. Bolalarni rejadagi mavzular asosida amaliy faoliyatga jalb etish.
7. Ilo`or tajribalarga suyanish.
8. Tarbiyaning maqsadini aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o`quvchining ijodiy mustaqil faoliyati, tarbiya jarayonida maqol, matal, ertaklardan o`rinli foydalanish, o`yin, test savollari, ko`rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.
9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o`qituvchi nazariy chuqur bilimlarga ega bo`lishi kerak.

1-4- sinflarda darslarni turli shakllarda tashkil etish lozim:

- o`yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joylarda, mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyli va zamonaviyligi bilan dardob-axloq tushunchalarini tarbiyalashga qaratilishi.
- o`quv masho`ulotining rang-barang usullar: audio, video, ko`rgazmalilik, jonli so`z ta'sirida tashkil etilishi.

- o`qituvchini yangi texnologik mahoratga ega bo`lishi va ijodkorligi.

Tarbiyaviy soatlarni maqsadiga ko`ra xilma-xil shakllarda tashkil etish:

- ijodiy dars,
- ertalik darsi,
- baxs,
- suhbat,
- sayohat darslari,
- uchrashuvli dars.

Yangi o`quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televidenie, ma'naviy o`yinlar, mushoiralar qo`llanilishi mumkin. Kishilik jamiyatining har bir sohasi, u yoki bu ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishi xalq o`zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarida, afsona, doston, ertak, hissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikrli, dono, ma'rifatparvar, mutafakkirlarimizning asarlarida atroflicha talqin etilgan. O`quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asarlardan keng foydalanish mumkin.

Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlar o`qituvchi tarbiyachilar, sinf rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalariga muvofiq ravishda tashkil

etadilar. O'qituvchi o'z harakatlarini va ota-onalarining harakatlarini bu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratishi lozim. Odatda, buning uchun bolalarning oiladagi hayot sharoitlarini o'zgartirish, tarbiyalanuvchilarda noto'qri hatti-harakatni keltirib chiqaruvchi sabablarin yo'qotish talab etiladi. Bu esa Darsdan tashqari vaqtdagi ishlarni tashkil qilish, sinfda o'quvchilar intizomini mustahkamlash guruh rahbari zimmasiga bir qator vazifalarni yuklaydi. Biz o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning forma va metodlari mavzusidagi kurs ishini bajarish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik;

- yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqmng boy milliy, ma'naviy tarxiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish;

- shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratish;

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, ularda reja va amal birligi hissini uyo'otish;

- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

- har bir o'quvchining bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlaryaratish;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitish-larga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolo'onchilik, tuxhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanilishi lozim;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yasha-yotgan odamlar bilan o'zaro munosabat - muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, o'zbekiston Resublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni o'zbekiston Konstitutsiyasiga, bayrog'iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalarga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

- marakaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlaridagi hikmat, o'git va nasihatlarini o'rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

- o'quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish;

- kichiklarga izzat, oilada bir-birini e'zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi.

Shuningdek, o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o'yin, tabiatda, bahs-munozara, uchrashuv shaklida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari

1. Tarbiyaviy soatlarning maqsadiga ko'ra xilma-xil shakllarini tashkil etish yo'llari.
2. O'quvchilarni mustaqil fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ta'limiy-tarbiyaviy ma'nodagi teleko'rsatuvlar, ma'naviy-ma'rifiy o'yinlar, mushoira kabi tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish samarasi.

Adabiyotlar:

21. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
22. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
23. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
24. Abdiqudusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
25. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

11-MA'RUZA.

GURUH RAHBARI ISHINI REJALASHTIRISH VA UNI HISOBGA OLISH

Asosiy savollari

1. Guruh rahbarining ta'lim muassasasi va o'quvchilar tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ish faoliyati.
2. Uning faoliyatini rejalashtirish kasbhunar kollejlari hamda "Kamolot" uyushmasi ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog'liq.
3. Guruh rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olishning o'ziga xos xususiyati.
4. Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy sharti.
5. Reja guruh rahbarining tarbiya berish faoliyati. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish va hisobga olishga qo'yiladigan asosiy metodik talablar

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Guruh rahbari ishini rejalashtirish, rejaga qo'yiladigan talablar, Guruh rahbarining guruh jamoasi ishini tahlil qilishi, rejaning manbai. Rejaning shakl va yo'nalishlari.*

1-savol bayoni

Guruh rahbari o'z ishlarini maktab ma'muriyati rahbarligi va bolalar tashkilotlari bilan hamkorlikda olib boradi. SHuning uchun uning faoliyatini rejalashtirish umummaktab hamda bolalar va o'smirlar, «Kamolot» jamarmasi ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bolangandir.

Guruh rahbari ishini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etadilar, biroq unga Guruh rahbari boshchilik qiladi. Guruh rahbarlari oldida juda qiyin vazifa tarbiyaviy maqsadlarda o'ylangan har bir narsani bolalar o'zlarining shaxsiy fikr va oylari sifatida qabul qilishlariga erishish vazifasi turadi.

Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy shartidir. Rejasiz ish olib borgan sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va uslublari o'lda-jo'lda, tarqoq, noaniq, tasodifiy holatlarda bo'ladi va ko'r-ko'rona harakat qilishga olib keladi. Bunday taqdirda tarbiyaning asosiy vazifalarini hal etish qiyinlashadi, ba'zan esa butunlay samarasiz bo'ladi. Reja Guruh rahbariining tarbiya berish faoliyatini to'ri tashkil etish uchun juda katta imkoniyatlar ochib beradi.

Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy uslubiy talablar nimalardan iborat

Guruh rahbarlari o'tkazilayotgan ishlarni hamda ularning o'quvchilar tarbiyasiga ko'rsatgan ta'sirini har kuni tahlil qilishlari, o'zlari erishgan yutuqlari va muvaffaqiyastizliklari sabablarini tushunishga harakat qilishlari, jamoasining rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarni qayd qilishlari kerak. SHunday qilib, rejalashtirishning har bir bosqichiga tayyorlanish muntazam olib boriladi. Jamoani va ayrim o'quvchilarni o'rganish yuzasidan

olib borilgan barcha ishlar yakunida sinfga pedagogik tavsifnoma yoziladi. Mazkur tavsifioma guruh jamoasini o'ziga xos aniq xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Har bir guruh rahbari o'z-o'zini boshqarishning saylab qo'yiladigan o'quvchilar qo'mitasi hamda bolalar va yoshlar tashkilotlari bilan birga ishlab, guruh jamoasiga rahbarlik qilish yuzasidan olib boriladigan amaliy ishlarda bu talabni ro'yobga chiqaradi.

Tajribali guruh rahbarlari o'zining kuzatishlari va xulosalarini alohida varaqlarga qisqacha qilib yozib boradi. Bular maxsus jildlarda saqlanadi. To'plangan ma'lumotlar o'quvchilar jamoasi hayotini, uning erishgan yutuqlari va kamchiliklarini keyinchalik tahlil qilish uchun xizmat qiladi.

Guruh rahbari o'quv yili oxirida guruh jamoasi ishini tahlil qilishga alohida e'tibor beradi. Bunda rejada belgilangan vazifalarni qanday hal etilganligini, sinf ijtimoiy hayotida qanday ishtirok etganligini, mamlakatimizdagi va chet ellardagi voqealarga qanday qaraganligini, amalga oshirilgan ishlardan qaysilari muvaffaqiyatli bo'lgan va an'anaga aylanishi kerakligini, o'quvchilar o'rtasida qanday munosabatlar vujudga kelganligini, sinf faollarining tashabbuskorligi, mustaqilligi, obro'-e'tibori va boshqa masalalarni atroflicha tahlil qilish muhimdir.

Guruh rahbari tajriba orttirgan sari ancha murakkab masalalar bilan qiziq boshlaydi. Uni sinfdagi ishlar qanchalik muvaffaqiyatli o'tgani emas, balki ular o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatgani, sinfning ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etishi emas, balki ishtirok etish sabablari qiziqtiradi.

SHuni nazarda tutish kerakki, Guruh rahbari o'z guruh jamoasi oldiga qo'yadigan aniq tarbiyaviy vazifalari dastlabki vaqtlarda uncha murakkab bo'lmasligi mumkin.

Masalan, guruh rahbari sinfga kelgandan so'ng deyarli hamma o'quvchilar yaxshi ishlashini, lekin ularning bir-biri bilan aloqasi yo'qligini aniqladi. Bunday sinfdagi shunday bir ish topish kerakki, bu ish hamma o'quvchilarni yagona maqsadga olib borsin. Bolalarga bu vazifa – maktab hovlisida hashar o'tkazib, ekinlarni parvarishlash kerak, o'z mazmuniga ko'ra juda oddiy bo'lgan bu topshiriq o'quvchilarda qiziqish uyotadi, ular da temir-tersak yiishda bir-birlari bilan musobaqalashib, uni tezroq bajarish ishtiyoqini hosil qiladi.

Boshqa bir Guruh rahbari o'z ishlarini tahlil qilib chiqib, shunday xulosaga keldi: sinfdagi ko'p ishlarni o'zi bajaradi, o'quvchilar esa shaxsiy hayot egalari bo'lib emas, balki ko'pincha ishning ijrochilari bo'lib qoladilar. SHuning uchun u o'quvchilarning tashabbus va mustaqilligini rivojlantirish, barcha o'quvchilarni sinf ijtimoiy faoliyatiga jalb etish va har bir o'quvchida o'ziga yoqadigan ish bo'lishga erishish vazifasini qo'ydi. SHunday vazifa qo'ygach, Guruh rahbari o'quvchilarning ko'pchilik qismini zarur malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish uchun o'z diqqat-e'tiborini sinf faollarini tarbiyalashga qaratish kerakligini tushunadi.

Ana shu tahlilida izchil ish olib borilsa, tarbiyaviy vazifalar o'quvchilar uchun qiziqarli, istiqbolli vazifalarga aylanadi.

Guruh rahbari turli rejalar tuzib olishi mumkin: kelajakka mo'ljallangan, ya'ni istiqbolli (yillik, bir necha yillik) va muvaqqat (oylik, haftalik, kunlik).

Xo'sh rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo'lishi kerak

Bosh manba – hukumatimizning farmon va qarorlari, prezidentimiz I.Karimovning qator risolalari hamda xalq ta'limi tizimining rasmiy yo'l-yo'riqlari, hujjatlari hisoblanadi.

Rejaning yana bir muhim manbai – o'tgan o'quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlilidir.

Reja quyidagi bir qator talablarga javob berishi kerak:

1. Rejaga Istiqbolli oylarini singdirish.
2. Rejaning shakl va yo'nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo'lishi.
3. Reja uzluksiz va izchil bo'lishi.
4. Rejaning aniqligi.

Ushbu talablarning qisqacha mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Nazorat savollari:

1. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy uslubiy talablar nimalardan iborat?
2. Guruh rahbarining tarbiyaviy rejasining asosiy manbalarini ayting?

2-savol bayoni

Barcha tarbiyaviy vazifalar maktab oldiga qo'yilgan asosiy maqsadni – o'quvchilarni har tomonlama, «Solom avlod uchun» dasturi asosida ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, ularni hayotga, mustaqil davlat qurilishiga faol qatnashishga tayyorlash maqsadini amalga oshirishga qaratilmo'i darkor.

«Har qanday ulu maqsadlarga etishish yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodga bolidir, – degan edi prezidentimiz I. Karimov.

Guruh rahbari oyaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirishda bolalarni faqat kitobiy bilimlar bilan emas, balki amaliy, hayotiy tajribalar bilan qurollantirishni nazarda tutishi zarur. Bu ma'ruzachilar, siyosiy maktablar, siyosiy klublar va hokazolarni tashkil qilish mo'ljallanayotgan vaqtda o'quvchilarning o'z oyaviy e'tiqodlarini qay darajada ekanligini sinab ko'rishga imkon beradigan vaziyatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadi. Bu ishlarni munozaralarda, bahslarda, ozaki va yozma jurnalarda, mehnat harakatlarida, bayramlarda, bolalar va yoshlar tashkilotlari ishlarida, tabiatni, hayvonot dunyosini, tarixiy yodgorliklarni qo'riqlash kabi rang-barang tadbirlarda amalga oshirish mumkin.

Axloqiy va vatanparvarlik tarbiyalariga istiqbol ruhi tom ma'nosi bilan singib ketgan bo'lishi kerak. Ba'zan ayrim guruh rahbarlari ish faoliyatida ko'ngilochar o'yinlarni ko'proq o'tkazish an'anasi ko'zga tashlanadi. Rejalashtirishda shuni nazarda tutish kerakki, u o'yinmi, u ishmi biror maqsadga qaratilganligiga, uning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Guruh rahbarining tarbiyaviy rejasining asosiy manbalarini ayting?
2. Guruh rahbari ish rejasining asosiy bo'limlarini sanang?
3. O'quvchilar jamoasi bilan ishlashning mazmunini yoritib bering?

3-savol bayoni

Rejaning shakl va yo'nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo'lishi. Tarbiyaviy ishning xilma-xil shakl va uslublari bo'yicha ish olib borish tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar uchun yanada rang-barang va qiziqarli tarzda olib borishga yordam beradi. Rejada o'quvchilar bilan faqat umumiy holda emas, balki shu bilan birgalikda bolalarning qiziqishlari va mayllarini hisobga olgan holda ham ish yuritishni nazarda tutish muhimdir.

Reja uzluksiz va izchil bo'lishi. Rejada belgilanadigan tarbiyaviy tadbirlar yagona tarbiyaviy jarayonning tadrijiy bo'laklaridan iborat bo'lmo'i kerak. Har bir tadbir o'zidan oldingi tadbirning davomi bo'lishi va erishilgan tarbiya natijalariga asoslanishi lozim. Bu uzluksizlik va izchillikni ta'minlaydi, erishilgan yutuqlar, qimmatli ko'nikmalarni yo'qolib ketishdan saqlaydi.

Rejaning aniqligi. Rejaga bajarib bo'lmaydigan ishlarni kiritmaslik kerak. Ishni rejalashtirishda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish lozim. Rejada hamma narsa: ish vaqti, joyi, mas'ullar aniq bo'lsin.

Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjatdir. Uni amalga oshirish uchun Guruh rahbari shaxsan mas'uldir. «Guruh rahbari haqida Nizom»-da: «Guruh rahbarining ishi reja asosida olib borilishi lozim» deb belgilab qo'yilgan.

Guruh rahbari umummaktab ish rejalari, bolalar etakchisi, «Kamolot» jamarmasi kotibi ish rejalari bilap tanishib, direktor o'rinbosarlari, sinf o'qituvchilari, sinf faollari, ota-onalar bilan fikrlashib, ularning qimmatli takliflarini hisobga olgan holda ishning nstiqbolli rejasiii tuzadi.

Ishning istiqbolli rejasi guruh jamoasi tomonidan to'plangan tajribaga qarab va Guruh rahbarining o'z vazifalariga muvofiq ravishda bir yoki bir necha yilga tuzilishi mumkin.

Nizomda «Sinfning yillik ish rejasi tuziladi. Uni tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tasdiqlaydi» deyilgan.

Rejaning ifodalash shakli juda oddiy bo'lgani ma'qul: ishning nomi, bajarish muddati, mas'ul kishi. Reja qisqa va aniq bo'lishi kerak. Bo'lar-bo'lmas ishlar ro'yxatini qalashtirib, qappaygan reja tuzishga berilib ketmaslik kerak. Rejaga faqat hayot ilgari surgan va o'quv yili davomida muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlarigina kiritmoq lozim. Kiritilgan tadbirlar ham biri bodan, biri todan olib yozilmasligi, balki ular tarbiyaviy ishlar tizimida bir-biri bilan bolangan, bir-birini to'ldiradigan holda bo'lishi zarur.

Reja bola shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Biz quyida Guruh rahbari ish rejasining asosiy bo'limlari va mazmunini beramiz:

I. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash. O'quvchini o'rganish (o'quvchi haqida ma'lumot to'plash, uning aqliy, jismoniy, ruhiy rivoji, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini, tarbiyalanganlik, jamoatchilikka intilish darajalarini diagnostik dasturlar asosida o'rganish), guruh jamoasini o'rganish (o'quvchilar soni, jinsi, millati, yoshi, rasmiy va norasmiy liderlar, ilorlar, qoloqlar, intizomsiz va tarbiyasi qiyin bolalar, ularning sinfga ta'siri, sinfning jamoatchilik topshiriqlariga munosabati, sinfning tarbiyalanganlik, jipslik, rivojlanganlik darajalarini diagnostik dasturlar asosida o'rganish), guruh jamoasini tashkil etish va yo'naltirish (tashkiliy ishlar, sinf faollari bilan ishlash, umumiy ishlar ustidan nazorat, bolalarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish, navbatchilikni, o'zaro yordamni yo'lga qo'yish, gazeta tahririyati bilan ishlash, kasalmand va nogiron bolalarga amxo'rlik, vaqtli matbuot nashrlariga yozilish, mehnat harakatlarida qatnashish, sinf mulkini saqlash, kundalik rejimga bo'ysunish va hokazolar).

II. Bolalar va o'smirlar uyushmasi («Kamolot» jamarmasi) bilan birgalikda olib boriladigan ishlar. Ushbu bo'limda bolalar Etakchisiga, «Kamolot» jamarmasi kotibiga ularning tarbiyaviy ish faoliyatlarida beriladigan yordamning aniq shakllari ko'rsatiladi.

III. Sinf o'qituvchilari bilan ishlash. Darslarda o'quvchilarni o'rganish (o'quvchining darsda o'zini tutishi, ularning o'zlashtirmasligi, bilimdagi nuqsonlar, xulqi), o'quvchilardagi bilim ko'nikmalarini aniqlash (o'quvchilar kundaliklari, daftarlarini ko'rib chiqish, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'quvchilarning o'quv ishlarini kuzatish, darsliklar, ma'lumotnomalar, jadvallar va hokazolar bilan ta'minlanish ahvolini o'rganish, nutq madaniyati, uyga vazifa, kasb tanlash masalalari bilan qiziqish), o'quvchi-o'qituvchi munosabati (o'quvchi bilan o'qituvchining chiqishimligi, o'qituvchiniig pedagogik odobga, pedagogik talablarning bir xilligiga erishishi masalalari), o'zaro yordamni tashkil etish (qoloq o'quvchilarni aniqlash, fan o'qituvchisi bilan birgalikda uning saablarini tahlil qilish va tegishli tadbir belgilash, a'lochi o'quvchilardan o'zaro yordam harakatini uyushtirish), o'qituvchilarga yordam berish (o'quvchilar haqida tegishli ma'lumotlar, maslahatlar berish, fanga oid tadbirlarni o'tkazishda ko'maklashish).

IV. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish.

Bunda aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy va boshqa tarbiyalar bo'yicha belgilangan ishlar va tadbirlar, kasb gaplash ishlari (kasblar ro'yxatini tuzib chiqish, kasb haqida burchak tashkil qilish, mehnat ahillari bilan uchrashuvlar, o'quvchilarga anketalar tarqatish, javoblarni tahlil qilish, qiziqishlar kartasini to'ldirish, kasb haqida insho yozdirish, o'quvchilarning texnik ijodiyoti ko'rgazmasini tashkil qilish, sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish), fan o'qituvchilari bilan birgalikda adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish, o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat uyushtirish, sinfda adabiy ko'rgazma tashkil qilish, kutubxona bilan aloqa bolash va hokazolar), sinfda ko'rgazmali tashviqot ishlari olib borish (sinf burchagi, devoriy gazetalar, varaqalar chiqarish, sinfni mazmunli bezash, ekologik burchak tashkil etish va hokazolar).

V. Ota-onalar bilan ishlash. Bu bo'limda oilalarni o'rganish (oilaning ijtimoiy ahvoli, o'quvchiga yaratilgan shart-sharoitlar, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganish), ota-onalar faollari bilan ishlash (ular yordamida va ishtirokida bolalar tarbiyasiga oid turli-tuman

ishlar rejasini tuzish, ular tomonidan ba'zi oilalarga ko'mak va ta'sir o'tkazish), ota-onalarning tarbiyaga oid bilimlarini oshirish (ota-onalar majlislari, dorilfununlari tashkil qilish, yaxshi oilalar tashviqoti bilan shuullanish, o'zaro tajriba almashish).

Keltirilgan reja tartibini majburiy deb qaramaslik kerak. Guruh rahbarlari ish rejasi turlicha tuzilishi va har xil shaklda bo'lishi mumkin. Bu guruh rahbarlarining ish saviyasi, tajribasi, o'z kasbiga qiziqishi, har xil sinflarda ish sharoitlarining turlichaligiga bolliqdir. SHuni nazarda tutish lozimki, ish rejasi qaysi shaklda bo'lishdan qat'i nazar, tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari mazkur rejaning muhim bo'limlaridan biri bo'lishi shart.

Ish rejasini tuzish va uni hayotga tadbqiq qilish ishlariga o'quvchilar va ota-onalar faollarini jalb qilish kerak. Avvalo ular alohida topshiriqlarni, asta-sekin esa rejada ko'rsatilgan keng hajmdagi ishlarni amalga oshiradi.

Rejaga kiritiladigan ish va tadbqirlar, ularning mazmun-mohiyati, amaliyotga tadbqiq qilish haqida mazkur kitobning tegishli bo'limlarida atroflicha fikr yuritilgan. .

Nazorat savollari:

1. Guruh rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy uslubiy talablar nimalardan iborat?
2. Guruh rahbarining tarbiyaviy rejasining asosiy manbalarini ayting?
3. Guruh rahbari ish rejasining asosiy bo'limlarini sanang?
4. O'quvchilar jamoasi bilan ishlashning mazmunini yoritib bering?

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqususov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

12-MA'RUZA.

TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TASHKILOTCHINING ISH METODIKASI

Asosiy savollari

1. Tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari.
2. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi.
3. Tarbiyaviy ishlarnitashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilishi asosiga qurilgan kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar Kontseptsiyasi, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish, guruh rahbarlari, tarbiyachi va tashkilotchi, pedagogik rahbarlik, o'quvchilar jamoasi.*

1-savol bayoni

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida hukumat qarorlarida, xalq ta'lim tizimidagi islohotlarda, olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

Jumladan, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar Kontsepsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati, alohida ta'kidlangan: yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillari g'oyalar, ish uslubiyatlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini qaytadan qurmoq lozimdir.

Chunonchi, Prezidenimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» nomli risolasida shunday deb yozgan edi:

“Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim-tarbiya olishiga bog'liq”⁴

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy istiqloq ma'krasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan birgalikda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondashmoqdalar.

Darsdan tashqari tashkil qilingan ishlar O'zbekiston Respublikasi istiqloq taraqqiyotining tamoyillari talablariga asoslanib olingan bo'lib, uning mezonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mahorati va qoidalari ham o'z aksini topgandir. Chunonchi, bo'lajak avlodga: hur-fikrlik, milliy iftixor, milliy qadriyatlarga hurmat, erkinlik va ozodlik, insonparvarlik, birodarlik va hamkorlik, ilmga mehr-muhabbat, imyon va e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, madaniy merosga hurmat, adolatparvarlik va ozodlik, ijodkorlik va tashabbuskorlik, mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish g'oyalari gadoqat, Prezident va davlatni kadrlash kabi sifatlarni tarbiyalash tarbiyaviy tadbirlarni yangicha yo'nalishda tashkil etishning asosiy g'oyalari dir.

Darsdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

O'rta umumta'lim maktablarida darsdan tashqari ishlarni guruh rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi.

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish. Bunda aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy va boshqa tarbiyalar bo'yicha belgilangan ishlar va tadbirlar (turli tadbirlar, rolli o'yinlar,) kasb tanlash ishlari (kasblar ro'yxatini tuzib chiqish, kasb haqida burchak tashkil qilish, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, o'quvchilarga anketalar tarqatish, javoblarni tahlil qilish, qiziqishlar xaritasini to'ldirish, kasb haqida insho yozdirish, o'quvchilarning texnik ijodiyoti ko'rgazmasini tashkil qilish) darsdan tashqari o'qishni tashkil qilish (fan o'qituvchilari bilan birgalikda adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish, o'qilgan asarlar yuzasidan davra suhbatlari uyushtirish, sinfda adabiy-badiiy ko'rgazma tashkil qilish, maktab axborot resurs markazi bilan uzviy aloqa bog'lash va hokazolar), sinfda ko'rgazmali tashviqot ishlari olib borish (sinf burchagi, devoriy gazetalar, varaqalar chiqarish, sinfni mazmunli bezash, ekologik burchak tashkil etish va hokazolar).

Jumladan, darsdan tashqari o'qishni tashkil qilish o'quvchilarda adabiyotga mehr uyg'otadi. Hatto hadislarimizda ham, “Ilm ibodatdan ustundir” deyiladi. Mahmud Qoshg'ariy “Devoni lug'ati-turk” asarida “Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so'zlarini tingla, ilmlarini, hunarlarini o'rganib amalga oshir” deya ta'kidlaydi.

Ota-onalar bilan ishlash. Bunda oilalarni o'rganish (oilaning ijtimoiy ahvoli, o'quvchiga yaratilgan shart-sharoitlar, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganish), ota-onalar faollari bilan ishlash (ular yordamida va ishtirokida bolalar tarbiyasiga oid turli-tuman ishlar rejasini tuzish, ular tomonidan ba'zi oilalarga ko'mak va ta'sir o'tkazish), ota-onalarning tarbiyaga oid bilimlarini oshirish (ota-onalar majlislari tashkil

⁴ И.А.Каримов”Юксак маънавият-енгилмас куч”Тошкент, Маънавият 2008

qilish, yaxshi oilalar tashviqoti bilan shug'ullanish, o'zaro tajriba almashish).

Keltirilgan reja tartibini majburiy deb qaramaslik kerak. Guruh rahbarlari ish rejasi turlicha tuzilishi va har xil shaklda bo'lishi mumkin. Bu guruh rahbarlarining ish saviyasi, tajribasi, o'z kasbiga qiziqishi, har xil sinflarda ish sharoitlarining turlichaligiga bog'liqdir. Shuni nazarda tutish lozimki, ish rejasi qaysi shaklda bo'lishdan qat'i nazar, tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari mazkur rejaning muhim bo'limlaridan biri bo'lishi shart.

O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi. Maktab tashqaridagi ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarini o'rganadilar.

Tarbiyachi va tashkilotchining vazifasi darsdan tashqari faoliyatida har bir o'quvchining faolligini va mustaqilligini namoyon qilishga imkon beruvchi mashg'ulotlarni topa olishini ta'minlashdir. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda guruh rahbarlari va tashkilotchilar o'quvchilarning xilma-xil faoliyati turlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Aynan faoliyatda tarbiya tomonlarining uzviy aloqasi sodir bo'ladi hamda shaxsning bir butun kamol topishi amalga oshadi. Faoliyat tuzilishida, uning bo'g'inlarida tarbiyachi bolalar bilan ishlaganda faol foydalanadigan tarbiyaviy imkoniyatlar mavjud.(etakchi faoliyat)

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda va faoliyat turini tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini tashkil etishda bu yoshning yosh xususiyatlari: harakatchanlik, faollikka intilish, tafakkur xususiyatlari, ta'sirchanligi, taqlidga moyilligi, diqqatining beqarorligi, ixtiyorsiz diqqatning ustunligi va h.k. bu yoshda tajriba to'planib boriladi(etarli tajribaga ega maslik, shu sababli pedagogik rahbarlikka ehtiyoj), shuning uchun bolalar hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlariga kirishadigan faoliyat turlarini tanlash muhimdir.

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruh rahbari va maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, guruh rahbarlari, etakchi ota-onalar qo'mitasi, ish rejalari ishini ham e'tiborga olinishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari.
2. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi.

2-savol bayoni

Ish reja maktab direktori tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida bolalarning yosh xususiyatlari, maktabning joylashgan shart-sharoiti, ijodiy birlashmalari, ilmiy markazlar bilan o'zaro o'rnatilgan aloqasi kabi ishlar inobatga olinadi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berib boriladi.

2.Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish guruh rahbari va tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Bu kabi tarbiyaviy uzviylikni ta'minlashda va amalga oshirishda darsdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Darsdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.
2. O'quvchilarning darsdan tashqari ko'p qirrali ishlarini o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.
3. Darsdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, guruh rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.

4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.
5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: Tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shu o'rinda tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.
2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.
4. Darsdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning darsdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki darsdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar.

Guruh rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning etakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Guruh rahbarlari, tarbiyachilar, darsdan tashqari ishlar tashkilotchisi darsdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanadi:

1. Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kitobxonlar konferentsiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, gazeta va jurnallar.
2. Amaliy ish olib borish usullari: turli joylarga sayyohatlar, sport musobaqalari, olimpiadalar, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar.
3. Ko'rgazmali ish usullari: maktab muzeylari, mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari, davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan kishilar bilan uchrashuvlar.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Guruh rahbarligi kursi bilan maktabdan va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli metodik qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Darsdan tashqari ishni rejalashtirishda bolalarning yosh xususiyatlari, maktabning joylashgan shart-sharoitlari, ijodiy birlashmalari, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi jihatlarni

inobatga oladi. Tashkilotchining faoliyati o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi.

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar etakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda darsdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha adabiyotlar, laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;

- tajribalar, ijodiy tushdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orish, ya'ni singdirish kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an'analarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasidir.

Darsdan tashqari ishlar o'z mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'lib, uch xil shaklda olib boriladi:

1. Ommaviy shakllar: ertaliklar, maktab kechalari, bolalar bayramlari, ko'riklar, quvnoqlar va topqirlar klubi, sayrlar, sinf va maktab muzeyi.

2. Darsdan tashqari individual shakllar: eng yaxshi kitoblarni targ'ib etish, o'simliklar o'stirish, sabzavotlar etishtirish.

3. To'garak shakllari: maktabdagi har bir to'garak o'zining doimiy ish kunlari va soatlariga ega bo'lishi lozim. To'garak mashg'ulotlariga kechikmasdan kelish, to'garak topshiriqlarini bajarib kelish, to'garakning moddiy boyliklarini ehtiyot qilish.

Darsdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

To'garak turlari:

1. Fan to'garaklari.

2. Mohir qo'llar.

3. Duradgorlik.

4. Sport musobaqalari.

5. Badiiy havaskorlik.

Bunda asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. To'garaklarga qatnashish bolalarga zavq-shavq bag'ishlashi bilan birga ularni ijtimoiy-foydali mehnatga o'rgatadi. Beruniy "Badanni dangasalikdan qutqarish kerakdir, chunki dangasalik, yalqovlik odamni buzilishga, kasalliklarga chalinishga olib keladi"deya ta'kidlaydi. Shunday ekan, bolalarning bunday to'garaklarda

Nazorat savollari:

3. Tarbiyaviy ishlarnitashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilishi asosiga qurilgan kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar.

3-savol bayoni

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak. Maktabdan tashqari ta'lim o'quvchilarning hohishlariga

asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarda o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasini shakllantirish
2. Estetik ta'lim;
3. Sayyohlik yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'garaklar;
5. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy yo'nalishi bo'yicha;
6. Xuquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha;
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha;
8. Istiqloq bolalari va iste'dodli yoshlar;
9. Iqtisodiy ta'lim.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa bola shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar.

To'garakda bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu erda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnastevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng kata imkoniyatga egadir.

O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda to'be mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud bo'ladi. Guruh rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko'pincha guruh rahbarining yordamini so'rab murojaat qiladilar, kuchli o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar. Bunday o'quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo'lib qolsa, u o'quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

Maktabdan va darsdan tashqari ishlar o'quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatleri jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilish mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini etiborini o'rganishi kerak.

O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablari:

1. Darslarga to'liq qatnashish.
2. O'quv qurollari bilan ta'minlanganligi.
3. O'qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.
7. Tozalikka rioya qilish.

Darsdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo'qqa chiqaradi.

Darsdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning hatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yish mumkin emas.

Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir. Xuddi shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, guruh rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymasin, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin.

Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir.

Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish darsdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga homaki yozuv bilan ishlash xuquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrlashi qanday borganligini ko'rsatadi.

Darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar va shu bilan pedagogga muayyan ma'lumot beradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, darsdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Atoqli pedagogimiz A.Avloniy aytganlaridek: Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat -yo falokat masalasidir.

Nazorat savollari:

4. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda to'garaklarning o'rni: fan to'garaklari, hunarmandchilik to'garaklari, sport musobaqalari, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshq.

Adabiyotlar:

26. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.

27. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.

28. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.

29. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..

30. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

13-MA'RUZA.

TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TASHKILOTCHINING KASBIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA UNING HUQUQLARI

Asosiy savollari

1. Direktor o'rinbosarining kasbiga qo'yiladigan talablar.

2. Direktor o‘rinbosarining huquqlari va vazifalari.
3. Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining qobiliyati va ishbilarmonligi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *Darsdan tashqari tashqari ishlarga rahbarlik qilish, tashkilotchilarning vazifalari, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, guruh rahbarlari, ota-onalar, sinf faollariga uslubiy yordam ko‘rsatish.*

1-savol bayoni

Direktor o‘rinbosarining kasbiga qo‘yiladigan talablar.

Direktor o‘rinbosari o‘quvchilarga nisbatan mehr va muhabbat, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo‘lgan holda ish tutib, muntazam o‘z ustida ishlab, sabr-bardoshli bolib, o‘z fikrlarini puxta bayon qilib, o‘zgalarni o‘ziga jalb qila oladigan xislatlarni o‘ziga mujassamlaydi.

Davlat va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan barcha hujjatlar mohiyatini, Prezident asarlarini yaxshi bilishi, uni o‘quvchi-yoshlar orasida targ‘ib eta olishi, xalq pedagogikasi an‘analarini, o‘zbek xalqi milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, allomalar o‘gitlarini yaxshi bilishlari lozim. Shuningdek, u:

1. mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi va doimo uni o‘z faoliyatida hisobga olishi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari hamda yangicha usul va metodlarini yaxshi bilishi;
2. radio, televidenie va ommaviy axborotning boshqa vositalari orqali berilgan eng so‘nggi yangiliklardan boxabar bo‘lishi hamda ularning mohiyatini o‘quvchilarga etkaza olishi;
3. darsdan tashqari tadbirlarni tayyorlash va o‘tkaza bilishi;
4. -tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi;
5. -maktabda o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borayotganlarga metodik tavsiyalar berib borishi;
6. -muntazam ravishda o‘z malakasini oshirib turishi, o‘z sohasi bo‘yicha o‘tkaziladigan seminarlarda ishtirok etishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Direktor o‘rinbosarining kasbiga qo‘yiladigan talablar ya‘ni, o‘quvchilarga nisbatan mehr va muhabbati, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo‘lgan holda ish tutishi va muntazam o‘z ustida ishlashi, sabr-bardoshli, o‘z fikrlarini puxta bayon qilishi, o‘zgalarni o‘ziga jalb qila oladigan xislatlari kabilar.

2-savol bayoni

Direktor o‘rinbosarining huquqlari va vazifalari.

. Direktor o‘rinbosari Nizomda belgilangan vazifalar bilan bog‘liq ravishda tegishli pedagogik xodimlarga ko‘rsatma beradi.

Xizmat vazifasi doirasidan kelib chiqqan holda darsdan tashqari tashqari ishlarai tashkil etish va yangi to‘garaklarni ochish masalalarini hal qiladi. Direktor o‘rinbosari:

- guruh rahbarining ta‘lim-tarbiya ishlari bo‘yicha erishgan yutuqlarini hisobga olib, uni taqdirlash uchun direktorga taklif kiritish;

guruh rahbarlarining o‘z vazifasiga nisbatan mas‘uliyatsizligi yoki uni suiste‘mol qilganligi uchun direktor bilan kelishilgan holda tanbeh berish;

bolani yaxshi tarbiyalagan ota-onalarni, maktabga yordam bergan mahalla faollarini taqdirlash uchun direktorga taklif berish huquqiga ega.

Direktor o‘rinbosari bilan quyidagi ishlar kelishilishi kerak:

✓ guruh rahbarlari ish rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;

- ✓ maktabda o'tkaziladigan sport musobaqalari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;
- ✓ turli xildagi to'garak ishlari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash.
- ✓ maktabning jamoat tashkilotlari, otaliq qiluvchi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlash;
- ✓ bolalar nazoratsizligi va qonun buzilishining oldini olish;
- ✓ yashash joyi bo'yicha bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etish;
- ✓ o'quvchilarning oilalariga borish va bolalarni tarbiyalashda
- ✓ ularga yordam berish;
- ✓ yosh avlodning Vatanga, jamiyatga va mehnatga, o'ziga va odamlarga munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyo'ularini tarbiyalash.

Tarbiyaviy ishlar bolalarning kundalik hayotidan olingan aniq dalillar va voqealarni, badiiy adabiyot, vaqtli matbuot, kinofilmlardan olingan misollarni tahlil etish hamda muhokama qilish asosida o'tkaziladi. Bu ishlarning xususiyati shundaki, bu bolalarni o'zining axloqiy xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritishga va ularga to'g'ri baho berishga o'rgatadi.

Darsdan tashqari tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Shu sababli keyingi davrda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko'ngilli uyushtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Guruh jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlaraing hajmi, asosiy yo'nalishlari, mazmuni har bir yosh bosqichida o'quvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga mos kelishi lozim.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishi kerak.

Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga kamida 5 yil pedagogik ish stajiga ega bo'lgan qobiliyatli, mahalia, ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida hurmat-e'tiborga loyiq bo'lganlar tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tomonidan tayinlanadi va bo'shatiladi.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy tarixiy va madaniy merosimiz, milliy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, keng fikrli, sog'lom, jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan barkamol, iqtisodiy islohotlarning mohiyatini tushunadigan hamda ularni yangi ijtimoiy munosabatlar orqali hayotga tatbiq eta oladigan, milliy g'oya va istiqloq mafkurasi mustahkam bo'lgan shaxslarni shakllantirish direktor o'rinbosari faoliyati maqsadining asosini tashkil etadi.

O'quvchi-yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi asosida, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, iymon-e'tiqod, mehr-shafqatlilik kabi insoniy fazilatlar misolida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalaydi. Direktor o'rinbosari tarbiyaviy ishlarini rejalashtirishda guruh rahbarlarining qiziqishlari, topshiriqlarni qay darajada bajara olishlarini hisobga oladi. O'quvchilarning o'z-o'zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. Bu bolalar va o'smirlarning fuqarolik, demokratiya borasidagi tushunchalarini kengaytiradi. O'z-o'zini idora qilish - tashabbuskorlik va mustaqillik maktabidir. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqaruvi o'quvchilar tomonidan fan va mashg'ulotlarning to'liq o'zlashtirilishiga, biror kasb o'rganishiga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishiga, Vatan himoyachisi bo'lishiga, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, davlat, jamoat mulkini ko'z qorachig'iday asrashga, tabiatni muhofaza etishga ko'maklashadi. O'z-o'zini boshqarish o'quvchilarni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalashda, ta'lim muassasasida ma'naviy

muhitni saqlashda, ma'muriyatga qo'shimcha ta'lim olish uchun o'quvchilar talabnomasini shakllantirishda ko'maklashadi. O'quvchilar o'z-o'zini boshqaruv a'zolari maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda, tanlovlarda, xonalarni jihozlashda faol ishtirok etadilar.

Mazkur boshqaruv tashkilotchilik ishi ko'nikmalarini tarbiyalaydi, umumiy g'oyalari bilan ahil, jipslashgan o'quvchilar jamoasini tuzadi. O'quvchilar o'z-o'zini idora qilish tizimi maktab o'quvchilari (jamoasi) tomonidan o'zining faoliyatida demokratik faoliyat tarzlarini chuqur o'zlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu to'g'ri taqsimlash, ijro ustidan hisobot va nazoratni yo'lga qo'yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg'unligini ta'minlash, musobaqalar uyushtirish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi ko'nikmalardan iborat. Tarbiyalanuvchilar davrimiz kishisi uchun zarur bo'lgan qator axloqiy sifatlarni, chunonchi, jamoat ishiga va unga qo'shadigan ulushi uchun shaxsiy mas'uliyat, jamoa manfaatlariga sodiqlik, o'zaro munosabatlarda talabchanlik, jamoat tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi sifatlarni egallaydi.

Maktabda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, barcha pedagogik jamoa bu ishga ma'naviy tayyor bo'lsagina, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro chuqur hurmat, xayrixohlik, ishonch bo'lgan sharoitdagina tashkil etilishi mumkin. Hech qanday soxtalik va sun'iylik bo'lmasligi kerak. Barcha o'z-o'zini idora qilish tashkilotlari o'z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so'z va ish birligi saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag'batlantirilishi e'tiborda bo'lishi kerak.

Nazorat savollari:

- 1** **Direktor o'rinbosarining huquqlari va vazifalari.**
2. Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining qobiliyati va ishbilarmonligi.

3-savol bayoni

Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining qobiliyati va ishbilarmonligi.

Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlar o'qituvchi tarbiyachilar, guruh rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalariga muvofiq ravishda tashkil etadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchisining hatti-harakatidagi ayrim kamchiliklarni tuzatishga to'g'ri keladi. Bu kamchiliklar avvalgi tarbiya jarayonida, ko'pincha oilada tarkib topgan bo'ladi. O'qituvchi o'z harakatlarini va ota-onalarining harakatlarini bu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratishi lozim. Odatda, buning uchun bolalarning oiladagi hayot sharoitlarini o'zgartirish, tarbiyalanuvchilarda noto'g'ri hatti-harakatni keltirib chiqaruvchi sabablarin yo'qotish talab etiladi. Bu esa darsdan tashqari tashqari ishlarni tashkil qilishda qilishda direktor o'rinbosarining zimmasiga bir qator vazifalarni yuklaydi.

Shunday qilib, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, inson shaxsini tarkib toptirishning bir butun jarayonida doimo bir-biriga ta'sir o'tkazadi.

Direktor o'rinbosari bilan quyidagi ishlar kelishilishi kerak:

- guruh rahbarlari ish rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;
- maktabda o'tkaziladigan sport musobaqalari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;
- turli xildagi to'garak ishlari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash.

Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy shakllari, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qarorlarini hisobga olishni talab etmoqda. Darsdan tashqari tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun darsdan tashqari tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida direktor o'rinbosari vazifalari:

- guruh rahbarlari ish rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;
- maktabda o'tkaziladigan sport musobaqalari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;
- turli xildagi to'garak ishlari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash.

quyidagilar bo'lishi lozim:

- ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning betakror va o'ziga hosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish lozim;
- milliylikni o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;
- pedagoglar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish;
- maktabning jamoat tashkilot, otaliq qiluvchi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlash;
- bolalar nazoratsizligi va qonun buzilishining oldini olish;
- yashash joyi bo'yicha bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etish;
- o'quvchilarning oilalariga borish va bolalarni tarbiyalashda ularga yordam berish;
- yosh avlodning Vatanga, jamiyatga va mehnatga, o'ziga va odamlarga munosabatini anglab olishga qaratilgan ahloqiy tuyg'ularini tarbiyalash.

Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolroq jalb qilinadi, bu esa o'quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Darsdan tashqari tashqari ishlarni tashkil qilishda qilishda tashkilotchining vazifalari?
2. Direktor o'rinbosarining huquqlari?
3. Direktor o'rinbosari bilan qanday ishlar kelishilishi kerak?
4. Darsdan tashqari ishlar mazmuni qanday?

Adabiyotlar:

31. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashriyoti 2007 y.
32. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
33. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
34. Abdiqudusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
35. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashriyoti, 2006.

14-MA'RUZA.

TASHKILOTCHINING O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN HAMKORLIKDA ISH OLIB BORISH METODIKASI

Asosiy savollari

1. Jamoa o'zini-o'zi boshqarish qo'mitasi sifatida.
- O'quvchilar jamoasi maqsadining birligi va tashkil qilish xususiyatlari
3. O'qituvchi tomonidan jamoaga qo'yilayotgan talablar
4. Jamoa an'analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *O'quvchilar jamoasi maqsadining birligi va tashkil qilish xususiyatlari. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyati sifatida. O'qituvchi tomonidan qo'yilayotgan talablar hajmi, tizimi, talab qo'yish metodikasi. O'quvchilarga talablar qo'yish, talablar mazmuni bilan tanishtirish, ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularni muntazam suratda nazorat qilib borish.*

1-savol bayoni

Jamoa o'zini-o'zi boshqarish qo'mitasi sifatida.

Jamoda shaxsni yakka tartibda tarbiyalashda maktab o'quvchisini o'z-o'zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga bo'yni yor bermaydigan tarbiyasi qiyin bolalar - bu albatta, yomon o'zlashtiruvchilar emas, holbuki ular orasida odatda ko'pchiligi ana shunday bolalardir. Zamonaviy sinf rahbari o'quvchidar yomon xulq-atvorining, past o'zlashtirishning sabablarini puxta o'rganadi. Bunda o'quvchining sinfdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning

ma'naviy asoslari eng muhim masalalardan biridir. Jamoa munosabatlari - dastavval muayyan maqsadlarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlar yo'naltirib turadigan o'zaro ma'suliyatli munosabatlardir.

Sinf o'quvchilari ko'p bo'lgan sharoitda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, har bir bola qalbiga to'o'ri yo'l topish juda qiyin. Agar olquvchilar jamoasi qo'llab-quvatlasa, har holda bunday yo'lni topish mumkin.

Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuv-ning mohiyati alohida o'quvchini jamoa faoliyatiga jalb etishdan, jamoani esa mazkur o'quvchi bilan qiziqtirib qo'yishdan ham iboratdir. Har qanday jamoada tarbiyasi qiyin bolalar bo'ladi, lekin "ajratib qo'yilgan" bolalar bo'lmaydi.

O'quvchilarning xulq-atvorini muntazam o'rganishni o'qi-tuvchi o'z oldiga maxsus maqsad qilib qo'ymasa u o'qituvchi uchun sezilmagan tarzda o'zgarishi mumkin. Bunday o'rganish yakka tartibda ishni tashkil etishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ish albatta ayrim o'quvchilarning rivojlanishga ta'sir etadi va shuning uchun ham bu jarayon stixiyali emas, balki maqsadga qaratilgan va boshqariladigan bo'lishi kerak.

Sinf rahbari o'quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda bo'ladi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni uyushtirishda sinf rahbariga muayyan tarzda yordam beradigan asosiy manba "Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi"dir. Mazkur dastur o'quvchilarning ota-onalari bilan xilma-xil masho'ulotlarni birga qo'shib olib borishini ko'zga tutadi.

Dasturda o'quv yili mobaynida ikkita umumta'lim masho'uloti va har bir sinf ota-onalari uchun 6 tadan 9 tagacha masho'ulot o'tkazish ko'zda tutilgan. Masho'ulotlar shunday tarzda quriladiki, ota-onalar pedagogika, psixologiya va fiziologiya asoslari izchil kursini o'zlashtirib, farzandlari bilan sinfdan-sinfga o'tgandek bo'lishadi. Kurs bolalarning yosh xususiyatlariga muvofiq va ta'limining har bir yildagi ta'lim- tarbiya vazifalarini hisobga olib qurilgan.

Ota-onalarning yuksak ta'limiy va madaniy darajasi, pedagogik va psixologik ta'sir etish sifatini oshirish uchun ular bilan bevosita muomalada bo'lib, o'qituvchilarning bu yo'nalishdagi ijodiy ishini jamoa ishida o'rganish mumkin.

Ota-onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shakli bu ota-onalar yio'ilishlaridir. Ota-onalar majlislari turli xil ko'rinishda bo'ladi:

1) Tashkiliy yio'ilishlar: ota-onalar qo'mitasi saylanadi. Bunda asosan jamoatchi, o'qimishli kishilar saylanadi.

2) Chorakdagi yakunlovchi sinf majlislari: ota-onalarning e'tiborini o'quvchilarning bilishga doir qiziqishlari, axloqiy qobiliyatlari, irodaviy fazilatlarini, rivojlanishdagi yutuqlari, kamchiliklari, foydalanilmagan imkoniyatlariga qaratish maqsadini ko'zda tutadi. Agar har bir ota-ona majlisdan keyin o'z bo'iasiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish tizimiga tuzatishlar kiritishning asosiy yo'llarini aniq tasavvur etsagina, sinf rahbari o'tkazilgan majlislardan qanoat hosil qilishi mumkin.

3) Biror mavzuga ba'ishlangan yio'ilishlar: tarbiyaning eng dolzarb muammoalari yuzasidan o'tkaziladi.

Agar maktab sinf rahbarlari orqali ota-onalarga ularning pedagogik bilimini oshirishda yordam berar ekan, o'z navbatida ota-onalar ham maktabga bolalarni tarbiyalashni tashkil etish ishida har tomonlama yordam berishlari mumkin va lozim.

Sinf rahbarining ota-onalar komiteti bilan mohirona, yaxshi uyushtirilgan va yo'lga qo'yilgan ishi, bolalar bilan olib boriladigan butun tarbiyaviy ishlarning muvafaqqiyatli bo'lishiga garov hisoblanadi. Tashabbuskor, ijodiy ishlaydigan ota-onalar komiteti sinf rahbariga sinf jamoasini tashkil qilishida bebaho yordamchidir.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat sinf rahbarining o'quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli hisoblanadi.

Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalami tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o`rnatish, o`quvchilar oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo`shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tartibdagi rivojlanish dasturini, birgalikdagi pedagogik harakatlar tizimini ishlab chiqish, ota-onalarning tarbiyaviy ta'sir ko`rsatishlarini va tarbiyasi qiyin bola xulqini tuzatish va o`quvchilar o`rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish kabi keng ko`lamdagi ta'lim-tarbiya vazifalari hal qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Jamoa o`zini-o`zi boshqarish qo`mitasi sifatida.
2. O`quvchilar jamoasi maqsadining birligi va tashkil qilish xususiyatlari.
3. Ijtimoiy jamiyat ehtiyojini qondirishga yo`naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyati sifatida.

2- savol bayoni

Jamoa so`zi lotincha "kollektivus" so`zining tarjimasi bo`lib, yoyilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma`nolarini anglatadi. Aniqroq aytiladigan bo`lsa, jamoa bu – kishilardan iborat guruh demakdir. Zamonaviy talqinda "Jamoa" tushunchasi ikki xil ma`noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda kishilarning istalgan tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, xo`jalik jamoasi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o`quvchi (tarbiyalanuvchi) larning birlashmasi o`ziga xos muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilari) borasida so`z yuritamiz.

Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo`lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi ahamiyati to`o`risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada, uning a`zolari o`rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta`minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo`lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me`yorlari o`z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo`lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o`zaro birlik, uzviy maqsadga muvofiq tashkil etadi.

Shu bois, jamoa hayotning bir (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-o`oyaviy yo`nalganligi uning etakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa bir jamoalar bilan uzviy bog`liq bo`ladi. Uning har bir a`zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o`z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shallantirishdagi o`rni va rolini to`o`ri baholay olish umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etadi, hamda bo`linishiga yo`l qo`ymaydi.

Har bir jamoa o`z-o`zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan boo`lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo`naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-o`oyaviy yo`nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o`z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlash kishilar guruhining yagona ijtimoiy tizimini o`rnata olishdagi usuli, ya`ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi. Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a`zolari o`rtasida ishchanlik, bir-biri uchun o`amxo`rlik, o`zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qaror topadi. Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas`uliyat hissini uyo`ota borib, jamoa a`zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga Hurmat hissini paydo bo`lishiga ko`maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo`lish ehtiyojini oshiradi, jamoa a`zolari o`rtasida o`zaro ruhiy yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish) yuzaga keladi. Ushbu munosabat

ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini mazmuniga ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma bir tomondan, jamoa a'zolari qo'yilgan ishchanlik munosabatlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy, psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikroguruhni tashkil etuvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy etakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga tashlangan o'rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikroguruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lgandagina jamoa o'zini chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat zaminida tashkil topgan bo'lmasin, haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni o'rnatish olishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa-kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunishi, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar.

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Namuna ko'rsatish uni shakllantirish vositasi bo'lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosini tarbiyalash yaxshi samara beradi.

Jamoaning etakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilish, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim hamda yangi turdagi ta'lim muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchi tomonidan qo'yilayotgan talablar hajmi, tizimi, talab qo'yish metodikasi.
2. O'quvchilarga talablar qo'yish, talablar mazmuni bilan tanishtirish, ularning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda ularni muntazam suratda nazorat qilib borish.

3-savol bayoni

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in-sinflar jamoalari sanaladi. Sinf jamoasi doirasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Bu bilan sinf jamoasi o'z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi bu-ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

Demak, yuksak darajada o'stirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyat belgilarni namoyon etadi. Ular quyidagilardir :

1. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi ;
2. Birgalikdagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi;

3. Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi ;

4. Saylangan umumiy rahbariy organga egalik

O'quvchilar jamoasi pedagog-tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'analariga ega guruh hisoblanadi. Jamoaning rivojlanishi – jamoa hayotining qonunidir. Xo'sh, bolalar jamoasining olo'a harakat qilib borishiga nima yordam beradi? Uning rivojlanishiga nima imkon beradi. Bunday kuch istiqboldir. Hayot shuni ko'rsatadiki, kishining kelajakka umid va ishonch bilan intilishi, hayotiy istiqbolini yurtimizning taqdiri bilan boo'lab, mustaqil diyorimizning bugungi jamiyat sharoitida ma'naviy va ma'rifiy qiyofasini yaratishda hissa qo'shgan kishi va jamoa tobora shakllanib rivojlanib boradi.

Bu intilish va hayotiy istiqbolda kishining ma'naviy va madaniy ehtiyojlarining jami, uning rivojlanganlik darajasi, butun ma'naviy qiyofasi aks etadi. Istiqbolning eng muhim pedagogik xususiyatlaridan biri shuki, degandi A.S.Makarenko, u oldinga qo'yilgan maqsad sifatida bolani istalgan natijaga erishish imkoniyati bilan qiziqtiradi, unda kelajakni barpo etishda qatnashish istagini uyo'otadi. O'uvnoq kayfiyat va olg'a intiluvchilikni vujudga keltiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan istiqbol deganda, shaxsni bolalar guruhini, umuman jamoani rivojlantirishning ichki ehtiyojlariga javob beruvchi, uning a'zolarining rivojlanish darajasiga, ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda jamiyatimiz vazifalariga mos keladigan vazifalar, maqsadlar, ishlar tushuniladi.

Jamoani vujudga keltirish va o'quvchilarni tarbiyalash maqsadi bilan tashkil etiladigan istiqbollari ularning hammasi uchun xarakterli bo'lgan ayrim umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi:

Bevosita bolalarning qiziqishiga hamda vazifani bajarish uchunbirgalikda jamoa kurash olib borishning quvonchli manzarasiga asoslangan ishlarning maroqli bo'lishi; Ishlarning ijtimoiy foydali qimmat va ularning butun xalqimiz olib borayotgan kurash bilan bog'liqligi;

Istiqbol uchun kurashning borishini aniq tashkil etish;

O'quvchilarda konkret axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik maqsadga muvofiqlik.

Har xil istiqbollarni tashkil etishdagi asosiy metodik usul bolalarni birorta istiqbolga erishish uchun kurashga tayyorlashdan iboratdir. Bu tayyorgarlikka ish rejalari, loyihalar va hokazolarni muhokama qilish kiradi. So'ngra istiqbol sari harakat qilishga yordam beradigan amaliy ish bajarilishi lozim. Bu ish jamoani tashkil etish va jipslashtirish jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Shunga erishish kerakki, barcha o'quvchilar umumiy faoliyatda ishtirok etsinlar va bu ishtirok etish faol, ijobiy xarakterga ega bo'lsin.

Topshiriqlarni jamoaning barcha a'zolari o'rtasida to'o'ri taqsimlash bolalarni qiziqarli ishlarni bajarishga jalb qilishning asosiy yo'lidir.

Bolalarning aql-idrokigagina emas, balki ularning his-tuyo'ulariga ham ta'sir ko'rsatish uchun har qanday ish aniq tashkil etilishi, chiroyli jihozlanishi kerk. Ayniqsa, bayramlarni chiroyli va tantanali qilib tashkil etmoq kerak. Bu bayramlarda ota-onalar va mehmonlar ishtirok etsalar, bayram davomida bolalar mukofotlansa, musobaqa yakunlari e'lon qilinsa, yaxshi bo'ladi. Bolalarni tayyorgarlik jamoa maqsadga erishish jarayoniga jalb qilishning tarbiyaviy ahamiyati shu jihatdan kattaki, bu yo'l bilan bolalarni maqsadga qaratilgan jamoa axloqiy xulq-atvorni egallashga mashq qildirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Jamoa hayotining me'yori umumiy maqsadga intilishga va qiziqarli ishlar bilan shuo'ullanishgagina emas, balki jamoada bolalar o'rtasidagi munosabatlar usuliga ham, ularning tevarak-atrofdagi vaziyatga bo'lgan munosabatlariga, jamoadan tashqaridagi aloqalariga ham bog'liqdir. Har bir maktab o'quvchisida o'z jamoasi uchun faxrlanish tuyo'usini, shaxsiy qadr-qimmat hissini tarbiyalash zarur.

Mazkur usul va uslublar jamoani shakllantirishga asosiy yo'l va vosita sifatida asos bo'ladi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablari tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi.

Pedagoglar tomonidan qo'yiladigan talablar quyidagi sharoitlardagina ijobiy natija beradi:

Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish bilan qo'shilishi kerak;

Qo'yilayotgan talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;

Qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi kerak;

O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O'qituvchi qo'yilayotgan talablar hajmi, tizimini bilibgina qolmasdan, talab qilish metodikasini ham o'zlashtirib olgan bo'lishi kerak.

- tarbiyaviy ishlar rejasi;
- rejalashtirilgan mavzuga oid risolalar;
- yo'l harakati xavfsizligi va yong'indan saqlanish qoidalari yuzasidan dastur va ko'rsatmalar hamda tarbiya borasida kerak bo'ladigan zarur materiallarga bulsa bas.

Xaftalik tarbiyaviy tadbirni rejalashtirishda sinf rahbari mavsumni, tarixiy sanani, eng yangi yangiliklarni hisobga olishi kerak. Rahbarning esa, tarbiyaviy soatni to'laqonlik va qiziqarli o'tishida yuqoridagilar uning nazaridan chetda qolmasligi zarur.

Nazorat savollari:

7. Siz "Mustaqillik" bayramini qanday o'tkazishni taklif etasiz? O'qituvchilar va murabbiylar" bayramini tashkil etishda talabalarni qanday aktivlashtirish kerak?

8. “Xotira va Qadrlash kuni”ning tarbiyaviy ahamiyati nimada?

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi “FAN” nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta`lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. “Ofset print” MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta`limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta`limi uslubiyoti. T.: “Moliya” nashiriyoti, 2006.



1-AMALIY MASHG'ULOT: "TARBIYAVIY ISH METODIKASI" FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Dars maqsadi: Talabalarga Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida to'liq ma'lumot berish, fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari haqida to'liq ma'lumot berish va uning kategoriyalari tushuntirish va lar haqida bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalarga tezkor so'rov-savollarini qo'llagan holda kichik guruhlarda ishlash ,klaster va Pinbord usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmo'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmo'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

Nazorat savollari

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani nimani o'rganadi?
 2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani vazifalari nimalardan iborat?
 3. Tarbiya tushunchasiga ta'rif bering?
 4. Tarbiyaviy ishlarga yiladigan zamonaviy talablar qysilar?
- Tarbiyaviy ishlar fanining maqsad va vazifalari?
Tarbiyaviy ishlar tizimi va uning asosiy bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsadi, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

2-AMALIY MASHG'ULOT: SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY-IJODIY MEROSIDAN TARBIYAVIY MAQSADLARDA FOYDALANISH

Dars maqsadi: SHarq mutafakkirlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish usullarini shakllantirish va pedagogik faoliyatda foydalanishni o'rgatishdan iborat.

Kerakli jihozlar: SHarq mutafakkirlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish usullarini o'rganishda "Bumerang "interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda islom ta'limoti tutgan o'rni.

Qur'oni Karim musulmonlarning hayotdagi yagona insoniylikni shakllantiruvchi yo'lboshchiga aylandi. Olloh taolo o'z xoxishi bilan to'rini noto'ridan, haqni noaqdan ajratib, odamlarga tushuntirish uchun payambarlar yubordi va odamlarga to'ri yo'ldan yurish ixtiyorini berdi. Qur'oni Karimdagi —Insonl surasida shunday deyilgan: —Biz insonga to'ri yo'lni ko'rsatib qo'yganmiz. hoxlagani shukr keltiruvchi bo'lsin yoki kufr keltiruvchi bo'lsin(3 oyat) Qur'onning ko'pchilik oyatlarida insonni ixtiyoriy o'zi bilan bo'lib u qilgan yaxshi va yomon ishlariga ham o'zi javobgardir.

Islom diniga mansub bo'lgan musulmonlarni aql zakovat bilan ish ko'rish, irodali, o'z so'ziga qat'iy bo'lishlikka, halol mehnat evaziga yashash, o'z ona Vatani va avlod ajdodlarini e'zozlashga chorlaydi. Yaxshilik- adolatli b lish, savob ishlarga qo'l urish. Sabr, mehnat va hunar egasi bo'lish,



Abu Nasr Farobiy ustoz O'Qituvchiga shunday talab qo'yadi: "Ustoz shogirdlariga katta zulm ham haddan tashqari ko'ngilchanglik ham qilmaslik lozim." CHunki ortiqcha zulum shogirdda ustozga nisbatan nafrat uygotadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo'lsa shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o'qituvchiga bolalarning fe'latvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq"usullardan foydalanishni maslahat beradi. Uning fikricha:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyillik bildirsalar, ularga ta'lim - tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha itoatsiz bo'lsalar, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.



Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mashhur entsiklopedist olim, tabiatshunos, faylasuf, astranom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, filolog, yozuvchi va shoir. Evropada Avitsena nomi bilan mashhur bo'lgan Ibn Sino jahon fani taraqqiyoti tarixida muhim rol` o'ynaydi,

Ibn Sinoning gumanistik ta'limida birinchi masala inson kamolatidir, insonni olamdagi mavjudodlardan yuqori qo'yishdir. Abu Ali ibn Sinoning ijodiy faoliyati juda xilma-xil va rang barangdir. Uning asarlarida falsafa, tarix, filologiya, etika, pedagogika, psixologiya, she'riyat, tabobat, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiena va tabiatshunoslik fanlarining har qaysisiga doir mustaqil fikrlar va hulosalar bor. Ibn Sino buyuk olim. U insonning aqli har tomonlama rivojlanishiga tabiat sirlari va haqiqatni bilish mumkinligiga qattiq ishongan. Isbotlab misollar keltirgan. U o'zining ilm-fan sohasidagi katta fazilatlari bilan jahon ma'rifati va madaniyatining namoyondasi sifatida tanildi.


Sohibqiron Amir Temur ham o'z hukumronligi davrida ilm ahillari, muallimlarga hurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Jamiyatning rivojida ularning o'rni muhim deb biladi. Ko'plab kollej madrasalar ochadi. Ularga muallim va mudarislar tayin etadi, o'zining ustozlarini ham juda qadrlaydi.

Sa'diy SHeroziy ta'lim-tarbiyada muallimning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qattiqqullik bo'lishining tarafdori bo'ladi "Guliston" da ustoz shogird munosabatiga oid hikoyat keltiriladi: "Bir odam kurash san'atida zo'r mahorat qozondi, u 300 hiylani bilar va har kuni bir hiylani ishlatib ko'rishar edi. SHogirdlaridan biriga 259 hiylani o'rgatdi. Ammo bir hiylani o'rgatmadi. Ustozning hurmatini bilmagan shogird ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu suz podshoga yoqmaydi. Ular kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz ohirgi hiylasini ishlatib shogirdini engadi. Ustoz hurmatini bilmagan shogird esa haloyiq, va podshoxning nafratiga uchraydi".

Muallim - ustozga nisbatan hurmatda bo'lishning ifodasi shuki, shogird muallimdan oldin yurmaslik uning o'rniga borib o'tirmaslik lozim. Mashulotlar davomida o'quvchilar muallimdan uzoq: bo'lmasinlar, ular orasi o'q-yoy oraliida bo'lsin, mana shunda ilmga intiluvchilarni o'z ustozlariga hurmati ma'lum bo'ladi.

Umar Hayyom - o'zining jahonshumul ilmiy asarlari bilan emas, nozir poetik asarlari ruboiylari bilan olamga mashhur bo'ldi. SHoir o'z ruboiylarida olam sirlari haqida fikr yuritdi, zuravonlikni, jaholatni, riyokorlikni fosh etdi, shaxs erkinligini qo'ydi. Umar Hayyom insonni ululaydi, uni dunyodagi eng oliy mavjudot sifatida qo'llaydi. Umar Hayyom dunyoqarashida inson va uning hayoti muammolari, inson hayoti bilan boliq bo'lgan tashvishlar, gumanizm masalalari markaziy o'rin egallaydi.

Umar Hayyom kishilarni ahillik va do'stlikka, ittifoqlikka chaqiradi, har qanday mushkul ishni hal qilishda ittifoqlik, do'stlik, juda katta kuch ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi. Az-Zamahshariy "Nozik iboralar" risolasida ilmi fan ahillari o'qituvchilarga nisbatan hurmat- e'tiborning pasayib ketganidan kuyunib yozadi. "O'tgan zamonlarda ilmu-fazilat sohiblari podshoxlaridan o'z oirliklariga barabar oltin hadya olardilar, asta-sekin zamonlar o'tishi bilan ularning qiymatlari kamayib itlari, olmaxonlar ulardan afzal bo'lib qoldi, ya'ni nodonlar oltinlardan ortiq ko'riladigan bo'lib qoldi. SHarq mumtoz madaniyatning butun dunyoga mashhur namoyondalaridan biri



Abu Rayhon Beruniyning qarashlari progressiv mazmun kasb etadi, Mutafakkirning gumanistik qarashlarida rostguylilik bilan adolat himmatga ega bo'lgan sifatlardir. Olim hulqlarni yaxshiva yomon hulqlar deb 2 qutbga bo'lib ko'rsatadi. Uning fikricha yaxshihulqlar- rostgo'ylik, adolat, mardlik, botirlik, himmat va shu kabilardir. Bu haqida u shunday deydi: hammaning tabiatida adolat bevosita sevimli va hamma uning yaxshiligiga qiziqadigan bo'lgani kabi rostgo'ylik ham shunday; lekin rostgo'ylikning shirinligini tatimagan yoki shirinligini bilsa ham, totishni

istamaydigan kishi uni sevmaydi:

Abu Rayhon Beruniy O'rta Osiyo xalkining mashhur qomuschi olimi, o'zining ilmiy mulohazalari bilan barchani hayratda qoldirgan, filosofiya, tarix, filologiya, pedagogika, tabiatshunoslik fanlarining aktual masalalari sohasida o'z davrigacha bo'lgan bilimlarni umumlashtirdi, kamchiliklarni tuzatdi va keyingi avlodlar ham faxrlanadigan asarlar qoldira oldi. Real hayotda u faqat fan, ma'rifatga berilgan odam bo'lgan butun vaqtini kuchquvvatini ilm fanga baishlagan ijtimoiy va tabiiy fanlarning eng muhim sohalarida barakali ishladi va shunday asarlar yaratdiki, ular jahon fani va madaniyatini yanada yuqori poonlarga ko'tarishda hizmati katta bo'lgan.



Alisher Navoiy o'zbek halqlning ulkan shoiri va mutafakkiri, ulu olim va davlat arbobi, jahon adabiyotining siymolaridan biri, SHoir butun hayoti va faoliyatini insonning baht-saodati uchun kurashga, halqning san'at va adabiyot taraqqiyotiga baishladi. Navoiy o'zining hamma asarlarida insonning er yuzidagi haqiqiy inson degan nomni yuqori darajaga qo'yadi. Inson huquqi bilan yashashni, inson shaxsining ozodligini e'zozlaydi.

Alisher Navoiy ijodida ham muallimlar ishi ularga munosabat masalalriga keng o'rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar mudarislar hamda ustoz murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutassib johil domlarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur deydi. Masalan: "Mahbub ul qulub" asarida maktabdorlar doirasida fikr yuritar ekan, ularni o'ta qattiqqul, johil va ta'magirliklarini qoralaydi. Darhaqiqat johil muallimlar gunohsiz yosh bolalarga jafu qiluvchidir, U yosh bolalarning azoblashga, kaltaklashga o'rgangan, azabli qoshi chimirilgan gunohsizlar bilan achchiqlanishga odatlangan. Ularning ko'pchiligida ko'ngil qattiq qo'lligi va ta'b hastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga ham griftor. Ular kiyinish yo'li bilan bolalar ko'nglini o'zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do'q-po'pisa bilan tartibga solmoqchi bo'ladilar. Ulardagi ko'rinib turgan qo'pollik, yosh bolalardagi kelishmagan hatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir. Ular ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi. Lekin ustoz bolaga ilm va odob o'rgatadi, Darhaqiqat muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. SHu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko'p, agar shogird ulaygach podshoxlik martabasiga erishsa ham o'z muallimga qulluq qilsa arziydi, shuning uchun ham Alisher Navoiy yozadi. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamoq bo'lmas ado oning haqin yuz ganch ila.

-Husayin Voiz Koshifiy o'z asarlarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtaladi; "Agar shogirdlikning binosi nimani ustiga quriladi deb so'rasalar irodad ustiga deb javob bergin.

Agar irodat nima deb so‘rasalar samo‘ va toatdir deb aytgin. Agar samo‘ etish va toaat nima deb so‘rasalar nimani ustoz aytisa uni jon quloi bilan eshitish, chin dili bilan qabul qilish va vujud a‘zolari orqali amalda ado etishidir deb ayt".

- U shogirdlikning 8 ta odobini ko‘rsatadi:
- 1. Birinchi bo‘lib salom berish.
- 2. Ustozning oldida oz gapirish. - 3. Boshni oldinga egib turish.
- 4. Ko‘zni har tomonga yugurtirmaslik.
- 5. Gap so‘ramokchi bo‘lsa oldin ustozdan ijozat olish.
- 6. Ustoz javobiga e‘tiroz bildirmaslik.
- 7. Ustoz oldida boshqalarni iybat qilmaslik.
- 8. O‘tirib turishda hurmat saqlash.
- Koshifiy ustozlik shartlarini ham ko‘rsatadi. "Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa ul ishni asosi mustahkam bo‘lmagay."



- Abdulla Avloniyning —Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir! degan fikrini ko‘p mushohada qilamiz.

- Buyuk ma‘rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarbdir.

- CHunki ta‘lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir.

- Binobarin, ta‘lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi.

Nazorat savollari

1. SHarq uyushish davri va ma‘rifiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
2. XIV-XVI asrlarda maktab va ma‘rifiy fikrlar taraqqiyotiga kimlar o‘z hissasini qo‘shgan?
3. Jadidchilik harakati namoyondalarining tarbiya qo‘shgan hissasi
4. Chet el mutafakkirlarining ta‘li- tarbiyaviy qarashlari.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O‘quv qo‘llanma. O‘z. Res.Fanlar Akademiyasi “FAN” nashriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O‘quv qo‘llanma. “Ofset print” MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta‘limi pedagogikasi O‘MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta‘limi uslubiyoti. T.: “Moliya” nashriyoti, 2006.

3-MAVZU: PEDAGOGIK TEXNIKA PEDAGOGLIK MAHORATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Dars maqsadi: Tarbiyaviy ishlar jarayonida guruh rahbarining pedagogik mahoratining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirish va pedagogik faoliyatni rivojlantirishni o'rgatishdan iborat. Pedagogik texnikani shakllantirish shartlari bilan tanishtirish. Verbal va noverbal ta'sir

Kerakli jihozlar: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaraga "Venn- diagramma", "Muloqot", —"FSMU" metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari


O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, etuk o'qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlarini, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilor xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini o'rgangan bo'lishi lozim.

Farzandiga tarbiya berish, ularni komil inson qilib tarbiyalash kelajakda ota onaga rahmat olib keladi. O'il-qizlarimizga tarbiya berish judayam ma'suliyatli, lekin farzand ota onaning mevasi degandek ota- onasiga o'xshaydi. ma'naviy muhit vujudga keladi. Ayniqasa ota ona munosabatidagi sabrlilik, o'ylab, aql zakovat bilan oilaviy yumushlarni birgalikda maslahatli hal etilishi, ularning bir biriga mehribonligi, farzandlariga bir xilda muomalada bo'lishi, har ikkala tomonning qarindosh urularga, qo'ni qo'shnilarga bir xilda mehr muhabbat, hurmat bilan qarashi, bir so'zliligi, haqiqatni gapirish kabi ijobiy fazilatlarga ega bo'lish, shuningdek, ichish, chekish, yolonchilik, maishiy buzuqlik, dimodorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan holi bo'lishi oiladagi muomala madaniyatining sofliğini ta'minlovchi xususiyatlardir.

VENN- DIAGRAMMA usuli

Pedagogik mahorat va pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari



«Venn» diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish bosqichlari

Nazorat savollari:

1. Gurur rarbarining pedagogik maroratini o'ziga xosliklari?
2. Pedagogik texnika shakllantirish shartlari ?
3. Verbal va noverbal ta'sir shakllari?
4. Pedagogning mimik va pantomimik harakatlari qanday bo'lishi kerak?

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akademiyasi "FAN" nashriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiqudusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashriyoti, 2006.

4-AMALIY MASHG'ULOT: PEDAGOGLARNING O'QUVCHILAR BILAN O'ZARO MUOMALASI

Dars maqsadi: Pedagogik muomilaning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirish va pedagogik faoliyatni rivojlantirishni o'rgatishdan iborat.

Kerakli jihozlar:Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaragaa —Insert|| metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

"Insert" metodi

Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

- o'qituvchi mashulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
"V" – tanish ma'lumot.			
"?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			

“Q” bu ma“lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma“lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta‘lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma‘lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashulot yakunlanadi.

Nazarat savollari:

1. Pedagogik kasb va uning jamiyatda tutgan o‘rni.
2. Pedagogning muomalasining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Tarbiya jarayonida muomala va uni mohiyati.
4. Tarbiyaga ta'sir etuvchi omillar.
- 5.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O‘quv qo‘llanma. O‘z. Res.Fanlar Akdemiyasi “FAN” nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O‘quv qo‘llanma. “Ofset print” MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta‘limi pedagogikasi O‘MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta‘limi uslubiyoti. T.: “Moliya” nashiriyoti, 2006.

5 -AMALIY MASHG‘ULOT: O‘QUVCHILARNI O‘RGANISH, KUZATISH VA TA’SIR KO‘RSATISH METODIKASI

Dars maqsadi: O‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish metodikasi to‘risida bilimlarni hamda to‘liq tasavvurni shakllantirish. Guruh ichida va guruh tashqarisida kuzatish metodlarining mohiyati bilan tanishtirish

Kerakli jihozlar: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaragaa —Keys metodini dars jarayoniga qo‘llash lozim.

Ishni bajarish uchun namuna

“Keys-stadi” metodi



Keys-stadi interaktiv ta'lim metodi sifatida tinglovchilar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Ushbu texnologiya asosan farmatsevtika fanlaridan dars beruvchi o'qituvchi va tinglovchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Buning sababi sifatida ushbu metod tinglovchilarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o'zlashtirishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo'lish imkoniyatini berishda ko'rish mumkin. O'z navbatida vaziyatlarning analizi (tahlili) tinglovchilarning kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta'sir o'tkaza olishi, ularning kasbiy jixatdan —ulayishigal xizmat qilishi, ta'lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi o'qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko'rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan'anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> • yakka tartibdagi audio-vizual ish; • keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); • axborotni umumlashtirish; • axborot tahlili; • muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirini belgilash	<ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; • asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; • har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; • muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini	yakka va guruhda ishlash;
echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> • muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; • ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

To'qqizinchi sinf o'quvchisi Karim bir kuni darsni tayyorlamay keldi. Muallima unga “ikki” baho qo'ydi. Oilada Karim onasi bilan yashaydi, otasi boshqaga uylanib ketgan. Muallima Karimga “yomon” baho qo'ygani yetmagandek, unga zarda bilan: “Otang sizlarni bekorga tashlab ketmaganga o'xshaydi, bunday boladan qochib qutulishdan boshqa chora yo'q”,- deb uni sinfdan chiqarib yubordi.

Keys savollari:

1. Muallimaning bu xatti-harakati faqat Karimga qanday ta'sir qildi?
2. Sizingcha, guruh bu holatni qanday qabul qiladi?

Manba: shaxslararo muloqot, pedagogik muloqot masalalariga doir adabiyotlar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi variantlarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan variant (yoki ikkita variant)ni ajrating.
4. Ana shu variantlar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi variantlarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan variant (yoki ikkita variant)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan variant (ikkita variant) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

1. Muallimning muomalasi o'quvchini ochiqdan ochiq tahqirlash sanaladi. Pedagogik muloqotda odob qoidalariga ko'ra o'quvchining shaxsi emas. Uning aniq xatti-harakatlari baholanadi. Muallima ana talabni qo'pol tarzda buzdi.
2. O'qituvchisining harakatini sinfdagi boshqa o'quvchilar ham salbiy qabul qilishdi. Bu holat ularning noroziliklariga sabab bo'ldi. Oqibatda o'qituvchining o'quvchilar oldidagi obro'si pasaydi.

Oliy o'quv yurti yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, oyaviy va siyosiy jihatdan chiniqtirishi yuksak axloqiy fazilatga ega qilishi mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda guruh rahbari muhim rol uynaydi. CHunki u bir guruh sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. Guruh rahbarining ko'p qirrali vazifasi va funksiyalari "Ta'lim to'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da , "O'quv yurti ichki nizomlari"da bayon qilingan bo'lib, unda o'qituvchilarga, ota-onalarga va guruh rahbarlariga tavsiyalar berilgan; aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyaning vazifasi va mazmuni guruhlariga nisbatan moslashtirilgan.

Ana shunga ko'ra guruh rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan guruhda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarishda u yozilgan emas. SHu guruhda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloq tarbiyasini amalga oshiradi. "Kamolot" tashkiloti xamkorligida, muntazam suratda ularga tayanib va kundalik ishda yordam uyushtirib talabalar bilan darsdan tashqaridagi xilma-xil ishlarni tashkil etadi va guruh jamoasini mustahkamlaydi.
2. O'quvchilarning birligiga bo'lgan qiziqishini va qobiliyatini o'stirish, har bir o'quvchining individual-ruhiy xususiyatini hisobga olgan holda kasbga uyuntirish va hayotiy maqsadlarni shakllantirish – guruh rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda u har bir o'quvchining soligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.
3. Guruh rahbarining diqqat markazida talabalarning yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir talabaning kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi, orqada qolayotganlarga o'z vaqtida kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Guruhdagi talabalarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi, ular ishtirokida guruh jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, o'quv yurti miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z guruhining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Guruh talabalarining ota-onalari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi oila va o'quv yurtiga yordam beruvchi homiy mahallalar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

6. Guruh rahbari shu guruhda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida, o'quv yurti bilan oila o'rtasida talabalarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan o'quv yurti o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Guruh rahbari o'z guruhidagi turli hujjatlarning : guruh jurnali, o'quvchilarning reyting daftarchasi, shaxsiy hujjatlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, vazifva keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish guruh rahbarining shaxsiy sifatlariga ham boliqdir. Guruh rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'uyiladigan farq qilmaydi. Lekin guruh rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatidan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida o'rin egallaydi.

Nazorat savollari

1. Talabalarni kuzatish va ularni o'rganishda "Sotsiometriya" metodidan foydalanishning mohiyati nimadan iborat?

2. Talaba shaxsining asosiy xususiyatlari qanday?

3. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyati nimadan iborat?

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiya "FAN" nashiriyoti 2007 y.

2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.

3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.

4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..

5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

6-AMALIY MASHG'ULOT: GURUH JAMOASINI TASHKIL ETISH VA UNI TARBIYALASH METODIKASI

Dars maqsadi: Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish to'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaragaa —Insertl metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish


Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to'liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etaman, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish; faollarni aniqlash, o'quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; solom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish, va ko'paytirish. Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri –

o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi chiqindi qooz yoki metallolom to'plash, kechaga tayyorgarlik ko'rishkabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida nam4o-iyloovabo'ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi. Guruh rahbari ishining o'ziga xos xususiyati 1-o'quv topshiriq shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. Soat millari texnologisini to'ldiring

O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. SHuning uchun guruh rahbari dastavval bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarni, o'zlarini darsda qanday tutishlarni, o'zlarini darsda qanday Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish. tutishlarni, uy vazifalarni sidqidildan bajarishlarni yoki bajarmasliklarni aniqlaydi.

O'tgan zamon

Hozirga zamon



Kelas

i zamon

Jamoa tushunchasi.

Jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiya muammolari ichida guruh rahbarining tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Ta'lim muassasalarini pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustahkamligini ta'minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o'z navbatida, shaxs tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo'llaridan biridir. SHuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur. Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat otaonalarning ishi bo'lib qolmasdan, balki keng ma'noda davlat ahamiyatiga molik ishdir. Xukumatimiz qarorlarida ta'kidlanganidek, barcha tashkilotlar, mehnat jamoalari, umuman jamiyat axloqiy solom, ma'naviy boy, mustahkam oilani vujudga keltirish to'risida, onalar haqidagi, mamlakatning kelajagi bo'lgan yoshlar haqidagi amxo'rlikni kuchaytirishi zarur.

Nazorat savollari:

1. Jamoada shaxsni tarbiyalashning o'ziga xosliklarini ko'rsating?
2. G guruh rahbarining shaxsiy fazilatlarini namuna bo'la oladimi?
3. Yoshlarni axloqiy tarbiyalashning qanday usullari mavjud?

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res. Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashriyoti, 2006.

7-AMALIY MASHG'ULOT: SHAXSGA JAMOAVIY TARBIYAVIY TA'SIR KO'RSATISHNING SHAKL VA METODLARI

Dars maqsadi: SHaxsga jamoaviy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl va metodlarini bilan tanishish.

Kerakli jihozlar: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaraga
—Assesment metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo'yilgan talablar.

Jamoa nazariyasi koidalariga muvofiq, uni yaratish metodikasi ishlab chikilgan. Uning umumiy asoslari kuyidagilardan iborat: talablar kuyish, faollarni tarbiyalash, ukuv, mexnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istikbollarni tashkil etish, soglom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va kupaytirish.

Ta'riflangan bu koidalar har kanday jamoa (ta'lim muassasasi, guruh jamoasi, ta'lim muassasasidan tashkari talabalar birlashmasi va xokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun kullanna xisoblanadi. Mazkur bobda gap guruh jamoasini barpo etish va rivojlantirish, guruh rahbarining shu yunalishdagi ishi xakida boradi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatning muhim sharti xisoblanadi. SHuning uchun har bir pedagog tarbiyaviy ishni guruhdagi jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasi (boskichi, davri)ni aniklashdan boshlaydi. Pedagogning esa yangi guruh bilan kup marta ish boshlashiga turi keladi: o'z mexnat faoliyatining dastlabki yilida, guruhni navbatdagi bitirib chikish mavsumidan keyin, ba'zan esa ta'lim muassasasida vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan. Guruh rahbari uzining metodlari jamoaning rivojlanishiga tuskinlik kilmasligi uchun shunday keyingi ishlari davomida vakti vakti bilan jamoaning rivojlanish darajasini anglab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishining uch yoki turtta darajasi ajratib kursatiladi («Pedagogika» darsligining **tegishli** bobiga **karang**). Boshlangich **daraja** pedagogning kuch-gayrati natijasida guruhda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, tarbiyalanuvchilarning uncha katta bo'lmagan qismi guruh rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izoxlanadi. Tarbiya jarayoni o'z – o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim talabalar va umuman jamoa uz faoliyatini mustakil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar kuyadi va o'z-o'zini nazorat kiladi. Guruh rahbari va talabalar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yul uzoq bo'lib, muayyan qiyichiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar juda qiziqarlidir. Bu guruh rahbarining asosiy ishidir. Umuman ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy natijalari bu ish **qanchalik** muvaffaqiyatli o'tishiga borlik bo'ladi. Agar talabalar jamoasi barpo etilmagan bo'lsa, talaba ta'lim muassasasini hech afsuslanmay tark etadi, **hatto** keyinchalik o'qigan yillarini eslamaydi xam. Talabalar jamoasini inoq jamoaga birlashtirgan moxir guruh rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulayayotgan kishi, fukaroning xayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning xayot yulini belgilashda o'z vazifasini anglash guruh rahbarining tarbiyalanuvchilar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat'iy faoliyatining zarur sharti xisoblanadi.

“Assesment” metodi Ushbu —Assesmentl lardan ma'ruza mashulotlarida qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

<p>Assistent texnikasi. t</p> <p>1. Guruh rahbarining asosiy vazifasi nimadan iborat? A) o'quvchilarni o'rganishdan V) guruh jamoasini shakllantirishdan S) guruhda tarbiyaviy ishlarni olib borishdan D) Guruh ish rejasini tuzishdan</p> <p>2. Guruh rahbari tarbiyaviy ish rejasiga qo'yiladigan asosiy talablar? A) Rejaning aniqligi. V) D) S)</p>	<p>Muammoli vaziyat Hozirgi kunda ko'chalarda, bozorlarda juda ko'p yosh bolalarni ko'ramiz. Ular arava tortib yurgan, non sotayotgan, ko'chada mashina yuvayotgan, mardikorlik qilib yurganini uchratamiz. Ularning aksariyati, 11-16 yoshli bolalar. Ayni bilim oladigan, o'qiydigan maktab yoshidagi bolalar.</p> <p>1. Siz bu xolatga bo'lajak pedagog sifatida va shaxs sifatida qanday qaraysiz? 2. Bunga kimlar aybdor deb bilasiz? 3. Bu yo'l ularni jinoyat sari boshlashi mumkinmi?</p>
<p>Simptom</p> <p>1. <i>Guruh jamoasini o'rganish va uni dasturini ishlab chiqish bosqichlarini yoritish?</i></p>	<p>Amaliy ko'nikma</p> <p>V. Guruh jamoasini o'rganishining namunaviy dasturini yozing</p>

10-13 ball “qoniqarli”

14-16 ball “yaxshi”

17-20 ball “a'lo”

Nazorat savollar

1. Jamoada shaxsni tarbiyalashning qanday shakllarini bilasiz?
2. SHaxsning shakllanishida guruh rahbarining roli qanday ?
3. Hozirgi kunda guruh rahbarlarining oldiga qo'yilayotgan vazifalar nimalardan iborat?
4. Guruh rahbarlarining ota-onalari bilan qilgan hamkorliklari natijasida nimalarga erishish mumkin?
5. Ijobiy harakterga ega bo'lgan chora tadbirlarning amaliy ahamiyati qanday?
6. Guruh bilan ishlash va unga rahbarlik qilishda nimalarga ahamiyat qilish kerak?
7. Guruh rahbari ma'naviyatining boyligi talabalar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadimi?

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi “FAN” nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. “Ofset print” MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: “Moliya” nashiriyoti, 2006.

8-AMALIY MASHG'ULOT: OILA VA JAMOATCHILIK BILAN OLIB BORILADIGAN TARBIYAVIY ISH METODIKASI

Dars maqsadi: Tarbiyaviy jarayonda oila mahalla va ta'lim muassasi hamkorligi haqida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaragaa —FSMUII, Qanday texnikasi, Insert metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

Mana hozir mahallalarga juda katta e'tibor berilyapti. Mahallada hamma birbirini biladi, birbiriga ko'z- qulok, bo'lib yashaydi. Keksa o qso qollar, bama'ni odamlarning yoshlarga ta'siri hammamizga ma'lum. qar bir mahallada shunday odamlar borki, ularsiz na to'y, na ma'raka o'tadi. Shunday vo qealarning guvoi ham bo'lamiz. Hatto janjallashib yoki kelisholmay turgan qo'ni- qo'shnilar «falonchi aka kelyapti» yoki «falonchi akani chaqirib kelish kerak» deyilsa, o'z-o'zidan jimib qolishadi. Shu ma'noda oiladagi kekxa otaonaning fayzi be qiyos ekanligini ta'kidlash lozim. Bir necha oila bo'lib, bir qozondan ov qatlanish, ota-ona izmidan borib kam bo'lmagan farzandlar son-sizanoqsiz. Lekin oxirgi paytlarda bitta otasi yoki onasini chi qishtirmagan, ularning «ortiqchaligi» sezilib qolayotgan oilalar uchramokda, kekxa ota yoki onaning kuzi tirikligida uyga ajoyib bir tarovat tar qatib turishini fa qat ulardan judo bo'lgandan keyingina qis qilinadi. Mahallalar bilan boli q, yana bir udum haqida gap yuritmoqchimiz. Bu kishilarning o'z kasbi, teng qurligi yoki mahalladoshligiga qarab, «ran» uynash odatidir. Bunday tuplanishlar ham o'ziga xos milliy namoyishning bir ko'rinishi. Faqat u biroyda yoki ikki haftada biror xonadonda takrorlanadi. Bunday yiqinlarning far qi shundaki, unda davlat siyosatidan tortib bozor narx-navosiyu farzandlar tarbiyasi, mahalla axli hayotidagi yangiligu mamlakat ahvoli xususida bahs, munozara, maslahat bo'ladi.

Nazorat savollari:

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan oilalarga ko'rsatilayotgan e'tibor aniqlash

Oila – jamiyat negizi tahlil qilish

Oila va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq farqin ajratish.

Oila tarbiyasi. Oila, ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligi bajarish

Otaonalar guruhi majlisini muntazam tashkil etish ahamiyati.

Ota-onalarga pedagogik bilim berish o'rgatish.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

9-AMALIY MASHG'ULOT: O'QUVCHILARNI BILIMGA BO'LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH ORQALI TARBIYALASH

Dars maqsadi: O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish orqali tarbiyalash va kitob o'qishga qiziqishni shakllantirish, ma'rifatparvar olimlarning ta'lim-tarbiya qo'shgan hissasi haqida tasavvurni shakllantirish.

Kerakli jihozlar:Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalarga FSMU interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

Pedagogika fanini o'qitishda "FSMU" usulini qo'llanilishi FSMU texnologiyasi Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda ,baxs –munozaralar o'tkazishda yoki o'quv seminari yakunida, yoki o'quv rejasi asosida biron bir bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. CHunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrlarini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshkalarga o'tkazishga, ochik xolda baxslashishga, shu bilan bir katorada o'quvchi –talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini taxlil etishga, kay

darajada egallaganliklarini baxolashga xamda tinglovchilarni baxslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Maksad :Ushbu texnologiya talaba va o'quvchilarni tarkatilgan oddiy qoozga o'z fikrlarini anik va kiska xolatda ifoda etib, tasdiklovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-Bosqich

- trener tinglovchilar bilan birga baxs mavzusini yoki muxokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki urganilgan bulimni belgilab oladi; -trener ukuv mashgulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nixoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi xakida tinglovchilarga ma'lumot beradi
- mashgulot davomida har bir tinglovchi uz fikrini erkin xolda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2-Bosqich

- Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qoozlar tarkatiladi: Har bir tinglovchi yakka tartibda tarkatilgan qoozdagi FSMU ning 4 bosqichini uz fikrlarini yozma bayon etgan xolda to'latadi.
- bir tinglovchi o'z qoozlarini tulatib bolgach, okituvchi ularni kichik guruhlarga bulinishlarini iltimos kiladi yoki uzi turli guruhlarga bo'lish usullaridan foydalangan xolda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi;
- trener har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qoozlarni tarqatadi; trener kichik guruhlarga har birlari yozgan qoozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirilgan xolda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

3-Bosqich.

- kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;
- Guruh a'zolari FSMU ni 4 bosqichini har biri buyicha umumlashtirib, uni ximoya kilishga tayyorgarlik ko'radilar;

4-Bosqich

Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini ximoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-Bosqich.

kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini ximoya kiladilar: guruh, vakilari har bir bosqichni aloxida ukiydi iloji boricha izox bermagan xolda. Ba'zi bo'limlarni isbotlashi, ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6-Bosqich.

- trener mashgulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi; - quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat kiladi: ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?
- ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?
- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qoozlar tarqatiladi.

Nazorat savollari:

1. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish va mehnat ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi.
2. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotga qo'llay olishlarini hisobga olish.
3. O'quvchilarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akademiyasi "FAN" nashriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashriyoti, 2006.

10-AMALIY MASHG'ULOT: O'QUVCHILARDA INTIZOMLILIKNI TARBIYALASHNING SHAKL VA METODLARI

Dars maqsadi: O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning shakl va metodlarini o'rganish metodikasi haqida bilim berish.

Kerakli jihozlar: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaragaa —Klasterl metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari

Guruh rahbari o'z o'quvchisini doimo o'rganib borishi uchun faqat o'quvehilar bilangina emas, balki o'qituvchilar bilan, o'quvchilaming ota-onalari bilan ham ish olib borishi kerak. Sinf xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Guruh rahbarining ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridan foydalanish va bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ulami har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtiarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishini, to'garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Bolalarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbari o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

- yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqmng boy milliy, ma'naviy tarxiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish;
- shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratish;
- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, ularda reja va amal birligi hissini uyo'tish;
- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;
- har bir o'quvchining bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni

rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilib ko`rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo`llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlaryaratish;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitish-larga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolo`nchilik, tuxhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo`llanilishi lozim;
- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yasha-yotgan odamlar bilan o`zaro munosabat - muloqotni o`rganish, o`z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo`lib turish, o`zbekiston Resublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni o`zbekiston Konstitutsiyasiga, bayroo`iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;
- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o`zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;
- mustaqil respublikamiz o`zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga to`o`ri va holisona baho berishga o`rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ochiq-oshkora tashqi siyosatiga va o`z xalqining turmush darajasini oshirishga yo`naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to`o`ri tushuntirmoo`i kerak.
- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;
- soo`lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo`lish istagini shakllantirish;
- yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o`rgatish;
- barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o`rgatish;
- o`zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo`llash malakalarini shakllantirish;
- insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-axloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;
- marakaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlaridagi hikmat, o`git va nasihatlarini o`rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;
- tabiatga to`o`ri munosabatning mohiyatini, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo`yicha bilimlar berish;
- ota-ona va vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

o`z-o`zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va hurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilishini saqlash, ma'naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

- yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo`lish, yaxshini yomondan ajrata olish bilimiga ega bo`lishini tushuntirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;
- o`quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o`rgatish;
- darslarda ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;
- odob-axloqqa xos sifatlarni o`quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;
- o`quvchilarda mehnat ko`nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;
- axloqiylikning oddiy hayotiy qoidalari bo`lishi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini e'zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib

borishi.

Bolalarni tarbiyalashda o`qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

- tarbiyaning o`quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini;
- o`quvchilarning aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'sirini o`rganish;
- o`qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san'at va mahorati.

o`quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o`yin, tabiatda, bahs-munozara, uchrashuv shaklida bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyalarni qo`llashda o`qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik - ta'lim-tarbiya amaliyotga asoslangan tajriba, sinovdan o`tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy

etish.

2. Tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish.

3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o`rganib borish.

4. Tarbiya jarayonida o`quvchi bilan o`quvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.

5. Ilmiylik - yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o`quvchilarni mustaqil fikrlash va o`zini anglashga o`rgatish.

6. Bolalarni rejadagi mavzular asosida amaliy faoliyatga jalb etish.

7. Ilo`or tajribalarga suyanish.

8. Tarbiyaning maqsadini aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o`quvchining ijodiy mustaqil faoliyati, tarbiya jarayonida maqol, matal, ertaklardan o`rinli foydalanish, o`yin, test savollari, ko`rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.

9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o`qituvchi nazariy chuqur bilimlarga ega bo`lishi kerak.

1-4- sinflarda darslarni turli shakllarda tashkil etish lozim:

- o`yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joylarda, mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyli va zamonaviyligi bilan dardob-axloq tushunchalarini tarbiyalashga qaratilishi.

- o`quv masho`ulotining rang-barang usullar: audio, video, ko`rgazmalilik, jonli so`z ta'sirida tashkil etilishi.

- o`qituvchini yangi texnologik mahoratga ega bo`lishi va ijodkorligi.

Tarbiyaviy soatlarni maqsadiga ko`ra xilma-xil shakllarda tashkil etish:

- ijodiy dars,
- ertalik darsi,
- baxs,
- suhbat,
- sayohat darslari,
- uchrashuvli dars.

Yangi o`quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televidenie, ma'naviy o`yinlar, mushoiralar qo`llanilishi mumkin. Kishilik jamiyatining har bir sohasi, u yoki bu ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishi xalq o`zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarida, afsona, doston, ertak, hissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikrli, dono, ma'rifatparvar, mutafakkirlarimizning asarlarida atroflicha talqin etilgan. o`quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asarlardan keng foydalanish mumkin.

Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlar o`qituvchi tarbiyachilar, sinf rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalariga muvofiq ravishda tashkil etadilar. O`qituvchi o`z harakatlarini va ota-onalarining harakatlarini bu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratishi lozim. Odatda, buning uchun bolalarning oiladagi hayot sharoitlarini o`zgartirish, tarbiyalanuvchilarda noto`qri hatti-harakatni keltirib chiqaruvchi sabablarin yo`qotish talab etiladi. Bu esa Darsdan tashqari vaqtdagi ishlarni tashkil qilish, sinfda

o'quvchilar intizomini mustahkamlash guruh rahbari zimmasiga bir qator vazifalarni yuklaydi. Biz o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning forma va metodlari mavzusidagi kurs ishini bajarish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik;

- yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqmng boy milliy, ma'naviy tarxiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish;
- shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratish;
- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, ularda reja va amal birligi hissini uyo'otish;
- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;
- har bir o'quvchining bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlaryaratish;
- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitish-larga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolo'onchilik, tuxhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanilishi lozim;
- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yasha-yotgan odamlar bilan o'zaro munosabat - muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, o'zbekiston Resublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni o'zbekiston Konstitutsiyasiga, bayrog'iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;
- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;
- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;
- marakaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlaridagi hikmat, o'git va nasihatlarini o'rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;
- o'quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish;
- kichiklarga izzat, oilada bir-birini e'zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi.

Shuningdek, o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o'yin, tabiatda, bahs-munozara, uchrashuv shaklida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga o'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari yuzasidan "Klaster" metodini shakllantirish so'raladi.

Nazorat savollari:

1. O'quvchilar ongli intizom va mas'uliyat hissini sezishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar mazmuni va mohiyatining ahamiyati.
2. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda guruh rahbarining maqsadi va vazifalari.
3. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarning ijodiy, noan'anaviy, interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish zaruriyati.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqususov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

11-AMALIY MASHG'ULOT: GURUH RAHBARI ISHINI REJALASHTIRISH VA UNI HISOBGA OLISH

Dars maqsadi: Guruh rahbarining o'quvchilarni o'rganish metodikasi haqida bilim berish.

Kerakli jihozlar: Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanidan talabalaraga —Klasterli metodi interfaol usulini dars jarayoniga qo'llash lozim.

Ishni bajarish tartibi:

Tayanch iboralar asosida vizual ma'lumotlar

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoaning negizi – umuiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishag taalluhli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

Kichik guruh – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shu ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kishilar guruhi.

Referent guruh – shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yao'in tutgan guruhi.

1. SHaxs uchun taqlid qilish va andoza olish guruhi turi:

a) referent guruh; b) normativ guruh;v) negativ guruh; G) qiyoslash guruhi.

2.Odamlarda bevosita muloqotda bO'lish imkoniyati bO'lmagan guruh:

a) birlamchi guruh; b) ikkilamchi guruh;v) rasmiy guruh; G) norasmiy guruhi.

Nazorat savollari:

1. Rejalashtirishda guruh rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari aniqlang.
2. Guruhga qisqacha tavsifnoma.
3. Tarbiyaviy vazifalar. O'quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari
4. O'quvchilar turar joylarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish o'rganish

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqususov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

12-AMALIY MASHG'ULOT TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TASHKILOTCHINING ISH METODIKASI

Darsning maqsadi: Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablari haqida tushuntiradi. Tarbiyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtirish va o'tkazish tartibini o'rganish orqali talabalarda rahbarlik va tarbiyachilikka qiziqish uyg'otadi. O'quvchilar jamoasini shakllantirishning metodikasini talabalarga tushuntirish. Jamoa oldiga va ayrim o'quvchilarga talablar qo'yishning usullari, istiqbol rejalar qabul qilish va bajarish yo'llari, an'analarga tayyorgarlik ko'rish va nishonlash metodikasi haqida ma'lumot beriladi.

Kerakli jihozlar: Darslik, o'quv qo'llanmalar, boshqaruv yuzasidan tavsiyalar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar.

Ishni bajarish tartibi:

- Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishga aniqlik kiritadi.
- Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish tartibini tahlil qiladi.
- Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablarni o'rganadi.
- Sinf rahbari va tarbiyachi faoliyatining mohiyati ochib beriladi.
- **Mashg'ulotni yakunlash.**

Nazorat savollari:

1. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, rejalashtirish va o'tkazish qanday aniqlamiz.
2. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablarni aytib bering.
3. Sinf rahbarining tarbiyachilik faoliyatini o'rganib olish.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashriyoti, 2006.

13-AMALIY MASHG'ULOT TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TASHKILOTCHINING KASBIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA UNING HUQUQLAR

Dars maqsadi: Ta'limni tashkil etish shakllari haqida ma'lumot berish. Ta'limni tashkil etishda sinf-dars turining ahamiyatini yoritib berish. Darsga qo'yiladigan talablarni tushuntiradi. Darsni tashkil eta olish ko'nikmasini hosil qilish.

Kerakli jihozlar: darsliklar, ta'limni tashkil etishning mohiyatini ifodalovchi asarlar, mohir pedagoglarning darslari tushirilgan videolavhalar, ko'rgazmali qurollar. Har xil dars turlarining ishlanmalari. Dars loyihalari, 1 soatlik darsning reja-matni

Ishni bajarish tartibi:

- Ta'limni tashkil etish yuzasidan adabiyotlar bilan tanishish;

- Sinf-dars turining mohiyatini o'rganib chiqish;
- Darsga qo'yiladigan talablarni aniqlash;
- Dars turlarini o'rganish;
- Darsning tarkibiy qismlarini ajratish;
- Mohir pedagoglarning darslarini tahlil qilish;
- ZPT asosida bir soatlik darsga reja-matn tayyorlash;
- Bir soatlik darsni tashkil qilish;
- Darsda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarini tahlil qilish;
- Mashg'ulotni yakunlash;

Nazorat savollari:

1. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish haqida tushuncha bering va izohlang.
2. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning mohiyatini ochib bering.
3. Maktabda tarbiyaviy ishlarni o'tkazish tartibini sharhlab bering.
4. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, rejalashtirish va o'tkazish tartibini asoslab bering.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

14 -AMALIY MASHG'ULOT TASHKILOTCHINING O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN HAMKORLIKDA ISH OLIB BORISH METODIKASI

Darsning maqsadi: O'quvchilar jamoasini shakllantirishning metodikasini talabalarga tushuntirish. Jamoa oldiga va ayrim o'quvchilarga talablar qo'yishning usullari, istiqbol rejalar qabul qilish va bajarish yo'llari, an'analarga tayyorgarlik ko'rish va nishonlash metodikasi haqida ma'lumot beriladi.

Kerakli jihozlar: Darslik, o'quv qo'llanmalar, boshqaruv yuzasidan tavsiyalar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar.

Ishni bajarish tartibi:

- Talabalarning o'z jamoalarida tutgan o'rnini anglashga yo'naltirish.
- Formal va noformal jamoaning bir-birdan farqlarini qiyoslab chiqish.
- Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyalarni ajratib ko'rsatish.
- Jamoaning shaxsga ta'siri qaysi bosqichlarda yuqori bo'lishini izohlash.
- O'quvchilar jamoasini shakllantirishning turli yo'llari farqini anglash
- Mashg'ulotni yakunlash.

Nazorat savollari:

1. Jamoa va o'quvchilar jamoasining mohiyatini aytib bering.
2. Jamoaning o'quvchi yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlarini tahlil qiling.
3. Jamoaning jipslashuvida topshiriqlarning ahamiyatini aniqlang.
4. Farmal va nofarmal jamoaning bir-biriga o'xshashlik va farqini izohlang.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

15-AMALIY MASHG'ULOT TASHKILOTCHI VA O'QUVCHILARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ISHLARINING METODIKASI

Dars maqsadi: Tashkilotchi va o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish ishlarining metodikasi metodikasi haqida ma'lumot beriladi.

Kerakli jihozlar: Darslik, o'quv qo'llanmalar, boshqaruv yuzasidan tavsiyalar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar.

Ishni bajarish tartibi:

- Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining ish faoliyati tushunchasini o'rganish;
- O'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilish qo'mitalari faoliyatida qatnashuvining mohiyatini aniqlash;
- O'zini-o'zi boshqarish o'quvchilarni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalashning ilmiy ishlarini o'rganish;

Nazorat savollari:

1. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining ish qanday amalga oshiriladi.
2. O'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilish qo'mitalari faoliyatida qatnashuvi, ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta'sirchan vositasi o'rganish
3. O'zini-o'zi boshqarish o'quvchilarni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalash, ta'lim muassasasida ma'naviy muhitni saqlash va shakllantirish aniqlash

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

16-AMALIY MASHG'ULOT TARBIYAVIY TADBIRLARNI REJALASHTIRISH, TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

Dars maqsadi: Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablar haqida tushuntiradi. Ularni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Kerakli jihozlar: Darslik, o'quv qo'llanmalar, boshqaruv yuzasidan tavsiyalar, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar.

Ishni bajarish tartibi:

Rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.

Rejalashtirishda guruh rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari.

Guruhga qisqacha tavsifnoma.

Tarbiyaviy vazifalar.

O'quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari

O'quvchilar turar joylarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.

Nazorat savollari:

1. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarni tushuntirib, ochib bering.
2. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarni siz o'qigan maktabda qanday bajarilganligini tahlil qiling.
3. Turli maktabdagi sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarning usullarini kuzating. Ular o'zlariga qo'yilgan talablarni qanday bajarmoqda, ularni bir-bir taqqoslang.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonava, Normurodorva B., Rahmonqulov R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi O'quv qo'llanma. O'z. Res.Fanlar Akdemiyasi "FAN" nashiriyoti 2007 y.
2. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma. "Ofset print" MCHJ T.: 2013.- 278 b.
3. Axmedova 3. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi T.: 2004 y.
4. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009..
5. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari va Internet saytlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha "Mustaqil ish" tayyorlash;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Maqsad talabalarni mustaqil o'qishga o'rgatish. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish sistematik tarzda, ya'ni doimiy uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Talaba auditoriyada olgan bilimni mustahkamlash, shu bilan

birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishi uchun har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

Tarbiyaviy ish metodikasi fanidan mustaqil ta’limning mazmuni va hajmi.

tG’ r	Mustaqil ta’lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarish mudda ti	soat
1.	“Tarbiyaviy ish metodikasi” fanining maqsadi va vazifalari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1 – hafta	2
2.	SHarq mutafakkirlarining ilmiy-ijodiy merosidan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2-hafta	2
3.	Pedagogik texnika pedagoglik mahoratining tarkibiy qismi sifatida	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	3–hafta	2
4.	Pedagoglarning o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4–hafta	2
5.	O‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish metodikasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	5 – hafta	2
6.	Guruh jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	6 – hafta	2
7.	SHaxsga jamoaviy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning shakl va metodlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	7–hafta	2
8.	Oila va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ish metodikasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	8 – hafta	2
9.	O‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali tarbiyalash	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	9 – hafta	2
10.	O‘quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning shakl va metodlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	10 – hafta	2
11.	Guruh rahbari ishini rejalashtirish va uni hisobga olish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	11 – hafta	2
12.	Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchining ish metodikasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	12 – hafta	2
13.	Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tashkilotchining kasbiga qo‘yiladigan talablar va uning huquqlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	13 – hafta	2
14.	Tashkilotchining o‘quvchilar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib borish metodikasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	14 – hafta	2
15.	Tashkilotchi va o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarish ishlarining metodikasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	15 – hafta	2
16.	Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazish metodikasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	16 – hafta	2



“Tarbiyaviy ish metodikasi ” fanidan glossariy

Amaliy ishlar metodi – o’zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo’llash ko’nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Axloq (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma’nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo’lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig’indisi.

Axloqiy ong – shaxsga axloqiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalari to’g’risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo’lgan tartib, odob, o’zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o’quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko’nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to’g’risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baynalmillik («inter» – orasida, o’rtasida, aro, «natio» – xalq)– o’zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an’analarini, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon etkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilat.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko’rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Bilish - ob’ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o’zlashtirish jarayoni.

Vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o’zi mansub bo’lgan millat, tug’ilib o’sgan vatani tarixidan g’ururlanishi, buguni to’g’risida qayg’urishi hamda uning porloq istiqboliga bo’lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Davlat ramzlari - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g’oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimi.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so’zining tarjimasini bo’lib, yig’ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma’nolarni anglatadi) - bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo’lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an’analari – jamoa a’zolari tomonidan birdek qo’llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi - jamoa a’zolari o’rtasidagi shaxslararo ma’naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim shaxslar o’rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

Jamoaning rasmiy tuzilishi - turli ko’rinishdagi jamoa faoliyatini yo’lga qo’yishning tashkiliy jihatlari.

Jinsiy tarbiya - o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya - o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Individ (lotincha “individuum” bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamida tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

Uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Kasb-hunar kolleji - o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Ko'rgazmali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabdan tashqari ta'lim - madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Mafkura (arabcha «mafkura» - naqtai nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksaklash, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari - muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

Metod - yunoncha tarjimai «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika (fan sifatida)– xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Nafosat didi - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi.

Nafosat madaniyati - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Nafosat ongi - go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Pedagogik mahorat – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik texnologiya – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Test - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Topshiriq - o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuntirish - o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To'garak - o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.

Umumiy pedagogika - maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

Usul - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs.

Fuqarolik - huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi - fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya - o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik ta'lim - o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

Ekologik faoliyat - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

E'tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

O'z-o'zini baholash - mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.
